

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
URGANCH INNOVATSION UNIVERSITETI NTM**

***INNOVATSIYA
VA
TARAQQIYOT***

***Ilmiy-metodik, ijtimoiy, ma’naviy-ma’rifiy
JURNAL***

2025-yil, 2-son

Urganch-2025

Bosh muharrir:

M.J.Eshmurodov – Filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

Bosh muharrir o‘rinbosari:

S. Samandarova – Filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

Mas’ul kotib:

U.Bekmuhammad – Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Tahrir hay’ati:

M.Isxoqov – Tarix fanlari doktori, professor

Sh.Maqsudov – Tarix fanlari doktori, professor

G.Durdieva – Arxitektura fanlari doktori, professor

A.Ashirov – Tarix fanlari doktori, professor

G‘.Boboyorov – Tarix fanlari doktori, professor

Sh.O‘ljayeva – Tarix fanlari doktori, professor

S.Hoshimov – Tarix fanlari doktori, professor

O.Komilov – Tarix fanlari doktori, professor

D.Jamalova – Tarix fanlari doktori, dotsent

F.Boboyev – Tarix fanlari doktori, professor

Z.Do‘simov – Filologiya fanlari doktori, professor.

S.K.Salayev – Iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

S.E.Normamatov – Filologiya fanlari doktori, professor.

Ulug‘bek Hamdam – Filologiya fanlari doktori, professor.

Bahodir Karim – Filologiya fanlari doktori, professor.

Jabbor Eshonqul – Filologiya fanlari doktori, professor.

M.Asadov – Filologiya fanlari doktori, professor.

U.Jo‘raquloov – Filologiya fanlari doktori, professor.

N.Afogova – Filologiya fanlari doktori, professor.

A.D.O‘razboyev – Filologiya fanlari doktori, professor.

D.Q.G‘ayipov – Filologiya fanlari doktori, professor.

A.I.Primov – Filologiya fanlari doktori, dotsent.

R.Y.Xudoyberganov – Filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

R.B.Maxmudov – Filologiya fanlari doktori, dotsent.

M.M.Masharipov – Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent.

G.Matyoqubova – Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent.

Qozoqboy Yo‘ldosh – Pedagogika fanlari doktori, professor.

M.Salayeva – Pedagogika fanlari doktori, professor.

I.Abdullayev – Iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

D.Xudayberganov – Iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent.

M.Xoshimxonov – Falsafa, pedagogika, filologiya fanlari doktori, professor.

M.S.Xajiyeva – Falsafa, pedagogika fanlari doktori, professor.

O.N.Naumenko – Tarix fanlari doktori, professor (Rossiya).

Y.A.Naumenko – Psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya).

Y.M.Gancharov – Tarix fanlari doktori, professor (Rossiya).

K.V.Karpinskiy – Psixologiya fanlari doktori, professor (Belorus).

L.S.Zelensova – Iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Rossiya).

V.A.Barmin – Tarix fanlari doktori, professor (Rossiya).

A.A.Veryayev – Pedagogika fanlari doktori, professor (Rossiya).

A.G.Abdullin – Psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya).

Almaz Ulviy – Filologiya fanlari doktori, professor (Ozarbayjon).

Azizullah Aral – Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent (AQSH).

H.H.Tadjiyev – Turkologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

(Qozog‘iston).

ISSN 3030-3206

Innovatsiya va taraqqiyot: ilmiy-metodik, ijtimoiy, ma’naviy-ma’rifiy jurnal.
№ 2 (23), Urganch innovatsion universiteti, 2025-yil.

MUNDARIJA:

TARIX

A.ASHIROV. O‘zbek oilasida suv bilan bog‘liq madaniyat va milliy tarbiya.	4
A.AZIZOV. O‘zbek ekin-tikinchilik an‘analarida ramz va belgilar talqini....	12
U.BEKMUHAMMAD. Navoiy va Bobur. Hirotidagi siyosiy, madaniy jarayonlar.....	19
F.ABDUXOLIQOV. Bobur siymosi sharq miniatyuralarida	27
X.JUMANAZAROV. Turkiston o‘lkasida an‘anaviy sog‘liqni saqlash muassasalari.	32

FILOLOGIYA

M.IBROHIMOVA. Badiiy tasvir va talqin uyg‘unligi.....	41
R.JABBOROV. Fuzuliyning hayoti va adabiy merosi.	47
B.RAJABOVA. Attor va Navoiy talqinida Robiya Adaviya siymosi.	52
A.AROL. Afg‘onistonda Navoiyshunoslik.	61
F.SAPAYEVA, A.ALLAMBERGENOV. Maxtumqulishunoslikdagi jarayonlar	70
S.SAMANDAROVA, U.BEKMUHAMMAD. Matnazar Abdulhakim ijodidagi o‘g‘iz shevasida yaratilgan she‘rlarning ahamiyati.....	85

TARIX**O‘ZBEK OILASIDA SUV BILAN BOG‘LIQ MADANIYAT
VA MILLIY TARBIYA****UO‘K 825.1**

**Adhamjon
ASHIROV,**
O‘zbekiston Fanlar
Akademiyasi Tarix
instituti bo‘lim
boshlig‘i, tarix fanlari
doktori, professor.

Annotatsiya: Maqolada o‘zbek xalqining suv bilan bogliq milliy qadriyatlari va an‘analari etnografik materiallar asosida o‘rganilgan. Shuningdek, o‘zbek xalqi oilaviy marosimlar tizimiga bo‘lgan farzand tugilishi, nikoh va motam marosimlarida suv bilan bogliq turfa xil urf-odat va marosimlar ham ilmiy asosda tahlil qilingan.

Аннотация: В статье на основе этнографических материалов изучены национальные ценности и традиции узбекского народа. Научному анализу подверглись также различные обычаи и ритуалы, связанные с водой в системе семейных обрядов узбекского народа, таких как родильные, брачные и траурные церемонии.

Annotation: The article analyzes the national values and traditions of the Uzbek people related to water based on ethnographic materials. In addition, the Uzbek people's system of family rituals, including various customs and rituals related to water during childbirth, marriage, and mourning ceremonies, is also analyzed on a scientific basis.

Kalit so‘zlar: Suv, o‘zbeklar, oila, nikoh, motam marosimlari, etiket, madaniyat, urf-odat va marosimlar.

Ключевые слова: Вода, узбеки, семья, брак, траурные обряды, этикет, культура, обычаи и ритуалы.

Key words: Water, Uzbeks, family, marriage, mourning rituals, etiquette, culture, customs and rituals.

Suv Markaziy Osiyo xalqlari uchun “buyuk tarbiyachi” hisoblanadi. Mintaqa aholisi suvni hayotiy muhim modda yo “resurs” deb emas, eng ulug‘ qadriyatlardan biri hisoblab, “boshidan suv o‘girib ichadi” degan iborada ifodalanganidek, chuqur e‘zozlaydi.

O‘zbeklarda ham azal-azaldan suv nafaqat bashariyat, flora va faunaning chanqog‘i, tashnaligini qondirish vositasi, balki tiriklik, hayot davomiyligi, poklanish va bilib-bilmay qilingan gunohlarni yuvish vositasi sifatida ham e‘zozlanadi. Suvga bag‘ishlangan bir qator tarixiy, badiiy asarlar ham yaratilgan.

Shu bois suv mavjud qonunlar va jamoatchilik munosabatlarida induviduallik va shaxsiy xudbinlikdan ko‘ra yuqoriroq mavqega ega bo‘lgan. Aynan suv orqali “inson – yer – suv” shaklidagi uchlikdagi ahloqiy me‘yorlar va odatlarga amal qilinadi. Mazkur tartiblar ko‘p hollarda yozilmagan qoidalar (“odat huquqi”), tabu va ayrim marosimiy cheklovlar ko‘rinishida bo‘ladi. Bularning bari, asosan, oila davrasida katta yoshdagi kishilar tomonidan bolalarga kichik yoshdan boshlab o‘rgatiladi, uqtiriladi, agarda yoshlar, bolalar

xato qilib qo'yishsa, ularga tushuntiriladi, zarur bo'lsa, tanbeh-dakki ham beriladi.

O'zbek oilasida suv bilan bog'liq madaniyat. Sharq xalqlari, xususan, o'zbeklarda ham jamoaga, ayniqsa, yoshi ulug' insonlarga alohida izzat-hurmat, mehr-muruvvat, xayr-saxovat ko'rsatilib, ular doimo qadrlanib keladi. Xususan, oilada bir ishni boshlashdan oldin xonadon egasi mahalla oqsoqoli hamda qarindoshlardan «Kengashli to'y tarqamas» tamoyiliga amal qilib albatta maslahat oladi, mashvarat qiladi. Milliy taom iste'mol qilish etiketiga ko'ra, ovqatlanish oldidan va taom yeb bo'lingach, fотиha o'qilganidan so'ng qo'llar suv bilan yuviladi. Ovqat tanovul qilishni dasturxon atrofida o'tirganlarning eng kattasi boshlab beradi, undan keyingina yoshiga qarab boshqalar taomga qo'l uzatadi. Lekin birgina holatda, ya'ni faqat suv ichishni yoshi ulug'roq kishilar emas, aynan yoshlar boshlab beradilar. Bu odat xususida xalq maqoli ham mavjud bo'lib, «Osh kattadan, suv kichikdan»¹ deydilar.

Bu o'rinda bir savol tug'iladi, ya'ni nima uchun suv ichish aynan kattalardan emas, balki kichiklardan boshlanadi? Chunki tashnalik inson uchun mushkul sinovdir. Odam taom yemasdan ma'lum muddat chidashi mumkin, lekin tanasining asosiy qismini suv tashkil etganligi sababli tashnalikka uzoq vaqt chiday olmaydi. Ayniqsa, yosh bola chanqasa, juda qiynaladi va tashnalik qancha davom etsa, uning murg'ak vujudiga shuncha ziyon bo'lishi mumkin. Shu sabab ham bu naqlga rioya etilishida yoshlarga bo'lgan mehribonlik va nasl davomiyligiga bo'lgan alohida diqqat-e'tibor va mehr-muhabbatni ko'rishimiz mumkin.

Shuni ham ta'kidlash joizki, o'zbek an'anasiga ko'ra, oilada yoki davralarda dasturxon atrofida o'tirishganda, taomdan avval va keyin duoyi fотиha qiladilar. Odatda, kishilar dasturxon atrofida to'planar ekan, dastlab Allohga shukronalar aytadilar. Shuningdek, taomdan so'ng dasturxon boshida o'tirganlarga nisbatan yoshi eng katta kishilardan biri duo qiladi. E'tiborli jihati ham shundaki, duolar xilma-xil bo'ladi. Masalan, shulardan birini keltirib o'tsak: «Bismillahir rohmanir rohiym. Shirin novvot, manzil obod, payg'ambar, xudoga salovat. Xo'p bersin, ko'p bersin. Keng fe'l, ketmas davlat bersin. Do'stga zor, dushmanga xor, nomardga muhtoj qilmasin. O't balosi, suv balosi, nohaq tuhmatdan o'zi asrasin. Omin, Allohu Akbar!». Demak, shu birgina duodan ham ko'rish mumkinki, odamlar suvni nafaqat ijobiy deb bilganlar, balki u keltiradigan falokatlarni ham eng yomon voqelik, falokatlardan biri sifatida Allohdan shu balodan saqlashini iltijo qilib so'raganlar.

Xullas, suv ajdodlarimiz tafakkurida dual vazifani bajargan bo'lib, suvdan azizroq, pokroq, mo'tabarroq, ayni vaqtda, undan vahimali, dahshatli va qo'rqinchliroq kuch-qudrat yo'qligini ajdodlarimiz qadim zamonlardayoq hayotda ko'rib, teran tarzda anglab yetganlar.

O'zbek oilasida ko'proq bobo va buvilar tomonidan nabiralar yoki otanalar tarafidan o'z farzandlariga uch-to'rt yoshidan boshlab suv – hayot

¹ O'zbek xalq maqollari. – Toshkent, 1987. 81-bet..

davomiyligi, ya'ni tiriklik asosi ekanligi tufayli doimiy ravishda suv va suv havzalari hisoblangan ariqlar, kanallar, daryolar tozaligi haqida qayg'urish insonning muqaddas burchi ekanligi tarbiyaning turli vositalari asosida singdirib borilgan. Xususan, suvni isrof qilmaslik, uni bulg'amaslik, suvga aslo tupurmaslik va peshob qilmaslik, suvga nopok hamda iflos narsalarni tashlamaslik uqtirilib, bunday yaramas, bema'ni qiliqlarni qilish nihoyatda og'ir gunoh ekanligi milliy va diniy qarashlar asosida o'rgatilgan¹.

Shuningdek, oqar suvga mag'zava va turli-tuman chiqindilar tashlash gunoh hisoblangan. Bunday yomon ishlarni bilib-bilmay qilib qo'ygan kimsalar keng jamoatchilik tomonidan doimiy ravishda qoralangan. Jamiyatning yuragi – oila davrasida keksalar “suvdek serob bo'lg'in”, “umringning o'tayotganini bilmoqchi bo'lsang, suvga qara”, “o't balosi, suv balosidan Yaratganning o'zi asrasin” deb duo qilishadi. Shuningdek, suvda hayot davomiyligi aks etgani bois har bir oilada er-xotin o'rtasidagi munosabatlarda o'zaro vafodorlik oilaning ustuni hisoblanishi yana bir maqolda “Suvsiz hayot bo'lmas, vafosiz – oila” deb tavsiflanadi.

Oilada har bir insonning yangi kuni, avvalo, suv bilan yuzlashishdan boshlanadi. Ota-onalar farzandlariga har kuni erta tongda uyg'ongan zahoti yuz-qo'lini suv bilan yuvishni, inson yuvinmagunicha “yuvuqsiz” holda biron kishi bilan salomlashmasligi, ko'rishmasligi, hech kimga qaramasligi va hech qanday yumushni bajarmasligi lozimligini uqtiradilar. Aynan yuz-qo'l yuvib poklangandan so'ng, oila a'zolari bir-biriga salom berishadi.

O'zbeklarda qiz bola turmushga uzatilayotgan kuni ota farzandiga oq fотиha berib, duo qiladi. Aynan mana shunday duolarda suvning o'ziga xos xususiyatlari qizlarning kelgusi umr yo'lida hamisha “yo'ldosh, mehribon” bo'lishi niyat qilingan: “Qizim, doimo suvday aziz bo'lg'in! Niyating va maqsadlaring har doim suvday toza bo'lsin. Qalbing va tafakkuring dengiz kabi chuqur va bepoyon, tiling buloq suvi kabi shirin, harakating esa suv to'lqini kabi shiddatli bo'lsin. Tashnalikdan azoblanayotgan insonlarga o'z vaqtida suv berilganidek, muhtoj kishilardan savobingni ayamagin. Suvdek har vaqt kerakli va muhim inson bo'lib yurishingni tilayman»².

O'zbeklarda biron-bir yaxshi niyat bilan duo qilingan chog'da keksalar: “Suvdek serob bo'lg'in”,–deyishadi. Shu o'rinda, avvalo, suvning odamlar tasavvurida bitmas-tuganmas boylik deb hisoblanganligi, boshqa tarafdin, uning serpushtlik ramzi sifatida e'zozlanganligini anglashimiz mumkin.

Xullas, o'zbeklarda suv odamlarning kundalik turmush tarzi va madaniyatida nihoyatda muhim o'rin tutgan. Mazkur bebaho ne'mat bilan bog'liq an'anaviy qarashlarni ramziy xususiyatlar bilan bog'liq ekologik, poklanish va gigiyena vositasi sifatidagi hamda suvning tibbiy xususiyatiga daxldor ayrim nuqtai nazarlarni umumlashtirish mumkin.

“Tirik” va “o'lik” suv. XX asrning 80-yillarigacha O'zbekistonning ko'plab hududlarida ichimlik suvi sifatida irmoqlari yuksak tog'lar bag'ridan

¹ Дала ёзувлари. Фарғона вилояти Фарғона тумани Каптархона қишлоғи. 2016 йил.

² Ушбу duo Анваржон ака Қосимов томонидан айtilган. Duo матнини бизга тақдим қилганлиги учун тарихчи Нигора Қориевага миннатдорлик билдирамиз.

boshlanadigan daryo, kanal va ariqlardan sharqirab keladigan suvdan unumli ravishda foydalanilgan. Bunday suvlar xalq orasida, odatda, “oq suv” deb atalgan. Aynan “oq suv”dan to’yimli taomlarni tayyorlash va tashnalikni qondiruvchi, dardga davo ichimlik – “oq choy” damlashda keng foydalanilgan. Jumladan, Namangan viloyati Kosonsoy tumani Rovot qishlog‘ida ham aholi asosan ichimlik suvi sifatida katta ariqdan oqib o‘tadigan suvdan foydalangan. Ariq qishloq boshlanishidan to chekkasiga qadar oqib o‘tgan. XX asrning 80-yillarida vodoprovod kirib kelganda ham qariyalar ariq suvidan choy damlab ichishni ma’qul ko‘rishar edi. Axborotchilar ma’lumotlariga ko‘ra, qishloq qariyalari doimo: “Xom suvdan emas, pishgan suvdan choy tayyorlashgan. Chunki ularning nazdida yer osti suvi bo‘lgan “qora suv” odamning chanqog‘ini qondirmaydi, shu “oq suv”dan choy damlangan”. Bu o‘rinda “Nima uchun aynan ariq suvi?”, “Xom suv bilan pishgan suv degani nima?”, “Bu suvlarning qanday farqi bor?” yoki “Suv ham tirik va o‘lik bo‘ladimi?” degan savollar paydo bo‘ladi.

Turkiy xalqlarda aynan “oq suv” hisoblangan ariq suvining ta’mi boshqacha bo‘lib, u shirin suv hisoblangan. Shu bois oqar suvdan damlangan choyning ta’mi “qora suv”, ya’ni yer ostidan chiqadigan suvdan qaynatib damlangan choy ta’midan farq qilgan. Shuningdek, o‘zbeklarda choy damlash jarayonida suv faqatgina bir marta qaynatilgan, xolos, qaytadan qaynatilgan suvdan choy damlanmagan. Nima uchun suv ikki marta qaynatilmagan? Chunki qayta qaynatilgan suv endi “o‘lik suv” hisoblanib, undan damlangan choyning ta’mi unchalik totli bo‘lmaydi. Shu sababdan ham katta to‘ylar va ma’rakalarda mehmonlarni maxsus choy bilan ta’minlovchi “bokchi” – choy qaynatuvchi odam bo‘lgan. Rus tilidagi “suv quyiladigan katta idish” ma’nosini anglatuvchi “Bak” atamasi og‘zaki nutqimizda “Bok” deyiladi. “Bokchi” ko‘pchilik uchun beriladigan choyni 100 daraja haroratda qaynashini doimiy nazorat qilgan. Choy uchun suvning maromida qaynatilishi marosim egalari tomonidan ham doimiy nazorat ostida bo‘lgan. Mahalliy aholining fikricha, chala qaynagan suvdan damlangan choy odamning qornini og‘ritib qo‘yar ekan. Qolaversa, sunnat va nikoh to‘ylarida “bokchi” ko‘pchilikka atalgan choyni tezroq qaynoq holida berish, mezbon, mehmonlar duosini olish, uni qayta qaynatmasdan tugatishga harakat qilgan. Chunki, yuqorida ta’kidlanganidek, suv bir martadan ko‘p qaynatilsa “o‘lik suv”ga aylanar ekan.

Shu boisdan o‘zbeklarda qadimdan uydagi chovgumda qaynatilgan suvni yangilangan holda choy damlash odati bo‘lgan.

E’tiborli tomoni shundaki, buyuk ajdodlarimiz asrlar davomida orttirgan tajribalari nafaqat kundalik turmush tarzida, balki adabiyot va xalq og‘zaki ijodida ham o‘z aksini topgan. Jumladan, o‘zbeklar orasida oqar suv tirik va shirin suv ekanligi hamda “qora suv”ning inson chanqog‘ini unchalik qondira olmasligi haqida “Oqar suvning haromi yo‘q”, “Totli suv toshdan chiqar, yaxshi aql – boshdan”, “Oqar suvning o‘z jilg‘asi va arig‘i bor” yoki “Qora suv chanqoqni

qondirmas, baxtli kishi qo‘noq qo‘ndirmas” degan ibratli, ogohlikka da’vat etuvchi maqollar keng tarqalgan¹.

Agar o‘zbek xalq og‘zaki ijodi durdonalariga nazar tashlansa, tiriklik suvi tip-tiniq oqar daryo bo‘lsa, o‘lik suv to‘xtab qolgan, ko‘lmak suvdir. Shu jihatdan olganda, mashhur fransuz antropologi K. Levi-Strosning fikr-mulohazalari ham qiziqarlidir. Uning yozishicha, bir-biriga qarama-qarshi suvlar bo‘lgan. Oqar suv (tinch suv, hayot suvi) va oddiy suv tushunchalarini bir-biriga qiyoslagan paytda har doim oqar suv ustun chiqadi. Ruhlar bilan aloqador bo‘lganligi tufayli ham oqar suv dahshatli hisoblanadi, tinch yoki to‘xtab qolgan suv esa barqaror xarakterga ega².

Inson turib qolgan suvda chinakam hayot asarini ko‘rmagan, aksincha, oqar suv odamga jo‘shqin hayot ramzi bo‘lib tuyulgan. Shu sababli xalq ertaklarida o‘lik suv doim oqmas manbalar – hovuz yoki ko‘lmakda tasvirlanadi³. Shuningdek, suv ham turli jinslarga bo‘lingan. Masalan, “oq suv” erkak suv, “qora suv” ayol suv hisoblangan⁴. Etnograf I. Muhiddinovning yozishicha, suv erkak va ayolga ajratilgan bo‘lib, “erkak suv” oqqan ariq bo‘ylaridagi yam-yashil o‘t-o‘lanlar zich va baland bo‘ladi, “ayol suv” oqqan ariqlar bo‘ylari esa o‘t-o‘lanlarsiz bo‘ladi yoki giyohlar juda kam o‘sadi. Aholining nazdidagi bunday bo‘linish qadimgi agrar kultlar, yana ham aniqrog‘i, hosildorlik ramzi bilan bog‘liq bo‘lgan⁵.

O‘zbeklarda nafaqat hayotbaxsh ichimlik suvi, balki dehqonchilikda foydalaniladigan suv ham ikkiga bo‘lingan. Ko‘p yillik hayotiy, kasbiy tajribaga ega mirishkor dehqonlar o‘z ekan-tikkanlarini sug‘orish ishlarida, asosan, “oq suv”, ya’ni tog‘lardan boshlanib, daryo, kanal va ariqlar orqali oqib keladigan foydali elementlarga to‘yingan suvdan foydalangan. Sirdaryo daryosidan bo‘tana loyqa suvning oqishi tufayli tuproq uchun nihoyatda foydali tabiiy o‘g‘itlar aralashmasi ham oqib kelgan. Bu kimyoviy tarkibi o‘g‘itli suv tuproq unumdorligini oshirishga ijobiy ta’sir qiladi. Loyqalardagi o‘simliklarga foydali bo‘lgan ohak, magniy, kaliy, natriy va fosfor singari kimyoviy moddalar yerlarning sho‘rlanib ketishiga yo‘l qo‘ymaydi. Usta dehqonlar bunday suvni “pishgan suv” deb ataydilar. O‘z navbatida, yer ostidan chiqib keladigan suv “zax suv” deb yuritiladi. Namangan viloyati Chust tumani Damobod qishlog‘ida yashovchi ko‘p yillik tajribaga ega dehqon Murodali ota Sheralievning ta’kidlashicha, aynan “pishgan suv” foydali minerallarga boy bo‘ladi. Shu bois ham ekinlar oqar suv bilan sug‘orilsa, ularning hosildorligi ham yuqori, mo‘l-ko‘l bo‘lar ekan⁶.

Ajdodlarmiz bir joyda turib qolgan suvda hayot asarini ko‘rmagan, aksincha, oqar suv qaynoq hayot ramzi bo‘lib kelgan. Shu sababli oqmas suv manbalari sifatida hovuz yoki ko‘lmaklar tilga olingan. Ko‘lmak suvi makruh hisoblanib, uni hatto uy hayvonlariga berish va ularni shu suv bilan cho‘mltirish

¹ O‘zbek xalq maqollari... 21, 67, 86. betlar

² Леви-Стросс. Структурная антропология. – Москва: Эксмо-пресс, 2001. С. 172.

³ Гўзалов Ф. Сувнинг ҳаётбахш сеҳри // Ёшлик журналы. 1990. №1. 75 бет.

⁴ Басилов В. Н. Шаманство у народов Средней Азии и Казахстана. Москва: Наука, 1992. С. 28.

⁵ Мухиддинов И. Земледелие памирских таджиков Вахана и Ишкашима в XIX – начале XX в. (историко-этнографический очерк). Москва., 1975 С. 101.

⁶ Dala yozuvlari. Namangan viloyati Chust tumani Damobod qishlog‘i. 2018 yil.

ham ta'qiqlangan. Chunki ko'lmak suv yovuz ruhlar makoni bo'lib, uy hayvonlariga ziyon-zahmat yetkazar ekan¹.

Tabiblarning aytishicha, nafaqat ichish, balki yuvib olish uchun ham tirik suv durustroq. Chunonchi, yozning chillasida tomir kengayishi tufayli bo'shashib, jaziramada lohaslangan odam hovuzda yoki yopiq suv havzalaridan ko'ra faqat oqar suvda cho'milgudek bo'lsa, tetiklashib, darhol o'ziga kelib qoladi².

O'zbeklarda azaldan har bir uydan erkak kishilar mahalla va qishloqda o'tkaziladigan jamoaviy yig'in va tadbirlarda albatta qatnashadi. Aynan shu bois erta bahorda obirahmat keltiradigan ariqlar, kanallar va zovurlarni hashar yo'li bilan tozalashda har bir xonadondan bitta erkak ishtirok etishi shart bo'lgan. Mahalliy aholi orasida yangi kanal va ariq qazishda qatnashish eng savobli ishlardan biri sanaladi. Shuningdek, O'zbekistonning barcha tumanlarida ko'klamgi ariq qazish payti birinchi suv kelgan paytda odamlar albatta bir-birlarini suvga pishrib oladilar. Bunday odat qurg'oqchilik paytidagi "Sust xotin"



marosimida ham o'ta keng qo'llaniladi. Taniqli folklorshunos olim Asqar Musaqulovning yozishicha, ular suv, aniqrog'i, uning ilohasiga qurbonliklar berishning evrilishga uchragan bir ko'rinishi bo'lib, shu yil butun elimiz suvday serob bo'lsin degan niyat, maqsadga qaratilgan, buning uchun suvning behad ta'sirchan va qudratli magik kuchiga ishonganlar³.

¹ Dala yozuvlari. Farg'ona viloyati Dang'ara tumani Tumor qishlog'i. 2020 yil.

² Isomiddinov Z. Suv nafaqat tiriklik manbai, balki hayotning eng ulug' mo'jizasidir // Hurriyat. 2018 yil 28 mart.

³ Musaqulov A. O'zbek xalq lirikasi Toshkent: Fan, 2010. 197.bet.

Suv bilan bog‘liq milliy tarbiya. Bolalarga avvallari doimiy ravishda suvning kundalik hayotimizdagi bebaho o‘rni va uning tashnalikni qondirish vositasi, hayotning asl manbai sifatida beqiyos ne‘mat ekanligi ta’kidlanib, uning har bir tomchisi nihoyatda qadrlanishi zarurligi betinim o‘rgatib borilgan. Ayniqsa, kundalik turmush tarzida suvni behad e‘zozlash, behuda sarflanishiga yo‘l qo‘ymaslik kerakligi uqtirib kelingan. Shuningdek, bolalarga oqar va oqmas suvga tuflash, unga yozilish, chiqindi tashlab ifloslantirish katta gunoh bo‘ladi, deb nasihat qilingan.



An‘anaga ko‘ra qizlar o‘n yoshgacha bo‘lgan davridan boshlab oiladagi oshxona ishlariga o‘z onasi va katta yoshdagi opalari tomonidan o‘rgatilgan. Ular ovqat tayyorlashni o‘rganishdan oldin oshxona idishlarini yuvib tozalashga undalgan. Oldinlari vodoprovodlar bo‘lmaganligi bois uyning oshxonasida maxsus belgilangan yerdan suv olinib, idish yuvilgan. Idishlar yuvib bo‘linganidan so‘ng azaliy odatga binoan guruch suvi, sut va qatiq solingan idishlar yuvilgan suvlar mevali daraxtlar tagiga to‘kilgan. Shuningdek, qizlar yoshligidan boshlab mehmon kelsa, tabassum bilan kutib olishga, uning qo‘liga darrov suv quyishga, epchillik bilan harakat qilishga, epli bo‘lishga o‘rgatilgan. Farg‘ona vodiysida buvilar, onalar erta tongda turishda fazilat juda ko‘p ekanligi bois saharda turib, darvozalarni ochish zarurligini uqtirishadi. Erta tongdan xonadon darvozalari ochiladi, ko‘chalarga suv sepilib, supuriladi.

Oilada o‘g‘il bolalarga ham yoshligidanoq ro‘zg‘orni yuritish va jismoniy mehnat bilan bog‘liq yumushlar qatori mehmondorchilik an‘anasi o‘rgatib borilgan. Bolalar kattalarning hurmati uchun o‘rnidan turib salom berish, ularning

qo‘liga zudlik bilan suv quyish, tayyorlangan taomni oldin yoshi ulug‘ insonlarga uzatish, umuman, kattalarga ehtirom ruhida tarbiyalangan. Ayniqsa, mehmon kelgan paytda dasturxon atrofida o‘tirganlar qo‘l yuvishi uchun suv quyish odati o‘ziga xos sanaladi. Aksariyat hollarda bu yumush yosh bolalarga buyuriladi. Qo‘lini yuvayotgan kishilar ham suv quyayotgan bolaga “Umring suvday serob bo‘lsin”, “Baxtli bo‘l”, “Umringga baraka bersin”, “Niyatlaring amalga oshsin” degan tilaklarni bildiradilar. Taomdan avvalgi suv iliq holatda qo‘lga quyilsa, ziyofatdan keyingisi qo‘ldagi moy yuqini ketkizar darajada issiqroq tayyorlangan bo‘ladi. Suv mehmon qo‘liga uzib-uzib quyiladi. Birinchi navbatda, o‘ng tomondan o‘tirgan mehmonlardan boshlab suv quyiladi, taomdan keyin esa suv quyish chap tomondan boshlanadi¹. Hozirgi kunda ham O‘zbekistonning turli hududlarida, xususan, Farg‘ona vodiysida uyg‘a mehmonlar kelgan paytda ularning qo‘llariga suv quyib kutib olishadi. O‘z navbatida, qo‘lni yuvgan kishi qo‘lining barmoqlarini silkitmagan holda sochiq bilan artadi. Qo‘l yuvilganda uni silkitib chor-atrofga suv sachratilsa, u kishi va oilasidan qut-baraka ketadi deyiladi. Agarda qo‘lni silkitib, qolgan suv yerga tushiriladigan bo‘lsa, shaytonlar ko‘payadi deb hisoblanadi.

Respublikamizning ayrim hududlarida yangi uy quriladigan yerga suv to‘la kosani tun bo‘yi qo‘yib qo‘yish odati bo‘lgan. Agar suv aynimay yaxshi tursa, bu joy uy solishga munosib deb topilar, agar suv buzilgudek bo‘lsa, bu yer avvaldan o‘zi xosiyatsiz ekan, deb qurilishga boshqa joy tanlangan.

Yuqoridagi ma‘lumotlardan shunday xulosaga kelish mumkinki, ayrim tabiat unsurlari singari suv ham behad muqaddas hisoblangan. Suv bir vaqtning o‘zida insonlar chanqog‘ini qondiruvchi hamda ularni poklovchi, dardiga darmon bo‘luvchi vosita vazifasini bajargan.

Suv bilan bog‘liq turli xalqona qarashlar asrlar davomida ajdodlardan keyingi avlodlarga o‘tib kelgan. Shuningdek, suv poklanish manbai bo‘lgani sababli o‘zbeklar qadimdan tozalikka katta e‘tibor berib keladi. Lekin aynan suvni asrab-avaylash va uning ilohiy ahamiyati bilan bog‘liq diniy-mifologik qarashlar deyarli unutilib ketdi. Shu sababli hozirda suv bilan bevosita bog‘liq zamonaviy bilimlarni xalq qarashlari bilan o‘zaro uyg‘unlashtirgan holda yoshlar ongi va qalbiga singdirish xalqimizning ekologik madaniyatining rivojlanishiga asos bo‘ladi.

¹ Xuddi shunday odat qirg‘izlarda ham bo‘lgan. Bu haqida qarang: Suvning so‘rog‘i. – Bishkek: Aygine madaniy-tadqiqot markazi, 2017. 7 bet.

TARIX**O‘ZBEK EKIN-TIKINCHILIK AN‘ANALARIDA
RAMZ VA BELGILAR TALQINI****UO‘K 820.30**

**Ahrorbek
AZIZOV,**
O‘zbekiston Fanlar
Akademiyasi Tarix
instituti ilmiy xodimi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada xalqimizning ekin-tikinchilik bilan bog‘liq tasavvurlarida ramz va belgilarining talqini tahlil etilgan. Aholi dunyoqarashida ekin-tikinchilik bilan bog‘liq turli ramzlar shakllangan bo‘lib, ular namgarchilik, yog‘ingarchilik, hosil mo‘l bo‘lishi yoki shamol bo‘lishi kabi xususiyatlarni o‘zida mujassam etganligiga ishonganlar. Bunday ramz hamda belgilar ming yillar davomida vujudga kelgan bo‘lib, bu mintaqada istiqomat qilib kelyotgan aholining dunyoqarashini ifodalaydi.

Аннотация: В данной статье анализируется трактовка символов и знаков в воображении узбеков, связанных с сельским хозяйством. В мировоззрении населения сформировались различные символы, связанные с сельским хозяйством, и они считали, что они воплощают в себе такие характеристики, как дождь, осадки, обильный урожай или ветер. Подобные символы и знаки создавались тысячелетиями и отражают мировоззрение людей, проживающих в этом регионе.

Annotation: This article analyzes the interpretation of symbols and signs in the imagination of Uzbeks associated with agriculture. People's worldviews developed various symbols associated with agriculture, which they believed to embody characteristics such as rain, precipitation, bountiful harvests, or wind. Such symbols and signs have been created over thousands of years and reflect the worldview of people living in this region.

Kalit so‘zlar: hosildorlik, namgarchilik, tumor, qurbaqa, tipratikan, o‘rdak, taqa, Sopollitepa, Umay ona.

Ключевые слова: слова: плодородие, влажность, амулет, лягушка, еж, утка, подкова, Сополлитепа, Мать Умай.

Key words: fertility, humidity, amulet, frog, hedgehog, duck, horseshoe, Sopollitepa, Umayona.

Insoniyat tarixidagi eng katta ixtirolardan biri ekin-tikinchilikning vujudga kelishi hisoblanadi. Unung vujudga kelishi bilan sohaning o‘ziga xos ramz va belgilari shakllana boshladi. Ilk ramzlar bevosita mashg‘ulotni anglatish yoki ajratish uchun vujudga kelgan bo‘lishi mumkin. Dastlabki ishlab chiqarish mashg‘ulotlaridan biri chorvachilik bo‘lsa, shubhasiz, ahamiyati jihatidan ikkinchi yirik mashg‘ulot ekin-tikinchilik hisoblanadi.

Ekin-tikinchilik bo‘yicha turli yillarda tadqiqotlar olib borilgan. Ularda tarixiy izlanishlarni F.Middendorf, G.P.Gelser, V.Bartold, Ya.G‘ulomov,

A.Muhammadjonov, elshunoslik bo'yicha M.Andreev, Ye.M.Peshereva, N.P.Lobacheva, B.X.Karmisheva, K.Shoniyoov, U.S.Abdullayev, A.A.Ashirov, A.R.Qayumov, Z.S.Isoqov kabi tadqiqotchilar amalga oshirishgan. Ekin-tikinchiilikda ramzlar talqini bo'yicha alohida tadqiqot amalga oshirilmagan.

Ilk ekin-tikinchiilik ramzlari va belgilarini o'zida mujassam etgan yodgorliklar devoriy qoyatosh suratlari bo'lib, Turon qadimgi aholisining turmush tarzi to'g'risida ishonarli ma'lumotlarni beradi. Xususan, Zarautsoy, Sarmishsoy, Saymalisoy kabi qoyatosh suratlarida ovchilik manzaralari bilan birgalikda ilk dehqonlar suratlarini ham ko'rishimiz mumkin.

Zarautsoy qoyatosh tasvirlarida uchraydigan uchburchaksimon kiyim kiyib olgan odamlar tasvirlari bo'lib, ularning qo'llarida ibtidoiy so'qa va o'roqlar tasvirlangan[1, C.28-30]. Ularning kiygan kiyimlari atrofidagi boshqa ovchilar hamda manzarada tasvirlangan odamlarnikidan farq qiladi. Bu kiyim ilk o'rim uchun kiyilgan maxsus marosim kiyimi, ilk dehqon jamoalari uchun esa ushbu uchburchaksimon shakl dastlabki ramz sifatida tasavvur qilingan bo'lishi mumkin.

Ekin-tikinchiilikda marosim kiyimlari bevosita hosildorlik ramzlari hisoblangan hayvonlarning tashqi ko'rinishlarini anglatgan bo'lishi ham mumkin. Bunga yorqin misol sifatida Saymalisoy qoyatosh suratlarida ifodalangan qo'shchilar suratlarini keltirishimiz mumkin. Unga ko'ra, omochni qo'shga qo'shgan kishilar o'ziga xos dumli kiyimlarni kiyib olishgani tasvirlangan[2, C.35]. Bundan tashqari, raqs tushayotgan kishilarning suratlari ham ushbu qoyatosh tasvirlarida ifodalangan bo'lib, ular qo'llarida qoramol shoxlarini tutib turishgani chizilgan.

Ushbu qoyatosh suratidagi dumli marosimiy kiyim va odamlar raqsga tushish jarayonida qo'llarida ko'tarib turgan qoramol shoxlari shuni tasdiqlaydiki, ilk ekin-tikinchiilik ramzlaridan biri buqa siymosi bo'lgan. Marosimiy kiyim kiygan holda yerga omoch bilan ishlov berish suratining mavjudligi, ekin-tikinchiilik ramzlaridan biri buqa bo'lganligini tasdiqlaydi. Qadimgi xalqlarning ko'pchiligida buqa ekin-tikinchiilik va hosildorlik ramzi hisoblangan.

Eng qadimgi ekin-tikinchiilik ramzlaridan yana biri qoyatosh suratlarida ifodalangan quyosh ramzi hisoblanadi. Qadimgi insonlar ekinlarni yetishtirishdagi quyoshning ahamiyatini yaxshi tushunganlar va uning suratidan ramz sifatida foydalangan bo'lishi mumkin. Saymalisoy qoyatosh suratlarida quyosh boshli odamlar tasvirlangan. Ushbu suratda marosimiy raqs ijrosi aks ettirilgan bo'lib, raqs tushayotgan insonlarning yuqori va quyi qismida quyosh boshli odam surati tasvirlangan[2, C.35]. Ushbu manzarada quyoshning chiqishi va botishi hodisasi aks ettirilgan bo'lishi mumkin. Shu orqali qadimgi kishilar quyoshning ekinlarni yetishtirishdagi ahamiyatini tasvirlagan bo'lishi ehtimoldan holi emas.

Turon hududida qadimdan ekin-tikinchiilik iqlim, tabiiy manbalar va aholi turmush tarziga ko'ra shakllangan. Aholi mashg'ulotlari orasida aynan ekin-tikinchiilik katta ahamiyat kasb etib kelgan. Xususan, o'lkaning yirik daryolari irmoqlari, qulay ekin ekish imkoni bo'lgan joylarda aholi turli xil ekinlar

yetishtirganlar. Natijada, ekin-tikinchilikning asosiy manbasi bo'lgan yer va suvdan foydalanish hamda sug'orish tizimini o'ziga xos ravishda yo'lga qo'yganlar. Suv manbasi va undan foydalanish natijasida milliy madaniyatda turli ramzlar shakllandi. Yomg'ir va suv, quyosh hamda issiqlik ekin-tikinchilik bilan mashg'ul bo'lgan jamoalar orasida o'z belgisiga ega bo'lib bordi.

Turon hududida miloddan avvalgi VI mingyilliklardan ilk ekin-tikinchilik vujudga kelgan bo'lsa, miloddan avvalgi IV mingyillikka kelib, ushbu mashg'ulotning sug'orma shakli keng yoyila boshladi. Natijada, ekin-tikinchilikning mahsuldorligi ortib, ushbu mashg'ulot manbalari bilan bog'liq turli ramzlar hamda belgilar sopol buyumlarda aks ettirila boshlandi. Ayniqsa, ushbu manbalar diniy tasavvurlar ta'sirida yanada mustahkamlanib bordi. Olib borilgan tadqiqotlar natijalariga ko'ra, Turonning har bir tarixiy-madaniy vohasida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlangan markazlar paydo bo'lganligi aniqlangan. Janubiy Turkmanistondagi Oltintepa, Namozgohtepa, Ulug'tepa, Gonur, Janubiy O'zbekistondagi Sopollitepa, Jarqo'ton kabilar shunday ekin-tikinchilik markazlari hisoblanadi.

Turon hududidagi ilk bezakli sopol buyumlar yangi tosh davridan qo'llana boshlagan. Sopol buyumlarda bezak sifatida turli hayvonlarning suratlari bilan birgalikda naqshli rasmlar ham solingan[3, B.7]. Ushbu ramz va belgilar qo'llanishi diniy-falsafiy ahamiyat kasb etuvchi tushunchalarni o'zida mujassam etgan. Xususan, ilk bezaklardan biri bo'lgan o'simlik surati yaratuvchanlik, hosildorlik va inson paydo bo'lishi bilan bog'liq qarashlarni ifodalagan.

O'simlik ko'rinishidagi bezakli sopol Sopollitepadan ham topilgan[4, C.72]. Ekin-tikinchilik bilan mashg'ul bo'lgan bu jamoa orasida ramzlar bora-bora muayyan odamlar guruhini bildiruvchi ahamiyat ham kasb etgan. Bunday ramzlar tushirilgan muhrlar aynan Sopollitepadan ko'plab topilgan.

Sopol buyumlarda to'lqinsimon ramzlar alohida ajralib turadi. Bunday belgilar aholi turmushida beqiyos o'ringa ega bo'lgan suvning dastlabki ramzi sifatida ishlangan bo'lishi mumkin. Suv qadimgi dehqonlar turmush tarzidagi eng ahamiyatli ikki manbaning biri bo'lgan.

E'tiqodiy qarashlarda suv hamisha muayyan ma'bud yoki yaratuvchi xudo tarzida tasavvur qilingan. Turon tarixiga oid eng qadimgi yozma manba Avestoning "Yasht" qismida o'lkaning qadimgi e'tiqodi bilan bog'liq qarashlari keltirib o'tilgan. Ushbu kitobdagi mavjud yigirma ikki bobning bittasi suv ma'budasi Ardivi Suvaga bag'ishlangan[5, B.72]. Unga ko'ra, hayotning boshlanishi, poklik, yaxshilik himoyachisi sifatida bugungi kungacha suv manbai xususiyatlari ushbu ma'budaga hos ekanligi qayd etilgan. Zardushtiylilik tasavvurlariga ko'ra, olamning asosi bo'lgan to'rt unsuridan biri suv deb qaralgan. Shuning uchun zardushtiylar orasida suvni bulg'ash katta gunoh hisoblangan[6, B.89].

Suvning ramzi sifatida ayrim hayvonlar tasavvur qilingan. Zardushtiylilik qarashlariga ko'ra, suvni gavdalantiruvchi hayvonlardan biri ilon hisoblangan. Keyingi davrlarda ham hosildorlik ilohasi – Nana haykalchalarida ilon ma'buda bilan birgalikda tasvirlangan[7, B.48]. Dunyo xalqlari afsonalarining bir talqinida yerni ko'tarib turgan hayvon ilon sifatida talqin qilingan[8, B.11-12].

O'simlik, suv manbalari ko'rinishida bezak berilgan kulolchilik buyumlari Nomozgoh[9, C.36], Kaltaminor[10, C.32], Sopollitepa[4, C.72-73], Yerqo'rg'on[11, C.52], Tillatepa[12, B.34], Afrosiyob[13, C.311]; [14, C.56], Oltintepa[15, C.50], Kofirqal'a[16, C.103], Mazdakxon[17, C.103] va boshqa manzilgohlar hamda shaharlardan topilgan. Sopol va boshqa buyumlarda aks ettirilgan suratlar hamda bezaklar asosan xo'jalikdagi mashg'ulotlar bilan bog'liq hisoblanadi. O'simliklarning bezak sifatida suratlarda chizilishi keyinchalik ilk yozuvlarning paydo bo'lishiga ham sabab bo'lgan. Shuningdek, aholining dunyoqarashida ekin-tikinchilikning o'rni qay darajada bo'lganligini aynan ushbu bezaklar ko'rsatib beradi.

Ekin-tikinchilikda qo'llangan ramz va belgilar talqini turli afsona hamda rivoyatlarda aks ettirilgan. Ushbu afsonalarda suv manbasi talqini alohida ahamiyatga ega. Xususan, qadimgi turkiylarning afsonalariga ko'ra, olam avval faqat suvlikdan iborat bo'lgan va ona qush – Umay kelib suv tubidan tuproq olib chiqib, yerni yaratganligi qayd etilgan. Shuning uchun keyinchalik ham Turon xalqlari xotiralarida suvning ramzi bo'lgan yaratuvchi ona qush – o'rdak siymosi saqlanib kelgan. Bundan tashqari, qadimgi turkiylar Samo xudosi yog'diradigan yomg'irni "urak" deb ataganlar. O'rdak surati va shakli kulolchilikdagi eng muhim ramzlardan biri sifatida ahamiyatga ega. Rishton kulolchilik maktabi ramzlaridan biri aynan o'rdak hisoblanadi.

Yana bir qadimgi tukriy afsonaga ko'ra yer yaratilgandan so'ng hamma yoq suvlikdan iborat bo'lganligi sababli, Kerbaliq deb nomlangan bahaybat baliq ustiga o'rnatib qo'yilgan va baliq yer parchasini ustida olib yurgan[6, C.67]. Bu kabi jonivorlar suvning ramziga aylangan va ular namgarchilik siymosi sifatida e'zozlab kelingan. Ular shaklidagi tumorlar qadimdan suv manbasi qudrati va kuchini o'zida mujassam etishiga ishonganlar.

Ekin-tikinchilikda ayrim hayvonlar yog'ingarchilik yoki namgarchilik ramzi sifatida tasavvur qilingan. Ulardan foydalangan holda ekinlarga yomg'ir yog'dirish mumkinligi bilan bog'liq ishonch mavjud bo'lgan. Ana shunday ramzlar qatoriga qurbaqa hamda toshbaqani kiritish mumkin. Qurbaqa qadimdan suv va namgarchilik siymosi tarzida tasavvur etilgan. Ularning haykalchalari ham shunday xususiyatga egaligiga ishonch mavjud bo'lgan va ulardan shu maqsadda foydalanilgan. Baqa shaklli haykalchalar Sopollitepa yodgorligidan topilgan[4, C.14]. Farg'ona vodiysi dehqonlari yaqin-yaqinlargacha baqalarni ekinzorlarning atrofiga yomg'ir chaqirish maqsadida ilib chiqishgan.

Ekin-tikin yoki hosildorlik ramzlari o'zbek xalqi hunarmandchiligida keng aks ettirib kelingan. Xususan, Marg'ilon atlaschiligi na'munalarida shunday ramzlarni uchratish mumkin. "Qo'chqorak" - "qo'chqor shoxi" (mahalliy hunarmadlar shevasida) naqshi asosan ikki xil bo'lib, ular katta va kichik qo'chqor shoxi deb ataladi. Qo'chqor shoxi hosildorlik ramzlaridan biri sifatida hunarmandchilikda qo'llanib kelingan.

Namgarchilik va suv manbasini anglatuvchi yana bir bezak turi mavjud bo'lib, misgar hunarmandlar ushbu bezakdan keng foydalanib keladilar. Bu bezak turi "baliqsirt" deb atalib, oftobalarning tutqichlarini bezashda qo'llaniladi.

Hosildorlik ramzlari sifatida hunarmandchilikda qo'llanib kelingan bezaklar qatorida bodom ham alohida ahamiyatga ega. Bodom mevasi ko'p bo'lganligi uchun hosildorlik ramzi sifatida tasavvur qilingan. Ekin-tikinchilikda hosildorlikni anglatuvchi belgilar orasida eng keng tarqalgan ramz aynan bodom surati hisoblanadi.

Hunarmandchilikda qo'llangan eng qadimgi ramz – hayot daraxti bezagi hisoblanadi. Bu ramzga oid afsonalar Zardushtiylik tasavvurlarida o'z aksini topgan. Unda hayotning yer yuzida paydo bo'lishi talqini mavjud bo'lib, barcha tirik narsalar hayot daraxtidan vujudga kelgan.

Eng qadimgi bezaklardan yana biri “oftob” deb atalib, quyoshni anglatgan va Buxoro hududida kashtachilikda qo'llanilgan.

Ayrim ramzlardan yillar davomida o'zining qadimgi mazmunini turli hayvon qismlari yoki shakllarga o'zgartirgan holda foydalanilgan. Masalan, quyosh ramzi qo'chqorak yoki ot taqasi shaklida ham kashtalarda ifoda etilgan. Aynan bir ramz yuz yilliklar davomida geometrik shakllarga o'zgargan holda bizgacha yetib kelgan. Suv ramzi – to'lqinsimon chiziq, ekin turlari – turli o'simliklar, ilon – geometrik shaklga o'zgarganini ko'ish mumkin.

Zargarlikda qo'llanilgan ayrim bezaklar ham bevosita ekin-tikinchilik bilan bog'liq hisoblanadi. Zargarlik bezaklaridan bargak, kadjak, sepocha, bodom kabi turlari mavjud bo'lgan. Turli o'simlik va daraxtlarning ko'rinishlari qo'llanishida magik xususiyat mavjud bo'lgan. Shu ramzlar orqali insonlarning serfarzand bo'lishi yoki uzoq umr ko'rishiga ishonilgan.



Barcha xalqlarda bo'lgani kabi o'zbeklar ziroatchiligida ham hosildorlik ramzi sifatida avvalo o'simlik va hayvonlar tasavvur qilingan. Ular kichik maysa

yoki yirik uy hayvonidan tortib parrandagacha bo'lishi mumkin bo'lgan. Ayrim hayvonlarni parvarishlash hosilning ko'p bo'lishini ta'minlashga doir ishonch mavjud bo'lgan. O'zbek xalqining an'anaviy dunyoqarashiga ko'ra, qadimdan qoramol, tuya, xo'roz, ot va ilon kabi hayvonlar hosildorlik ramzi sifatida e'zozlab kelingan.

Ayrim hollarda ekin mo'l bo'lishi maqsadida ba'zi chora-tadbirlar qo'llangan. Masalan, ekin maydonlariga urug'lik sepilgach, qo'ylarni haydab o'tish orqali hosildorlik yuqori bo'lishiga ishonch mavjud bo'lgan. Aholining fikricha, qo'ylarning tuyoqlari bo'lingan bo'lgani uchun ular bosgan bir urug'dan ikkita alohida-alohida bosh o'simlik o'sib chiqadi, deb tasavvur qilganlar.

Janubiy Qozog'iston hududida istiqomat qiluvchi o'zbeklar tasavvurlarida bug'doyni qovurib, qoramol oyog'i ostiga tashlash mahsuldorlikni oshirishiga ishonch mavjud bo'lgan. Chorva mollari hosildorlikni oshirishi yoki ularning xususiyati ekinga o'tishi bilan bog'liq turli marosimlar ham qadimdan bajarib kelingan.

Ekinlarni yomon ko'zlardan saqlash va hosil mo'l bo'lishi maqsadida turli tumorlardan foydalanib kelingan. Bunday tumorlar aksariyati qoramol yoki qo'chqor shoxi yoki bosh chanog'i hisoblangan. Ushbu vositalar orqali yovuz ruhlarni quvish mumkin deb hisoblaganlar.

Ming yillar davomida ekin-tikinchiilik bilan bog'liq turli ramz va belgilar shakllangan. Ushbu ramz va belgilar aholining tabiat bilan bog'liq qarashlari, diniy tasavvurlari va marosimy hayoti natijasida vujudga kelgan. Ushbu belgilar hunarmandchilikda ham o'z ifodasini topgan bo'lib, bezaklar hamda har xil shakllar ko'rinishida qo'llanib kelinmoqda. Ayrim ramz va belgilar dastlab ekin-tikinchiilik bilan mashg'ul bo'lgan jamoa orasida shakllangan bo'lsa, keyinchalik ularning ayrimlari davlat ramzlariga aylandi. Muayyan ijtimoiy guruhni anglatgan ushbu belgilar hukmron sulola ramziga o'zgardi.

Ekin-tikinchiilikdagi ramz va belgilar qo'llanish maqsadi hamda vazifalariga ko'ra alohida ahamiyat kasb etib kelgan. Bundan tashqari, ma'lum bir hudud dehqonlarining dunyoqarashidan kelib chiqqan holda o'z hududiga xos ramzlar shakllangan. Shu bilan birgalikda ushbu o'ziga xos ramzlar aholining mashg'ulot bilan bog'liq marosimlariga ko'chdi va asrlar davomida saqlanib keldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- [1] Максудов Ф.А. К интерпретации сюжетов наскальных рисунков Зараутсая. // Мустақиллик йилларида Ўзбекистон археологияси: ютуқлар ва истиқболлар. Ўзбекистон мустақиллигининг 25 йиллигига бағишланган халқаро илмий конференция материаллари. – С.: 2016. – С. 27 – 30. (Maksudov F.A. On the interpretation of the subjects of rock paintings of Zarausay. // Archeology of Uzbekistan in the years of independence: achievements and prospects. Proceedings of the international scientific conference dedicated to the 25th anniversary of Uzbekistan's independence. – S.: 2016. – P. 27 – 30.)

- [2] Помаскина Г.А. Когда боги были на земле... (Наскальная галерея Саймалы-Таша). – Ф.: Кыргызистан, 1975. – 35 с. (Pomaskina G.A. When the gods were on earth... (Saimaly-Tash rock gallery). – F.: Kyrgyzistan, 1975. – 35 p.)
- [3] Исомиддинов М.Х. Сополга битилган тарих. – Тошкент. Фан, 44 бет. (Isomiddinov M.Kh. History written on ceramic. – T.: Science, 44 p.)
- [4] Аскарлов А. Сапаллитепа. – Т.: Фан, 172 с. (Askarov A. Sapallitepa. - T.: Science, 172 p.)
- [5] Авесто: Яшт китоби / М. Исҳоқов таржимаси. – Т.: Шарқ, 2001. – 128-бет. (Avesta: Book of Yasht / M. Ishakov's translation. - T.: Sharq, 2001. – pp. 128.)
- [6] Аширов А.А. Ўзбек маданиятида сув. – Т.: Akademnashr, 2020. – 240-бет. (Ashirov A.A. Water in Uzbek culture. – T.: Akademnashr, 2020. – pp. 240.)
- [7] Сулайманов Р.Х. Нахшаб – унутилган тамаддун сирлари. – Ташкент: Маънавият, 2004. 48-бет. (Sulaymanov R.Kh. Like - the secrets of the forgotten civilization. - Tashkent: Spirituality, 2004. 48 p.)
- [8] Жўраев М., Нарзикулова М. Миф, фольклор ва адабиёт. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2006. – 184-бетлар. (Joraev M., Narzikulova M. Myth, folklore and literature. – T.: Publishing House of the National Library of Uzbekistan named after Alisher Navoi, 2006. - Pages 184.)
- [9] Аванесова Н.А. Археология Средней Азии: энеолит и бронзовый век. – Самарканд. Shabnam omad nur 2020. – 272 с. (Avanesova N.A. Archeology of Central Asia: Chalcolithic and Bronze Age. - Samarkand. Shabnam omad nur 2020. – 272 p.)
- [10] Толстов С.П. Древний Хорезм. – М.: Издание МГУ. – 352 с. (Tolstov S.P. Ancient Khorezm. – M.: Moscow State University Publishing House. – 352 p.)
- [11] Исамиддинов М.Х., Сулейманов Р.Х. Еркурган. – Т.: Фан, 1984. – 162 с. (Isamidinov M.Kh., Suleymanov R.Kh. Yerkurgan. – T.: Fan, 1984. – 162 p.)
- [12] Сулайманов Р.Х. Нахшаб – унутилган тамаддун сирлари. – Т.: Маънавият, 2004. – 48-бет. (Sulaimanov R.Kh. Nakhshab – unutilgan tamaddun sirlari. – T.: Manaviyat, 2004. – 48-bet.)
- [13] Хасанов М. и другие. О работах на городище Афрасиаб в 2013 г.// Археологические исследования в Узбекистане 2013-2014 года. – С.: Выпуск 10. 2016. – С. 310 – 314. (Khasanov M. and others. About the work at the Afrasiab site in 2013 // Archaeological research in Uzbekistan 2013-2014. – S.: Issue 10. 2016. – P. 310 – 314.)
- [14] Шишкина Г.В. Глазурованная керамика Согда (вторая половина VIII – начало XIII в.). – Ташкент, Фан, 1979. (164 с.) 56 с.
- [15] Лунина С.Б. Города Южного Согда в VIII-XII вв. – Т.: Фан, 1984. – 148 с. (Lunina S.B. Cities of Southern Sogd in the VIII-XII centuries. – T.: Fan, 1984. – 148 p.)
- [16] Сандибоев А.Н. Маймурғ илк ўрта асрларда. / Маъсул муҳаррир: Т.Ш. Ширинов. – С.: 2021. – 208-бет. (Sandiboev A.N. Maimurg in the early Middle Ages. / Responsible editor: T.Sh. Shirinov. – S.: 2021. – p. 208.)
- [17] Саипов С.Т. Неполивная керамика Средневекового Хорезма. – Н.: 2015. – 100 с. (Saipov S.T. Non-glazed ceramics of Medieval Khorezm. – N.: 2015. – 100 p.)

TARIX

NAVOIY VA BOBUR. HIROTDAGI SIYOSIY, MADANIY JARAYONLAR

UO‘K 574.30



**Umid
BEKMUHAMMAD,**
Tarix fanlari bo'yicha
falsafa doktori, dotsent

Annotatsiya: Ushbu maqolada Boburning Alisher Navoiy barpo ettirgan Hirot shahridagi uyida yashashi, o'sha davrdagi siyosiy jarayonlar tahlil etiladi. Shuningdek, temuriy shahzodalar bilan uchrashuvi, o'sha davrdagi vaziyat tadqiq qilinadi.

Аннотация: В статье анализируется пребывание Бабур в доме, построенном Алишером Навои в городе Герате, политические процессы того периода, а также его встреча с тимуридскими принцами и обстановка того времени.

Annotation: This article analyzes Babur's stay in the house built by Alisher Navoi in the city of Herat, the political processes of that period. It also examines his meeting with the Timurid princes and the situation at that time.

Kalit so'zlar: Samarqand, Hirot, Navoiy, Bobur, shahzoda, taxt, hokimiyat, siyosat.

Ключевые слова: Самарканд, Герат, Навои, Бабур, князь, трон, власть, политика.

Key words: Samarkand, Herat, Navoi, Babur, prince, throne, power, politics.

Jang-u jadallar ichida yurgan yosh hukmdor Hirotidan kelgan maktubni hayajonlanib, sevinib qo'lga oldi. Chunki, ushbu maktubni Samarqandga Navoiy hazratlari yozib yuborgan, unda Bobur Mirzoga buyuk shoirning istaklari aks etgandi...

Siyosat sahnasiga chiqib, Movarounnahrda kechayotgan kurashlarda Samarqandni qo'lga olgan kunlari, Zahiriddin Bobur dong'i sharqqa tarqalgan o'z davrining fuzalosi Navoiydan noma olgach, sevinchini ichiga sig'dira olmadi. Negaki, u ham endigina she'rlar yoza boshlagan, gohida taxt uchun kurashlar bilan bo'lib, ijoddan chalg'ib qolardi. Ana shunday damlarda Bobur faqat so'zning boqiyiligini his etib, Navoiy davlat amaldorligidan bejiz iste'foga chiqmaganligini anglagandek bo'lardi. Biroq taqdir yozig'i uni Andijondan Samarqand taxtiga boshlab kelgan, bu yo'lda ko'p qurbonliklar berilgandi. Qolaversa, ikkinchi bor Samarqand qo'lga kiritilgan damlar edi.

“Bu ikkinchi navbat Samarqandni olg'onda Alisherbek tirik edi. Bir navbat manga kitobati (maktubi—U.B.) ham kelib edi. Men ham bir kitobat yiborib edim. Orqasida turkiy bayt aytib, bitib yuborib edim”.

Xullas, ular kitobat-maktub orqali diydorlashdilar. Bu paytda Xuroson poytaxti Hirotida turgan Navoiy “Majolis un-nafois” tazkirasiga xurosonlig-u movarounnahrlik shoirlar ijodidan she’rlar to’playotgandi.

Samarqand taxtiga chiqqan yosh podshoh ana shu zayl Navoiy e’tiborini tortgan. Ammo... ammo Hirotidan “javob kelguncha tafrika (g’alayon, parokandalik) va g’avg’o bo’ldi” deya “Boburnoma” da kuyunib yozgandi muallif.

Chunki, Bobur ikkinchi bor Samarqandni Shayboniyxonga topshirishga majbur bo’lgan edi. Bu orada Navoiy hazratlari ham vafot etdi.

Oradan ko’p vaqt o’tmay, Bobur saltanati uchun bo’lgan kurashlarda mag’lublik alamini chekib, Hirotga ketishga majbur bo’ladi. Aynan Boburning Hirotga borishiga sabab, 1506-yilning qishida Murg’ob daryosi yoqasida temuriy sultonlar Shayboniyxonga qarshi birgalashib kurashish maslahatiga yig’ilishmoqchi edi. Shu tariqa o’tadigan mashvaratga Bobur ham taklif etiladi.

Xurosonda o’sha vaqtda tarixda uchramagan holat - Boyqaro o’limidan so’nggi taxt talashish natijasida Xadichabegimning fitnalari bois mamlakatda ikki shahzoda-Badiuzzamon va Muzaffar Mirzolar hukmdorlik qilishayotgan fojiali davr edi.

Dushanba kuni jumodul oxir oyining sakkizinchisida Murg’ob bo’yida Bobur Movarounnahrda, Abulmuhsin mirzo Marvdan, Ibni Husayn Mirzo To’n, Qoyindan, Muzaffar Mirzo, Badiuzzamon mirzolar Hirot shahridan kelib uchrashadilar. “Boburnoma”da muallif Shayboniy xavf solib kelayotgan paytdagi temuriy shahzodalarning takabburligini, bir-birlariga mensimay munosabatda bo’lganliklarini achinib yozadi. Boshqa shahzodalar esa bir-birini tan olmaslik darajada bo’lishib, xavfga qarshi kuchlarni birlashtirmoq yig’iniga kelishmagan edi: “Kepak mirzokim, Mashhadda edi, har necha kishilar yibordilar, noma’qul so’zlar aytib, nomardliq qilib kelmadi. Aning taassubi Muzaffar mirzo bila edi, ya’ni ul podshoh bo’lg’onda men nechuk aning qoshig’a barg’oymen, deb mundoq mahaldakim jami’ og’o-ini bir yerda yig’ilib, ittifoq qilib, Shayboniyxondek g’anim ustiga jazm qilib yuruydurgonda mundog’ bemaza tassub qilib kelmadi. Aning bu kelmamagini holokim taassubqa haml qilur, barcha nomardlikka haml qilg’ularidur.

G’arazkim, bu dunyoda kishidin ushmundog’ nimalar qolur, har kim aqldin bahravar bo’lsa, nega andog’ harakatga iqdom qilg’aykim, andin so’ng yomon degaylar va har kishida hushdin asar bo’lsa, nega andog’ ehtimom qilmag’aykim, qilg’ondin so’ng mustahsan degaylar” deya Bobur temuriy shahzodalarning manmansirashdek illatidan taassublanadi va bir forsiy naqlni keltirib o’tadi: “Zikri nomero, hakimon umri soni guftaand”. Ya’ni, “Shuhrat bilan yodlanishni hakimlar ikkinchi umr demishlar” (1).

Afsuski, Murg’obdagi uchrashuv ham manmansirash ruhida boshlanadi. Dastlab uchrashuv joyiga kelgan Muzaffar mirzo va Ibni Husayn mirzolar yoshi ancha kichik bo’lishiga qaramay, Abulmuhsin mirzoga bepisand qaragandek bo’lishdi, uni peshvoz kutib olishmadi. “Bular Abulmuhsin mirzodin yoshqa kichik edilar, kerakkim burunroq istiqbolg’a kelsalar edi,

g'olibo bu taxir humor jihatidin ekandur, ne takabburdin va bu taqsir aysh va ishrat sababidin ekandur, ne takaddurdin", deya bu voqeaga munosabat bildiradi Bobur. Unung o'zi esa Abulmuhsin mirzo bilan bir-biriga yaqin masofaga kelganlarida otdan tushib, "yurub ko'rushub o'tlanildi".

Afsus, "Muzaffar mirzo mubolag'a qildi", natijada Bobur ham "ot ustida ko'rushtun, ibni Husayn mirzo bila ham ushbu nav' ko'rushuldi. Kelib Badiuzzamon mirzoning eshigiga tushtuk. G'arib izdihom va jamiyat edi. Andog' g'uluv edikim, tiqilishda ba'zining uch-to'rt qadam qo'l-oyog'i yerga tegmas edi, ba'zikim ish-kuch uchun yonmoq xayol qilsa edi, to'rt-besh qadam keyinga boqa beixtiyor olib borurlar edi. Badiuzzamon mirzoning devonxona uyiga yettuk. Muqarrar andoq edikim, men uydin kirkach yukug'aymen. Badiuzzamon mirzo qo'pub araqqa kelgay, dog'i ko'rushulg'ay. Men uydin kirkach, bir yukundum, dog'i bedarang mutavajjih bo'ldum. Badiuzzamon mirzo ohistaroq qo'pub, sustroq yurudi.

Qosimbek chun davlathoh edi va mening nomusim aning nomusi edi, belbog'imdin bir tortti, voqif bo'ldum. Taanni bila yurub, muqarrar bo'lg'on yerda ko'rushuldi, bu ulug' oq uyda to'rt to'shak solib erdilar. Badiuzzamon mirzoning oq uylari albatta yon eshiklik bo'lur edi. Mirzo doim bu eshikning yonida o'lturur edi, bir to'shakni bu eshikning yonida solib erdilar. Badiuzzamon mirzo va Muzaffar mirzo bu to'shakda o'lturdilar, yana bir to'shak solib erdilar. Abulmuhsin mirzo va men bu to'shakda o'lturduk. Badiuzzamon mirzoning to'shakidin quyi chap yonda yana bir to'shak solib edilar. Qosim Sulton o'zbek Shayboniy sultonlaridinkim, mirzoning kuyovi bo'lur edi. Qosim Husayn Sultonning otasi bo'lg'ay, yana ibni Husayn mirzo bu to'shakda o'lturdilar. Manga solg'on to'shakdin quyi o'ng qo'lumda yana bir to'shak solib erdilar. Jahongir mirzo bila Abdurazzoq mirzo ul to'shakda o'turdilar. Muhammad Burunduqbek va Zunnunbek va Qosimbek o'ng yonda Qosim Sulton bila ibni Husayn mirzodin xeyli quyiroq o'turdilar.

Osh tortildi, bovujudkim, suhbat yo'q edi, osh tortaturg'on yerda shira qo'yub oltun va kumush surohilarni shira ustiga terdilar. Burunlar bizning ota-og'a Chingiz to'rasini g'arib rioyat qilurlar edi, majlisda va devonda, to'y va oshda, o'turmoqda va qo'pmoqda xilofi to'ra ish qilmaslar edi. Chingizxonning to'rasi nassi qoti' emasturkim, albatta kishi aning bila amal qilg'ay. Har kimdin yaxshi qoida qolg'on bo'lsa aning bila amal qilmoq kerak, agar ota yamon ish qilg'on bo'lsa, yaxshi ish bila badal qilmoq kerak.

Oshdin so'ng o'tlanib, tushgan yerga keldim. Bizning o'rdu bila mirzolarning o'rdusining orasi bir sha'riy bo'lg'ay edi. Ikkinchi navbat kelganda Badiuzzamon mirzo burung'idek ta'zim qilmadi. Muhammad Burundiqbekka va Zunnunbekka ayturdimkim, agarchi yoshim kichiktur, vale to'rum sulug'dur, ota taxtidakim, Samarqand bo'lg'ay, ikki navbat zarbi rost olib o'lturubdurmen. Bu xonavoda uchun yot-yog'i bilkim muncha jang va jadal qilibturmen, mening ta'zimimda ta'xir bevajhdur. Bu so'z mazkur bo'lg'och, chun ma'qul edi, mu'tarif bo'lub, ta'zimni xotirhoh qildilar", deya yozadi Bobur (2).

Chindan ham temuriy shahzodalar, xususan Husayn Boyqaroning farzandlari ham mamlakat ichidagina bir-biri bilan yovlashib qilich chopishgan, ammo tashqi yov bilan hali jang qilishmagan edilar. Qolaversa, Badiuzzamon, Muzaffar Mirzolar qo'shukmdorlik ila Xurosonga boshchilik qilishga urinishardilar, boshqa shahzodalar esa oddiy bir viloyat hokimi darajasida edilar.

Bulardan farqli o'laroq temuriy hukmdorlar ichida Boburning mavqei katta edi. Chunki u otasi o'rniga Farg'ona hukmdori sifatida taxtga qonuniy o'tirgan. Amir Temur poytaxti bo'lmish Samarqandni ikki bora qo'lida tutib, azim shaharda toj kiyish sharafiga ham muyassar bo'lgan yig'indagi yagona nufuzli temuriyzoda edi.

Shu taxlit sifatlarini anglaganlaridan so'nggina ular, ayniqsa Badiuzzamon Boburga iltifot ko'rsatdi: "Yana bir navbat Badiuzzamon mirzo qoshig'a borg'onda namozi peshindin so'ng chog'ir majlisi bo'ldi, men ul mahallar ichmas erdim, xonlarda har nav' gazaklar yasab edilar: tovuq kabobi va g'oz kabobi va har jins at'imadin torttilar. Badiuzzamon mirzoning majlisini xeyli ta'rif qilurlar edi. Murg'ob yoqasida ekanda ikki-uch qatla mirzoning chog'ir majlisida hozir bo'ldum. Ichmasimni chun bilurlar edi, taklif qilmadilar.

Muzaffar mirzoning majlisida ham bir navbat bordim. Husayn Ali Jaloyir va Mir Badr Muzaffar mirzo qoshida edilar. Ul majlisda bor edilar. Kafiyat bo'lg'onda Mir Badr raqs qildi, xo'b raqs qildi. G'olibo ul nav' raqs Mir Badrning ixtiroidur".

Xullas, Xurosonga Shayboniy xavf solib turgan, har kun, har lahza kengashib, kuchlarni birlashtirish zarurligi muhokama etiladigan paytda shahzodalar o'rtasida manmansirash, chog'ir bazmlari Murg'obda avjiga chiqqandi.

"Mirzolar Hiriyydin chiqib, ittifoq qilib, yig'ilib Murg'obg'a kelguncha uch-to'rt oy bo'ldi". Bu orada Balxni Shayboniy egallaydi. Murg'obga "o'n yig'och yo'l" bo'lgan Chechaktu nohiyasiyam Shayboniy askarlari itoatiga o'tadi. Xavf yaqin qolgandi...

Bobur bundan nomus qilib, shahzodalarga o'ziga ruxsat berishni, Shayboniyga qarshi hujum qilmoqchi ekanligini aytadi: "Murg'ob bila Chechaktuning orasi o'n yig'och yo'ltur, bu ishni men tiladim. Nomus qilib manga ham ruxsat bermadilar". Ammo o'zlari ham kuchni birlashtirib, yovga qarshi o'tlanmoqni kechiktirishadi: "Chun Shayboniyxon yondi, yil ham kech bo'lub edi. Andoq qaror toptikim, bu qish mirzolar har qaysi bir munosib yerda qishlab, erta yoz jam'iyat qilib g'anim daf'ig'a mutavajjih bo'lg'aylar, manga ham Xuroson navohisida qishlamoq taklifi qildilar".

Ha, Shayboniy qish demay Xurosonga qarashli qal'alarni zabt qilayotgan bir paytda, Murg'ob bo'yidagi shahzodalar qishni o'tkazib, yozda birlashib g'animga qarshi kurashga qaror qilishadi.

Bobur o'z yigitlari bilan Qobulga borib, o'zi kuch to'plash fikriga keladi. "Chun Qobul va G'azni (G'azna) purshar va sho'r yerlar edi, turk va mo'g'uldin va aymoq axshomdin va afg'on va hazoradin muhtalif el va ulus anda yig'ilib edilar. Yana Xuroson bila Qobul orasi yovuqroq yo'ldinkim

tog' yo'li bo'lg'ay, agar qor va yax nima mone bo'lmasa, bir oychiliq yo'l edi. Tuz bila qirq-ellik kunlik yo'l edi, viloyat ham hanuz yaxshi ko'ngul bosmaydur edi. Davlathohlardan hech kim bizning anda qishlarimizni saloh ko'rmadilar. Mirzolar g'a uzr aytuk. Qabul qilmadilar. Ko'prak taklif qildilar, har necha uzr deduk, taklifni bajidroq qildilar. Oxir Badiuzzamon mirzo va Abulmuhsin mirzo va Muzaffar mirzo o'tlanib, mening uyumga kelib, qish turmoq taklifini qildilar. Mirzolar yuziga yo'q deyolmaduk, mundaq podshohlar o'zlari kelib, turmoq taklifini qildilar", deya Bobur o'sha damdagi vaziyatni qog'ozga tushiradi.

Ammo Badiuzzamon, Muzaffar va Abulmuhsinning Hirotida qishlash taklifini o'ylab, bunga rozi bo'ladi. Chunki u Alisher Navoiy yashagan, ijod qilgan, Boyqaro davrida taraqqiy qilgan Hirotni ko'rish uning orzusi edi.

"Yana Hiriynikim rub'i maskunda andoq shahr yo'qtur va Sulton Husayn mirzoning zamonida mirzoning tasarrufidin va takallufidin Hiriyning zeb va ziynati birga o'n, balki yigirma taraqqiy qilib edi, ko'rmak orzusi xeyli bor edi. Bu jihatlaridan turmoqni qabul qilduk". Shu taxlit u Badiuzzamon, Muzaffar mirzolar bilan Hirotga, Abulmuhsin Marvga, ibni Husayn Mirzo To'n va Qoyin hududlariga yo'l olishadi.

Bobur kelishi sharafiga Husayn Boyqaroning barpo ettirgan madrasasida yosh temuriy shahzoda sharafiga qabul marosimi uyushtiriladi. Marosimda Xadichabegim, Poyanda Sultonbegi, Ofoqbegim singari malikalar ham ishtirok qilishadi. Bir muddat shu yerda bo'lib, Qur'on tilovat qilishgach, Xadichabegimning uyida mehmon sharafiga osh tortilib ziyofat beriladi.

Shu tarzda Bobur Hirotga kelgan kuni Poyanda Sultonbegim uyida, ikkinchi kun Bog'i Novda, yana bir kun Bog'i Jahonoroda bo'lib, qolgan kunlarini esa Navoiyning "Unsiya" nomli hovlisida o'tkazadi. 1506-1507-yil voqealarini yozar ekan, "Boburnoma" muallifi bu haqda shunday eslaydi: "Avval menga Bog'i Navda yurt tayin qilib edilar. Tonglasi kelib, Bog'i Navda tushtum. Bog'i Navda bir kecha bo'ldum, ani munosib ko'rmay, Alisherbekning uylarini tayin qildilar. Hiriyan chiqquncha Alisherbekning uylarida edim".

"Injil anhorining o'ng tarafidagi Navoiy yashagan hashamatli hovli Boburga Alisherbekning nozik didli me'mor ekanligini anglatardi. Ayniqsa, devor bo'ylab ekilgan Samarqandning oq teraklari Navoiydan maktub olgan 1499-yilni yodga soldi. O'shanda u maktubni hayajonlanib o'qiganini xotirasiga keltirdi.

Alisherbek Samarqandga yo'llagan maktubini ana shu hovlida, qo'sh tabaqali eshikdan kirib boriladigan mehmonxonasidagi kitoblarga to'la nurafshon maskanda bitganini Bobur sezib turardi. Chunki, yetti-sakkiz yildirki, hovli, undagi xonalar Navoiy hayotligidagidek saqlanib kelardi. Bobur Navoiy hovlisida yashab, u ekkan mevali, manzarali daraxtlar oralab yurarkan, Alisherbekning g'azallarini yodiga keltirar, o'zi ham ruboiylar bitardi" (3).

Badiuzzamon uni Bog'i Jahonoroga chorlagach, borib u bilan uchrashib, vaziyat haqida suhbat quradilar. Ertasi kuni bo'lsa Xurosonning

boshqa hukmdori - Muzaffar Mirzo uyiga chorlaydi. “Muzaffar Mirzo Bog‘i Safidda o‘lturur edi. Xadichabegim qoshida osh va taom tortilgandin keyin Muzaffar mirzo bizni Bobur Mirzo (Abulqosim Bobur nazarda tutilayapti-U.B.) solg‘on Tarabxona otliq imoratqa olib bordi. Tarabxonada chog‘ir majlisi bo‘ldi. Bir to‘shakda Muzaffar mirzo va men o‘lturdik, yana bir to‘shakda Sulton Mas‘ud mirzo va Jahongir mirzo o‘lturdilar. Muzaffar mirzoning uyida chun mehmon eduk, meni Muzaffar mirzo o‘zidin yuqori oldi.

Ishrat paymonalari to‘ldurub, soqiylar yurub majlis ahlig‘a tuta kirishtilar. Muravvaq chog‘irlarni majlis ahli ham hayvon suyidek yuta kirishtilar, majlis qiziqti, chog‘irlar boshqa chiqti, bu xayolda edilarkim, manga ichirgaylar, meni ham bu doirag‘a kiyurg‘aylar, men agarchi bu choqqacha nash‘a bo‘lguncha chog‘ir irtikob qilmaydur edim, mastliq va sarxushliq kayfiyati va holatini kam uyqu bilmaydur edim, vale chog‘ir ichmoqqa maylim bor edi va bu vodiyni tay qilmoqqa ko‘nglum tortar edi. Kichiklikta bemayl edim, chog‘irning nash‘a va kayfiyatini bilmas edim. Otam gohida chog‘ir taklifi qilsalar ham uzrlar aytib, irqitob qilmas edim. Otamdin so‘ng Xoja qozining yumni qadamidin zohid va mutaqqi edim. Shubqaliq taomdin ijtinob qilur edim. Ne joy ulkim, chog‘ir irtikob qilg‘ayman. So‘ngralar yigitlik havasidin va nafs taqozisidinkim, chog‘irg‘a mayl paydo bo‘ldi, taklif qilur kishi yo‘q erdi, balki chog‘irg‘a maylimni bilur kishi yo‘q edi. Ko‘nglum agarchi moyil edi, mundoq qilmog‘on amrni o‘zluq bila qilmoq mushkil edi. Xotirg‘a kechtikim, chun muncha taklif qiladurlar, yana Hiriyldek orosta shahrig‘a kelib turbizkim jami’ aysh-ishrat asbob va oloti mukammal va muhayyo va bori takalluf va tana‘um ashyo va adavoti omoda va paydo, holo ichmasam qachon icharmen deb, ichmakka azm qildim va bu vodiyni tay qilmoqni jazm qildim.

Vale xotirg‘a kechtikim, Badiuzzamon mirzo og‘adur, aning iligidin va aning uyida ichmay, inisining iligidin va inisining uyida ichsam, xotirg‘a nima kelgay deb, bu taraddudimni ayttim. Bu uzrumni ma‘qul deb, suhbatta chog‘ir taklifi qilmadilar. Muqarrar andoq bo‘ldikim, Badiuzzamon mirzo bila Muzaffar mirzo bir yerda bo‘lg‘onda ikkala mirzoning taklifi bila ichilgay”.

Shu taxlit Bobur Hirotdalik paytida Muzaffar Mirzo, Badiuzzamon Mirzolar yaratib bergan shart-sharoitlar tufayli azim shaharni ziyorat qildi. “...Bu yigirma kunda mashhur sayrgohlardin bir Sulton Husayn Mirzoning xonaqohidin o‘zga ko‘rulgagan yer qolmadi ekin. Gozurgoh va Alisherbekning bog‘chasi va juvozi qog‘oz va Alisherbekning o‘lturur uylarikim, “Unsiya” derlar, maqbara va masjidi jome‘nikim, “qudsiya” derlar...” deya Bobur Mirzo Hirotda Alisherbek barpo ettirgan maskanlarni bir-bir sanab, ularni ziyorat qilganini aytadi.

Hirotda o‘tkazgan yigirma kunni Bobur shaharning diqqatga sazovor joylarini ko‘zdan kechirish bilan o‘tkazadi. “Chinor bog‘ining etagiga solingan suratxonaning sharqi-janub sari yonida kichikroq oq uy qurilib edi. Gohi unda o‘lturur erdim, anda majlis bo‘ldi, so‘ngra G‘iyos masxara keldi, necha qatla majlisdan qutoiba tariqa buyurildikim, ixroj qildilar. Oxir shaloyi bo‘lib, masxaraliq bila majlisg‘a yo‘l topdi” deya Hirotning mashhur

qiziqchisi - G'iyos masxara ko'rsatgan tomoshalardan hayratlanib qog'ozga tushiradi.



Ayniqsa, Bobur sharafiga atab Muzaffar Mirzo bergan ziyofatdagi musiqa oqshomi ancha paytgacha yosh hukmdorga ta'sir qilib yurdi. O'shanda Shayxiy Noyi degan sozanda, naydagina emas, ud va g'ijjakda ham benazirligini namoyish etadi. Badiuzzamonning musiqali ziyofatida Shayxiy va Qul Muhammad o'rtasida bahs bo'lib o'tadi. Shayxiy nayda bir kuyni chiroyli qilib chalgach, Badiuzzamon Qul Muhammaddan ham shu kuyni g'ijjakda chalishni so'raydi. Qul Muhammad esa g'ijjakda bu kuyni

yaxshi ijro etolmaydi. Ammo buni tan olmay, "g'ijjak noqis soz" deya "ayb"ni musiqa asbobiga yuklamoqchi bo'ladi. Shunda Shayxiy Qul Muhammadning qo'lidagi g'ijjakni olib, o'sha o'zi nayda ijro etgan kuyni "xo'b va pokiza" chalib ziyofat ahlini hayratga soladi.

Hofiz Hojining past ovozda ijro etgan ashulasi, Jaloliddin Mahmudning nay, Shojdi bachaning changda ijro etgan kuylari, Mirjon Samarqandiyning esa "baland va durusht va bemaza" aytgan xonishlarini eshitib, Bobur mehmon sifatida har bir tunni zavqli o'tkazadi. Muzaffar Mirzoning "qishloqi uyi"dagi o'sha ziyofatda Yusuf Ali Ko'kaltoshning raqslarini, katta va kichik Moh degan qullarning masxarabozliklarini, Jonak xonandaning ularga mos qo'shiqlarini eshitib davra fayzli bo'lganini eslaydi Bobur.

Ushbu ziyofat ta'rifi Badiuzzamonga ham yetib boradi. "Badiuzzamon mirzo Muzaffar mirzoning mehmondorlig'ini eshitib, Bog'i Jahonorda Muqavviyxonada majlis tartib qilib, meni tiladi. Bizning ba'zi ichkilarni va yigitlarni ham tiladilar, mening yovuqtag'ilarim mening jihatimdin icha olmaslar edi. Agar icharlari ham bo'lsa bir oy-qirq kunda eshik-elini bog'lab yuz dag'dag'a bila icharlar edi. Andoq kishilarni charladilar. Munda hamki keldilar, gohi meni g'ofil qilib, gohi iliklarini panoh qilib, yuz tashvishlar bila icharlar edilar. Agarchi mendin suhbat tag'i kishiga ruxsati om bo'lg'on yo'sunluq bo'lub edi, ne jihatinkim, bu suhbat ota-og'amizdek kishining suhbatlari edi, muallihlarni kelturdilar, bilmon sochlarining yo amaliy sochlarining oralarig'a kimsonni sochning uzunlig'i bila inichka-inichka kesib qo'yubturlar, tavre ko'runadur. Bu suhbatta mening olimg'a qoz kabobi qo'yidilar, chun qush buzmog'ini va to'rg'amog'ini qilg'on emas erdim, ilik eltmadim.

Badiuzzamon mirzo dedikim, nega mayl qilmassiz. Men dedim, to'rg'amoqtin ojizdurmen. Filhol Badiuzzamon mirzo mening olimdag'i qozni

buzub, to'rg'ab olimda qo'yur. Mundoq ishlarda Badiuzzamon mirzo benazir kishi edi. Oxir muhbatta bir murassa' kamar, xanjar bir chorqab, bir tupchoq manga berdi".

Ya'ni, Bobur va uning yaqinlari sharafiga berilgan ziyofatda Badiuzzamon mavqei, yoshi katta bo'lsa-da, mezbonlik iltifotini ko'rsatib, 23 yoshli Boburni g'oyatda e'zozladi.

"Oqshomlarni shunday bazmlarda o'tkazgan Bobur, kunduzi Yusuf Ali ko'kaltoshning hamrohligida otda shahardagi jamiki xiyobon, maqbara, masjid, madrasa, bozorlarda sayr qiladi. Muqavviyxonadek polvonlar kurash tushadigan usti yopiq maydon, sozanda va xonandalarga mo'ljallangan Bog'i Jahonorodagi Savsanixon, Pahlavon Muhammad uchun Boyqaro qurdirgan Ne'matobod Hirotida Bobur qadami tekkan maskanlar edi o'shanda" (4).

Shu bilan birga Bobur Navoiy hazratlari haqida shunday bitik ham yozgan: "Alisherbek naziri yo'q kishi edi. Turkiy til bila to she'r aytubturlar, hech kim oncha ko'b va xo'b aytqon emas. Alisherbekning mizoji nozuk bila mashhurdir. El nazokatini davlatning g'ururidan tasavvur qilur erdilar. Andoq emas ekandur, bu sifat anga jibilliy ekandur. Samarqandda ekanda ham ushmundoq nozuk mizoj ekandur"...

Bu paytga kelib, Movarounnahrni zabt etgan, Samarqand taxtini Bobur qo'lidan tortib olgan Shayboniixon Xurosonga ham zarba hozirlayotgandi. Shunday damda raqibiga qarshi kuch to'plash niyatidagi Bobur Hirotida ortiq qololmasdi. "Yana Hiriynikim rub' maskunda andoq shahar yo'qtur va Sulton Husayn Mirzoning zamonida mirzoning tasarrufidin va takallufidin Hiriyning zeb va ziynati birga o'n, balki yigirma taraqqiy qilib edi...". Bobur ana shu taraqqiy etgan shaharda atigi yigirma kun bo'lganidan, shahzodalar o'rtasida manmansirash, ixtilof borligidan afsuslansa-da, Navoiy hovlisida yashaganidan qalbi g'ururga to'lgan, ruhi poki madadkor bo'lishidan umidvor edi.

Xullas, Bobur Navoiy vafotidan so'ng Hirotga kelgan bo'lsa-da, Alisherbekni ko'rgan, u bilan suhbatdosh bo'lgan kishilar davrasida bo'ldi, ular bilan diydorlashdi. Biroq bu diydorlashuvlar ko'pga bormay, u go'zal Hirotni tark etishga, Qobulga ketishga majbur bo'ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Zahiriddin Muhammad Bobur. "Boburnoma", "Yulduzcha" nashriyoti, Toshkent, 1989-yil, 23-bet.

2. Zahiriddin Muhammad Bobur. "Boburnoma", "Yulduzcha" nashriyoti, Toshkent, 1989-yil, 36-bet.

3. U.Bekmuhammad. "Navoiyning armonlari", "Yangi asr avlodi" nashriyoti, Toshkent, 2011-yil, 63-bet.

4. U.Bekmuhammad. "Navoiyning armonlari", "Yangi asr avlodi" nashriyoti, Toshkent, 2011-yil, 65-bet.

TARIX

BOBUR SIYMOSI SHARQ MINIATYURALARIDA

UO‘K 95.15



**Firdavs
ABDUXOLIQOV,**

**O‘zbekiston madaniy
merosni saqlash,
o‘rganish va
ommalashtirish
bo‘yicha Butunjahon
jamiyati boshqaruvi
raisi, san’atshunoslik
bo‘yicha falsafa
doktori.**

Annotatsiya: Mazkur maqolada buyuk shoir va sarkarda Zahiriddin Muhammad Boburning o‘rta asr miniatyuralaridagi tasviri, shuningdek miniatyura san’atining rivoji, uning o‘ziga xos xususiyatlari bayon qilinadi.

Аннотация: В данной статье рассматривается образ великого поэта и полководца Захириддина Мухаммада Бабура в средневековой миниатюре, развитие искусства миниатюры, его особенности.

Annotation: This article describes the image of the great poet and warlord Zahir ed-Din Muhammad Babur in medieval miniatures, the development of miniature art, and its specific features.

Kalit so‘zlar: Bobur, miniatyura, boburiylar, Hindiston, tasviriy san’at, muzey, musavvir.

Ключевые слова: Бабур, миниатюра, бабуриды, Индия, изобразительное искусство, музей, художник.

Key words: Babur, miniatures. baburids, art, India, museum, artist

Zahiriddin Muhammad Bobur o‘zbek davlatchiligi va mumtoz adabiyoti tarixidagi buyuk siymolardan biridir. Ayni paytga qadar o‘tmishda va bugungi kunda ko‘plab mualliflar Boburning shaxsi, hayot yo‘li, ijodi haqida qimmatli ma’lumotlar qoldirganlar [Axmedov, 1985; 38].

Barcha temuriylar singari Bobur o‘ta ma’rifatli, bilimli, keng dunyoqarashga ega inson bo‘lgan. Bobur Mirzo shoir, adib, she’rshunos-adabiyotshunos, donishmand faqih, tilshunos, turli diniy va dunyoviy ilmlardan puxta xabardor jamoat arbobi sifatida o‘zidan bebaho ma’naviy meros qoldirdi. [Vohidov, 2000; 4].

U XV asrning oxiri-XVI asrning birinchi yarmidagi Movarounnahr, Xuroson va Hindistonning siyosiy va madaniy hayotiga oid muhim tarixiy manba sanalgan “Boburnoma” nomli mashhur asarini yozgan. Asar juda katta tarixiy va adabiy ahamiyatga ega bo‘lib, asarda u borgan mamlakatlarning tarixi, turmush tarzi, o‘simliklar va hayvonot dunyosi haqida ham muhim ma’lumotlar berilgan va bu o‘z o‘rnida uning qiziqishlar doirasining kengligini aks ettiradi. “Boburnoma” Boburiylar davridayoq fors tiliga tarjima qilingan va hind miniatyurasining eng yaxshi ustalari tomonidan rasmlar bilan bezatilgan. [Reeve, 2013; 37].

Boburiylarning miniatyura san’atida uning ko‘plab portretlari saqlanib qolgan. Ular muraqqa’ albomlariga yopishtirish uchun mo‘ljallanib, alohida sahifalarga chizilgan va shuningdek XVI asrda uning avlodlari hukmronligi

davrida yaratilgan mashhur “Boburnoma”ga ishlangan illustratsiyalarda ham uning obrazi aks ettirilgan. [Abduxoliqov, 2021; 334].

Hozirgacha Boburning hayotlik davrida ishlangan portret suratlari bor-yo‘qligi noma’lum. Boburning hammamizga ma’lum bo‘lgan qizil sallada, bog‘da mutolaa bilan mashg‘ul holati aks etgan miniatyura keyingi davrlarda ko‘pgina tasviriy san’at asarlari uchun asos bo‘lib kelgan. Ushbu miniatyura ayni paytda London kutubxonasida saqlanadi.

Hamid Sulaymon Britaniyadagi “Boburnoma” qo‘lyozmasining miniatyuralarini nashr ettirar ekan, mazkur surat uni Britaniya muzeyi qo‘lyozmasining miniatyuralaridagi boshqa tasvirlar bilan solishtirish uchun asos bo‘lishi mumkinligini aytib o‘tgan. [Suleyman, 1985; 27].

Ushbu portret XVII asrning boshlarida, aniqrog‘i birinchi choragida, Boburning nevarasi Jahongir davrida yaratilgan. Bobur bog‘da ariq bo‘yida o‘tirgan holatda tasvirlangan. U mutolaaga berilgan, bir oyog‘ining poyabzali yechilib, ikkinchi oyog‘ining ustiga qo‘yilgan holati tasvirga hayotiy samimiylik baxsh etadi va rassomning safaviylar portret san’ati namunalarini yaxshi o‘zlashtirganidan dalolat beradi.

Bobur XVII asrdagi Markaziy Osiyo-Hindiston an‘analariga mos dabdabali liboslarda tasvirlangan. Shoh egnidagi qizil yaktak ustidan sarg‘ish tusli kamzul kiygan. Kamzulda bir qancha ohular tasviri aks etgan. Boshiga sariq tusli yo‘l-yo‘l salla o‘ragan, sallaning tepa qismiga hukmronlik va zodagonlik ramzi bo‘lgan ukpar (qarqara pati bo‘lishi mumkin) qadalgan. [Polyakova, 1987; 67].

Suratda hukmdorning qulog‘idagi sirg‘a kishining e’tiborini tortadi. Chunki, o‘rta asrlarda, Movarounnahr va Xurosonda turkiy hukmdorlar sirg‘a taqishgani haqida ma’lumotlar uchramaydi. Bu surat Bobur vafotidan taxminan bir asr keyin chizilganini hisobga olsak, bu davrda hind miniatyuralarida sirg‘a taqqan hukmdorlar tavsiri keng tarqalgan. Boburning keyingi avlodlari miniatyuralarida ham ular qulog‘ida sirg‘a bilan tasvirlanadi. Noma’lum rassom ham ushbu an‘anaga xos ravishda Boburni ham shu ko‘rinishda tasviralagan bo‘lishi mumkin. [Abduxoliqov, 2021; 229].

Miniatyurada Bobur yuz tuzilishida barcha temuriylarga xos sinchkov, xiyol qisq ko‘zlar, siyrak soqol, dumaloq, oq-sariqdan kelgan yuz, ingichka qoshlar ko‘zga tashlanadi. Bu ko‘rinish Bobur haqidagi zamondoshlarining ta’riflariga mos keladi. Darhaqiqat, Boburning xuddi shunday qiyofasi Britaniya muzeyida saqlanayotgan, «Boburnoma» qo‘lyozmalarini bezab turgan boshqa ko‘plab miniatyuralarda ham uchraydi. [Azimjonova, 1995; 83].

XVI–XIX asrlardagi Hindistonning mo‘g‘ullar miniatyurasida Amir Temurning guruh portretlari juda mashhur bo‘lib, ularda Bobur o‘z avlodlari bilan birga tasvirlangan. Bunday majoziy san’at asarlari albatta Boburiylar tomonidan o‘zlarining buyuk foh sulolasiga mansubligini ta’kidlash maqsadida yaratilgan. Qolaversa, Sohobqiron portretlarining aksariyati Hindistonda, XVI—XVIII asrlardagi Boburiylar miniatyura maktabida yaratilgan. [Thomas, 1986; 396].

Ana shunday miniatyuralardan birida Amir Temur kompozitsiyaning markazida o‘tiribdi. U imperatorlik tojini uning o‘ng tomonida o‘tirgan Boburga

topshirmoqda. Hokimiyat timsollaridan biri hisoblangan tojning topshirilishi ayni damda hukmron sulolaning qonuniyligini tasdiqlaydi. Sohibqiron temuriylar davri uslubida kiyingan, boshiga salla o‘ragan yetuk inson sifatida tasvirlangan va uning umumiy ko‘rinishiga ham Boburiylarga o‘xshash xususiyatlar aks etgan. Chap tomonda Boburning o‘g‘li Humoyun (1530–1545) tasvirlangan. [Abduxoliqov, 2021; 124].



Bobur barcha portretlarda, xuddi ayni holatdagi kabi, O‘rta Osiyoga xos yashil sallada tasvirlangan, Humoyun esa salla va ukpar yoki qadama bezak (egret) bilan bezatilgan kigiz qalpoq – toji izzat kiygan. Tadqiqotchilarning fikricha, Humoyun shia mazhabidagi safaviylarning maxsus bosh kiyimi - toji haydariydan farq qilishi uchun bu bosh kiyimni o‘zi joriy qilgan. Toji izzat imperator Akbar tomonidan bekor qilingan va undan keyingi davr miniatyuralarida uchramaydi.

Bunday suratlardan yana biri hindistonlik musavvir Muhammad Afzal Abu Faqir Allaxon ijodiga mansub bo‘lib, u ayni damda Rampur Raza kutubxonasida saqlanadi. Ushbu sulolaviy guruh portretidagi ayvonning markazida sulolaning asoschisi Amir Temur (1370–1405) o‘zining 12 nafar avlodi qurshovida tasvirlangan. Amir Temur siymosi mazkur portretda boburiylarning estetik qarashlari doirasida tasvirlangan bo‘lib, uning ikonografiyasidan mutlaqo foydalanilmagan. Buyurtmachi va uning talab va istaklarini bajargan rassom uchun asosiy maqsad sulolaning shajarasini ko‘rsatib berish bo‘lgan. Chap tomonda Mironshoh ibni Amir Temur (1366–1408), Abu Said ibni Sulton Muhammad (1451–1469), Bobur (1526–1530), Akbar (1556–1605), Shohjahon (1628–1658), Bahodirshoh (1707–1712), o‘ng tomonda Sulton Muhammad (vafoti 1451-yil), Umarshayx (1469-1494), Humoyun (1530–1540 va 1556 -yy),

Jahongir (1605–1627), Olamgir (1658–1707), Jahondarshoh (1712-1713) tasvirlangan. [Abdullaev, 2007; 3].

Boburning Humoyun hukmronligi davrida ishlangan yana bir reprezentativ portreti ham ushbu kutubxonada saqlanadi. Texnik jihatdan yuqori sifatli tasvir, nozik ranglar gammasi, detallarga va tasvirlanayotgan shaxsning psixologik holatiga urg‘u berilishi Jahongir hukmronlik qilgan davr portretlariga xos bo‘lgan yuksak realizm uslubini o‘zida aks ettiradi.

Boburning yana bir portreti, ehtimol, uning nevarasi Shohjahon davrida, taxminan, 1630-yillarda chizilgan bo‘lishi mumkin. Ushbu portret Londondagi Viktoriya va Albert muzeyida, ISW37-1972 raqami ostida saqlanmoqda. Miniaturada albom sahifasiga joylashtirilgan, sahifaning hoshiyasidagi yozuvda tasvirdagi shaxsning “Shoh Bobur” ekanligi ko‘rsatilgan, teskari tomonida esa Shoh Jahonning o‘g‘li Doroshukuhning xattotlik uslubidagi imzosi tasvirlangan.

Ushbu portret ham biz Boburiylar Hindistonining birinchi hukmdori obrazining ma‘lum bir ikonografik tipi mavjudligini tasdiqlaydigan boshqa suratlardagi kabi umumiy xususiyatlarni ko‘ramiz.

Turli davrlarda yaratilgan “Boburnoma” qo‘lyozmalarida Boburning har xil holatdagi tasvirlari ko‘plab uchraydi. Maishiy holatlar, saroy ziyofatlari, ov manzaralari, harbiy harakatlar, Hindistonning o‘simliklar va hayvonot dunyosini aks ettiruvchi miniatyuralarda Boburning buyuk sarkarda, hayotning oddiy quvonchlaridan bebahra bo‘lmagan hukmdor sifatidagi obrazi taqdim etilgan [Abduxoliqov, 2021; 287].

Suratlarda Bobur siymosi “Zafarnoma”da tasvirlangan Amir Temur singari oliy hukmdor ideal tipiga oid, lekin o‘sha davr Hindiston tasviriy san‘atiga xos bo‘lgan realizmning ta‘siri ostidagi barcha jihatlari bilan taqdim etilgan. Miniaturalar Akbar davridagi boburiylar uslubida ishlangan. O‘sha davrga xos bo‘lgan mayda, yapasqi ko‘rinishdagi salla va surat uslubi shundan dalolat beradi. Rassomlar matnga e‘tibor qaratgan holda, “Boburnoma”da keltirgan voqealarni, ularning tafsilotlari va detallaridan kelib chiqib tasvirlaydilar. [Pugachenkova, 1979; 261].

“Boburnoma” miniatyuralarini mavzular majmuiga ko‘ra tarixiy, maishiy, harbiy epizodlar, ov va ziyofat sahnalariga ajratish mumkin. Ular yana hayvonlar, qushlar, dengiz mahluqlari va flora bilan boyitilgan.

“Boburnoma”ning XVII asr boshlarida ko‘chirilgan yana bir nusxasi ayni paytda Londondagi Britaniya muzeyida saqlanadi. Suratda Boburning Kobul atrofidagi Xoja Seyoron bulog‘i oldida tabiat manzaralarini kuzatayotgani tasvirlanadi. Surat qo‘lyozmaning 181,b sahifasidan o‘rin olgan.

Boburiylar miniatyuralarida voqelikning tipik belgilarda haqqoniy tasvirlanishi ma‘lum darajada Eron va Markaziy Osiyo tasviriy san‘ati an‘analarining uyg‘unlashuvi hamda mahalliy va Yevropa san‘atining ta‘siri natijasida yuzaga kelgan. Boburiylar miniatyurasi tarixiy, geografik va etnografik omillarni to‘liq hisobga olganda, kitob illustratsiyasi sifatida xizmat qilgan u yoki bu epizodlarni batafsil, to‘g‘ri va haqqoniy tarzda aks ettiradi [Thomas, 1989; 398].

Britaniya muzeyida saqlanayotgan ushbu miniatyurada Boburning bunyodkorlik faoliyati aks ettirilgan. Suratda tasvirlanishicha, Bobur Kobul yaqinidagi tog‘lar bag‘ridan oqib tushayotgan muqaddas Xoja Seyoron bulog‘ini ziyorat qilmoqda. Boburning yozishicha, u buloq atrofiga tosh yotqizib chiqishni buyuradi. “Chorshanba kuni Xoja Seyorong‘a borildi. Panjshanba kuni oyning yigirma birida bog‘ solgon tog‘ning tumshug‘ida ulug gird sufa soldurduk” deyiladi “Boburnoma”da [Bobur, 1989; 221].

Rassom Mahish tomonidan chizilgan miniatyurada tavsifga amal qilgan holda, go‘zal hudud va hind kiyimini kiygan hukmdorning siymosi juda aniq tasvirlab berilgan. Faqat uning sallasigina hukmdorning movarounnahrlik ekanini ko‘rsatadi.

Turli musavvirlar tomonidan yaratilgan deyarli barcha miniatyuralarda Bobur Temuriylarga xos kaltaroq, tartibli cho‘qqi soqolli, xiyol cho‘ziq yuzli, chiroyli ko‘rinishda tasvirlangan. Boburning surati boburiylar rassomchiligi an‘analariga xos tarzda yorqin bo‘yoqlar yordamida, uning haqiqiy tashqi ko‘rinishiga uyg‘un holda chizilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Абдуллаев Н. Бобурнинг насл-насаби // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. 2007 йил, 16- февраль, №7.
2. Абдухолиқов Ф, Ртвеладзе Э, Раҳимова З. Шарқ миниатюраси: Тарихий шахслар. – Тошкент. Silk Road Media, 2021 йил, 336-б.
3. Азимжонов С. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Мақолалар тўплами. - Тошкент, 1995 йил, 83-б.
4. Ахмедов Б, Историко-географическая литература Средней Азии XVI—XVIII вв. (Письменные памятники). - Ташкент, “Фан”. 1985 г.
5. Воҳидов Р. Биз билган ва билмаган Бобур.- Тошкент, 2000 йил.
6. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома, Тошкент, “Юлдузча”, 1989 йил, 221-б.
7. Пугаченкова Г.А, Галеркина О.И. «Миниатюры Средней Азии в избранных образцах (из советских и зарубежных собраний)». Москва, Наука. 1979 г. – стр.261.
8. Полякова Е.А., Рахимова З.И. «Миниатюра и литература Востока». Ташкент, “Фан”. 1987 г. – стр. 67.
9. Сулейман Х. Миниатюры к “Бабур-наме”. Ташкент. “Фан”, 1970 г. – стр. 27.
10. Reeve J. “The lives of the Mughal Emperors”, , British Library, 2013. – 37 p.
11. Thomas W. Lentz, Glenn D. Lowry “Timur and the Princely Vision”, Los Angeles County Museum of Art/Arthur M. Sackler Gallery/Smithsonian Institution Press, 1989. — 396 p.

TARIX**TURKISTON O'LKASIDA AN'ANAVIY
SOG'LIQNI SAQLASH MUASSASALARI****UO'K 230.25****Xurshid
JUMANAZAROV,****Tarix fanlari
doktori.**

Annotatsiya: Ushbu maqolada Turkiston o'lkasida milliy tib tizimining holati va an'anaviy davolash muassasalari tarixi yoritilgan. Shifoxonalar, tabiblarni bemor qabul qiladigan nuqtalaridan tashqari, hammomlar, bozorlardagi davolash joylari haqida ma'lumotlar berilgan.

Аннотация: В данной статье исследуется историческая эволюция национальной системы здравоохранения и учреждений традиционного врачевания в Туркестанском крае. Помимо больниц и клиник, где хакимы обслуживают пациентов, предоставляется информация о банях, рынках, служащих медицинскими центрами, и других нетрадиционных местах лечения.

Annotation: This article explores the historical evolution of the national healthcare system and traditional healing institutions in the Turkestan region. Beyond the focal points of hospitals and clinics where hakims attend to patients, insights are provided into bathhouses, markets serving as medicinal hubs, and other unconventional sites of healing.

Kalit so'zlar: milliy tib tizimi, shifoxona, hammom, tabib, bibixalfa, rishta, vaqf, karvonsaroy.

Ключевые слова: национальная медицинская система, больница, баня, таиб, бибхалфа, ришта, вакф, караван-сарай.

Key words: national medical system, hospital, bathhouse, hakims, bibikhalfa, rishta, wakf, caravansarai.

Turkistonni Rossiya imperiyasi zabt etguniga qadar xalqning salomatligi va davolanishi bevosita hokimiyat va davlat rahbari zimmasida edi. So'nggi o'rta asrlarga kelganda Turkistonda davolash muassasalarini shartli ravishda uch guruhga ajratish mumkin: shifoxonalar, davolash muolajalari olib boriladigan hammomlar va istisno tariqasida tabiblarning uylari.

Shifoxonalar. Turkistonda kasalxonalar qadim davrlardan mavjud edi, jumladan "Avesto"da tilga olingan otashkadalar huzurida bemorlar davolanadigan markazlar bo'lgani ma'lum[4]. XIX asrda aksariyat kasalxonalar madrasalar qoshida bo'lib, madrasaning mudarrisarlari talabalarni ham nazariy o'qitish va kasalxonadagi bemorlarni davolash bilan amaliy mashg'ulotlarni ham tashkil qilgan. Ya'ni, nazariy bilimlar bilan amaliy mashg'ulotlar yonma-yon davom ettirilgan. Aytish joizki, so'nggi xonliklar davrida moliyaviy masalalarda vaqf mulklari katta ahamiyat kasb etgan. Ijtimoiy ob'ektlarning aksariyati vaqf

davromadlari hisobidan kun ko'rgan va davromadning taqsimoti ham ma'lum qoidalar asosida taqsimlangan. Shifoxonada vaqf daromadi hisobidan talabalarni taom bilan ta'minlash belgilangan va eng muhimi bemorlarga ham shu taomdan alohida ajratilgan[2:108,243]. Shifoxonalarning xarajatlarini taqsimlovchi vaqf hujjatlarida o'tin tayyorlovchi yoki muassasani isituvchi kabi lavozim egalari ham qayd etilgan va ularga alohida mablag' ajratilganini hisobga olsak, ushbu muassasalar yilning to'rt faslida hamda mudarrislar, bo'lajak tabiblarning o'sha yerda istiqomat qilishidan kelib chiqib tunu-kun faoliyat yuritganini aytish joiz. Bu shifxona XX asrga qadar amalda bo'lgan. Keyinchalik hukumatning milliy tib tizimi va ta'limga bo'lgan munosabati tufayli faoliyatini to'xtatgan. Yotib davolanayotgan bemorlar yoki shifoxonada faoliyat yuritayotgan xodimlarga tekin taom berish va boshqa ijtimoiy qo'llab-quvvatlash shuni ko'rsatadiki, milliy tib tizimida aynan tibbiy muassasalarda imtiyoz berish va xodimlarning ehtiyojlarini qondirish kabi ishlar amalda qo'llangan.

Xiva xonligida ko'hna Ark majmuasi ham shunday shifoxona vazifasini o'taydigan markaz edi. Farqli tomoni, ko'hna Ark xon oilasi va ayollari uchun tug'ruqxona hamda oliy martabali kishilar uchun shifoxona vazifasini bajargan. Xonlikdagi tartibga ko'ra xon yoki xonzodaning ayoli albatta Ko'hna Arkka kelib tug'ishi shart bo'lgan[6:10]. Bu yerda davolanadigan oliy martabali bemorlar uchun parhez ovqatlar va alohida xonalarda barcha sharoitlar yaratilgan. Xivada oliy nasab oilalar uchun alohida shifoxonaning faoliyat yuritishi birinchidan, xon oilasi va yuqori martabali kishilarning birorta kasallikka chalingani borasidagi ortiqcha gaplardan saqlagan bo'lsa, ikkinchidan, o'zlari uchun zarur sharoitni yaratish imkonini berardi.

Qo'qon, Toshkent va boshqa hududlarda ham davlat amaldorlari hamda aholi foydalanadigan shifoxonalar ochilgan va faoliyat yuritgan. Jumladan, Toshkent bekligi¹ Qo'qon xonligidan ajralib chiqqan paytda Kaykovus sohilida shifoxona faoliyati yo'lga qo'yilgan. Beklik mustaqil siyosat yuritishni boshlagach bu shifoxona asosan sarkardalarni davolashga yo'naltirilgan[1:35]. Beklik yana qayta Qo'qon xonligi tarkibiga qo'shib olingunga qadar shifoxona shu tartibda ishlagan.

Tartibga ko'ra kasalxonalarining aksariyatida zamonasining ko'zga ko'ringan tabiblari faoliyat yuritgan va bir vaqtning o'zida talabalarga tib sirlarini o'rgatgan. Masalan, yuqorida tilga olingan Dorush-shifoda vaqf shartiga ko'ra amirlikning eng kuchli tabibi mudarris bo'lishi kerak edi[2:247]. Odatda bu shifoxonalarda bemorlar uchun yotib va qatnab davolanadigan maxsus xonalar, dorixonalar, hammomlar, oshxona va boshqalar bo'lgan[19:18]. Bundan ko'rinadiki, katta daromadga ega yoki davlat ahamiyatiga molik shifoxonalarda davolash bilan bog'liq qariyb barcha narsalar mujassamlashgan. Bu ma'lum xarajatlarni talab qilgani uchun kichik shifoxona yoki tabiblarning uylarida tashkil qilingan xususiy muassasalarda to'liq shaklda uchramagan.

¹ Toshkent bekligi 1784 -1807 yillarda hozirgi Toshkent va Turkiston o'lkalari hududida mavjud bo'lgan mustaqil davlat tuzilmasi. U 1808 yilda Qo'qon xonligi tomonidan bosib olindi.

XIX asrga kelganda Turkistonda boshqa ijtimoiy sohalarida bo'lgani kabi tibbiy sohada turg'unlik kuzatildi. Xususan, tibbiy muassasalarning soni ham aholi soniga nisbatan nomutanosib bo'lib, ularni moliyalashtirish masalalari ham oldingidek bo'lmaganligi natijasida aholi davolanish maqsadida davlat tomonidan qurilgan shifoxonalarga emas, ko'proq tabiblarga murojaat qilishi kuchaydi.

Hammomlar. Sharq mamlakatlari, jumladan Turkiston o'lkasida ham hammomlar qadimdan bemorlarni davolash maskanlari sifatida tanilgan. Ulug' hakim Ibn Sino "Tib qonunlari" asarida hammomning fazilatlari xususida to'xtalib, uning manfaatlari uyquni yaxshilashi, tanani toza qilishi, charchoqni oldini olishidadir[3:53-55], – deb yozgan va aksariyat xastaliklarni davolashda hammomdan foydalanishni tavsiya qilgan. Chunki, sog'liqni saqlash amali shaxsiy tozalikka asoslangan bo'lsa, boshqa tomondan aholi hammomlarni ham shifo maskani sifatida qabul qilgan. Jamiyatning hammomga bo'lgan munosabati esa Herman Vamberining quyidagi gapida yaqqol namoyon bo'ladi: "Sharqda biror shaharni afzalligini ko'rsatmoqchi bo'lishsa, ishni avval uning hammomlari haqida yozishdan boshlaydilar. Aksincha, shaharni yomon otlq qilishmoqchi bo'lsalar, uning kir-chiri haqida gap tarqatadilar"[7:98-104]. Bundan ko'rinadiki, hududning sanitariya holati, aholining tozaligi va ayrim kasalliklarni davolash maskani sifatida qaralgan hammomlarning faoliyati shaharning bugungi til bilan aytganda reytingini belgilab bergan.

Turkistonda hammomlarning tarixiga nazar solsak, ularni tashkil qilish va ishlashi ham xuddi kasalxonalar faoliyatiga o'xshab ketadi. Aksariyat shaharlarda tashkil qilingan hammomlar shifoxonalarga yaqin yoki uning yonida qurilgan. Odatda hammomlar faoliyatini ta'minlash va muntazam ozodaligini saqlash, isitish kabi amallar katta xarajat talab qilgani sababli bu mablag' davlat tomonidan qoplangan. Hammomlarni qurish ham odatda davlat rahbalarining tashabbusi bilan amalga oshirilgan. Ana shunday hammomlardan biri hisoblangan Anushaxon hammomi Xivaning mashhur joylaridan biri bo'lib, Abulg'oz Bahodirxon davrida, ya'ni 1657-yilda bunyod etilgan[9:21].

XVIII–XIX asrlarda hammomlar faoliyatida ham o'zgarishlar yuz berdi. Ular ham ma'lum shaxslar qo'liga o'tdi va daromad manbaiga aylanib bordi. Jumladan, "Tarixi jadidayi Toshkand" asarida Toshkentda hammomlar xususiy bo'lgani va mulkdor nomi bilan atalgani qayd etilgan va muallif ana shunday xususiy 5 ta hammom nomini tilga olgan[18:38] bo'lsa, 1884-yilda 11 ta hammom faoliyat yuritgan. Marg'ilonda ham hammomlar alohida shaxslar tomonidan qurilgan madrasalarga vaqf qilingan. Jumladan, Katta bozordagi Xishtin madrasasi yonida hammom barpo etilib, o'sha madrasani o'ziga vaqf qilib berilganligini [13:88] manbalarda ko'rish mumkin. Samarqand shahri ijtimoiy hayotida ham hammomlar muhim o'rin egallagan. "Eski shahar"da hammomlarning umumiy soni 7 tani, yangi shaharda esa 4 tani tashkil qilgan[16:18]. Bu kabi o'zgarishlarning sababi aholining ehtiyoji va u yerdagi xizmat turlariga bo'lgan ishonch edi. Demak, Turkistonda uzoq davr mobaynida hammomlar aholi salomatligini saqlovchi "tibbiy muassasalar" vazifasini ham bajargan.

Turkistondagi hammomlarning qurilishi va xonalarning joylashuviga e'tibor qaratilsa, bu borada ham muolajaga mo'ljallangan va ixtisoslashgan qurilishni ko'rish mumkin. Hammomlarda keng supalik oldi ochiq xonalar bo'lib u yerda uqalash va davolash tadbirlari o'tkazilgan. Ushbu davo tadbirlarini qabul qilishning ham o'ziga xos tartibi bo'lgan. Mijozlar o'z hohishidan va muolajalarni ularning tanasiga to'g'ri kelishidan kelib chiqib, ketma-ketlikda davo tadbirlarini qabul qilishgan.

Hammomlarda kimlar faoliyat yuritgan va davolash bilan shug'ullanuvchilar kim edi? Shuni alohida ta'kidlash joizki, hammomlarda maxsus tabiblik shartlari mavjud emasdi. Chunki, hammomlardagi asosiy davolash usuli amaliy harakatlarga asoslangan. Shundan kelib chiqqan holda, har bir hammomda bir nechta tajribali uqalovchilar va boshqa yordamchi xodimlar xizmat qilgan[20:290]. Jumladan, *xodim*– uqalovchilar va *xaltador*- tanani kirdan tozalovchilar, *bibixalfa*- hammomda xotin-qizlarning turli kasalliklarini davolash bilan shug'ullanuvchilar faoliyat yuritgan.

Uqalovchi mijozning yoshi, kasal yoki kasal emasligi kabi omillarni hisobga olib, uqalashda parranda yog'i, qatiq, asal hamda ot, tuya yog'idan keng foydalanilgan. Uqalovchilarning hammomlardagi faoliyati insonning mizoji, terisining ta'sirchanligi hamda ichki a'zolarining holati kabi masalalarda tashxis qo'ya olish va shundan kelib chiqib muolajani belgilash darajasida ilmga ega ekanligini ko'rsatadi. Xaltador va boshqa yordamchilar davolashdan ko'ra ko'proq badanni tozalash ishlari bilan band bo'lishgan.

Demak, tabiblar yoki hakimlardan tashqari xalq orasida tabiblikka da'vo qilmasa-da, kasbidan kelib chiqib, kishilar salomatligini saqlash bilan shug'ullanadiganlar ham bo'lgan. Jamiyatda tabiblarning kamligi va tibbiy muassasalarning sanoqli ekanligi hisobga olinsa, hammom va shu kabi sog'lomlashtirish markazlari hamda xodimlarining hisobiga Turkistonda jamoat salomatligi me'yorda saqlangan.

Hammomlardan foydalanish tartibi qanaqa edi va davolash ishlari qay tartibda amalga oshirilardi? Hammomlardan foydalanish ma'lum to'lovlar asosida amalga oshirilgan bo'lib, bu mablag' asosan binoni saqlash xarajatlariga sarflangan bo'lsa, tushumi katta hammomlarning mablag'i boshqa sohalar xarajatiga vaqf ko'rinishida taqdim qilingan. Jumladan, Qo'qonda Xudoyorxon mablag'i evaziga qurilgan hammomning daromadi masjidga vaqf qilib berilgan[10]. Demak, hammomlar joylashgan joyi va kattaligiga qarab tabaqalashgan. Uning narxi esa aholini cho'ntagi ko'taradigan darajada bo'lgan. Chunki, hammomlarning jamiyat salomatligini saqlashdagi o'rni hisobga olinib, aholiga arzon narx belgilangan. Narx va tushum masalasi muntazam nazoratga olingan. Jumladan, birgina Samarqandda hammom narxi arzimagan pul turgan hamda bayram va boshqa shu kabi muhim voqe'lardan oldin yengillik joriy etilgan. Bu vaqtda samarqandliklar va hatto shaharga kelgan xorijlik mehmonlar ham hammomdan tekinga foydalanishga ruxsat berilgan[7:100-104]. Turkiston o'lkasida tibbiyot joriy etilganidan so'ng aholi salomatligi hamda ularning shaxsiy tozalikka e'tibor qilishi, tug'ruq masalalari odatda markazlashgan

shifoxona, ambulatoriya va sanitar-politsiyalar zimmasiga yuklatilgan va yangi tartib o'rnatilgan bo'lsa, xonliklar davrida bu kabi ehtiyojlarning bir qismini jamoat hammomlari bajargan.

Hammomlardan kimlar foydalanishi masalasiga kelsak, hammom an'anaga ko'ra erkaklar boradigan maskan hisoblanardi. Faqat Anushaxon hammomiga qullarning kirishi mumkin bo'lmagan[9:21]. Boshqa manbada esa, hammomlar asosan erkaklar maskani bo'lib, ayollarning borishi odobsizlik hisoblangan[11:151] deyilgan. Anushaxon hammomiga qullarning kiritilmasligini hammomning katta nufuzga va obro'ga egaligi hamda qullarning huquqlari masalasi bilan izohlash mumkin. Bu davrda hammomlarning xonalari xizmat sohalari nuqtai nazaridagina ixtisoslashgani va aholi tabaqalashgan qismiga qarab xonalarga bo'linmagani hisobidan qullarning kelishi inshootning obro'siga putur yetkazishi hisobga olingan.

Ayollar masalasiga kelsak, to'g'ri, Turkistondagi hammomlarning umumiy tuzilishi va ish faoliyatiga nazar solinsa albatta aksariyat masalalarda erkaklarga mo'ljallangan qulayliklar yaratilganini qayd etish joiz. Lekin, manbalarda haftaning ma'lum kunida yoki ayrim marosimlarni bajarish tartibi nukati-nazaridan ayollar ham hammomga borgani va ular ham poklanish maskani sifatida qaragani qayd etiladi. Jumladan, turkistonlik ayollar orasida yaqinda farzand ko'rgan xotin chillasidan chiqishi munosabati bilan qaynonasi va boshqa yaqin qarindoshlari bilan hammomga kelgan. Rasm-rusumlar asosida giyohlaridan tayyorlangan dori-darmonlar bilan muolaja qilingach, obdan cho'miltirilib, "chilla"dan chiqarilgan[20:290]. Demak, ayollar hammomga jismonan poklanish emas, jinsga doir va tug'ruq bilan bog'liq turli marosimlarni o'tkazish, ham jismoniy ham ruhiy tiklanish maskani sifatida qaragan. Bu davrda aholiga tabaqa bo'yicha ayrim cheklovlar qo'yish mumkin bo'lsa-da, davolanish, poklanish va boshqa masalalarda jins bo'yicha alohida cheklovlar qo'yish mushkul bo'lgan. Chunki, odamlarning uylarida shaxsiy hammomlarning kamligi va hammomda poklanish alohida an'ana darajasiga chiqqani sabab ayollarni bu jarayondan uzib qo'yish mumkin emasdi.

Hammomlarda ma'lum muolaja xonalari bo'lgan va tashrif buyuruvchilar sog'lig'idan shikoyatiga qarab bu xizmatdan foydalangan. Jumladan, Xivadagi mashhur Anushaxon hammomida alohida uqalash xonasi mavjud bo'lib, u yerda ushbu muolajalardan tashqari, tish oldirish, qon oldirish imkoniyati mavjud edi[9:21]. E'tiborli jihati shundaki, bu hammomda maxsus giyohlar savdosi tashkil qilingan va o'sha giyohlardan tayyorlangan choylarni iste'mol qilish ham badanni turli xiltlardan tozalagan. Giyohlardan tayyorlangan damlamalar va hammomning havosi inson tanasini terlatish orqali darddan forig' bo'lishiga olib kelgan.

Demak, o'lkaga tibbiyot joriy etilguniga qadar ayrim shaxsiy gigiyenik va shamollash bilan bog'liq xastaliklarni turkistonliklar hammomlar vositasida davolagan va bu yerda maxsus davolash amallarini biladigan mutaxassislar faoliyati yo'lga qo'yilgan. Bu davrda hammomlar faoliyati inson badanini toza saqlashdan ham ko'ra uning turli tan kasalliklarini davolashga ixtisoslashgan. Shu sababli barcha shaharlarda davlat hammomlar qurish va uning faoliyatini

ta'minlashga alohida e'tibor qaratgan. To'g'ri, hammomlar shifoxona vazifasini bajarolmagan, lekin shunday bo'lsa-da, aholi orasida davo topish maskani sifatida alohida o'rni bo'lgan.

Tabiblarning uylari, tabib ko'chalar. Davolash maskanlaridan navbatdagisi tabiblarning bemor qabul qilish nuqtalari, uylari edi. Tabiiyki, barcha tabiblar kasalxonalarda faoliyat yuritmagan. Turkiston o'lkasida XVIII asrga kelib aksariyat tabiblar mustaqil faoliyat yuritishgan yoki boshqacha aytganda, sohada xususiy faoliyat yuritadigan kadrlarning ulushi baland edi. Shu sababli taniqli tabiblar – bemorlarni ular topib kelishi oson bo'lgan gavjum joylarda yoki uylarida qabul qilganlar.

Ma'lumki, kasallik vaqt yoki joy tanlamagani sabab odamlarning tabibga bo'lgan ehtiyoji sutkaning istalgan qismida yuz berishi mumkin edi. Bunday vaziyatda tabibni uyidan izlash eng to'g'ri yo'l hisoblanadi. O'sha davrda tabiblar ma'lum kasalliklarni davolashga ixtisoslashgan edi. Masalan, uqalovchilar, teri kasalliklari bilan shug'ullanuvchilar, qon oluvchilar, rishtani davolovchilar, tishni davolovchi va boshqa ixtisoslashgan tabiblar bo'lgan[12:160]. Kasallarni tabib o'z uyida muntazam qabul qilishi natijasida tabib yashaydigan mahalla yoki ko'cha uning nomi bilan atalgan. Bir ixtisoslikdagi bir necha tabiblarning bitta mahallada yoki ko'chada yashashi natijasida "tabib ko'cha"lar yoki alohida guzarlar paydo bo'lgan. Jumladan, Buxoroda Registon 19 ta mahallaga bo'lingan va uning tarkibida "shikastabandon", "tabibon" nomli guzarlar bo'lgan[17:136]. Yoki Toshkentda Moshtabib "tabib ko'cha"dagi hovlisida bemorlarni qabul qilishi bilan xalq orasida mashhur bo'lgan[1:8]. Tabiblarni bunday muolaja joylarini tashkil qilishi yuqorida ta'kidlanganidek, hususiy faoliyati bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan ayrim kasallarni tezkor muolaja qilish (chiqqan, singan, zaharli hasharot chaqqan) yoki umumiy davolashdagi ma'lum kasbiy tartib sabab bo'lgan. Davolashda boshqalarda uchramaydigan, faqat tabibda bo'lgan zarur anjomlar, dorivorlarni ma'lum sharoitda saqlash va dori tayyorlash uchun maxsus buyumlarning ishlatilishi kabi talablar natijasida hakimlarning o'z uylarida ham kichik shifoxona ko'rinishida davolash xonalarini jihozlashiga sabab bo'lgan.

Tabib istiqomat qiladigan ko'cha yoki guzarlarni ularning nomi bilan atalishi uzoq vaqt ushbu kasb egalarining shu yerda yashashi natijasi deb bilsak, bundan ma'lum bo'ladiki, XIX asrga kelganda ham bunday toponimlarning uchrashi tabiblik sulolaviy shaklda bo'lganini ko'rsatadi.

Tabiblar o'z uylaridan tashqari odatda aholi ko'p to'planadigan va odamlar topib kelishi oson bo'lgan gavjum joylarda ham faoliyat yuritishgan. XIX asrga kelib, juda ko'p hollarda tabiblarning asosiy "ish joyi" bozorlar, shahar guzarlari edi. Aksariyat tabiblar bozorlarda joylashgan o'z "do'kon"larida bemorlarni qabul qilgan va muolaja bilan shug'ullangan. Masalan, Buxoroda faoliyat yuritgan tabiblarning do'konlari bozorning aholi gavjum bo'lgan nuqtalarida joylashgan[5:19]. Masalan, milliy tibb ilmi va tibbiyotdan xabardor bo'lgan olim Mirzo Siroj Mahdum buxoroliklar orasida tarqalgan rishta kasalini davolashning maxsus usulini kashf qiladi va bu xizmatdan ko'proq aholi foydalanishi uchun

bozorning chilangarlar rastasidan o'z tabobatxonasini ochadi[14:32]. U faoliyati davomida yuzdan ortiq kishiga shifo ulashgan. E'tiborga molik tomoni shunda ediki, asosan tabiblar bozorlarda davolash bilan shug'ullangan bo'lsa, Mirzo Siroj Mahdum tabib emas, oliy malakali shifokor edi. Shifokorni ham davolash maqsadida bozorga joylashishinig sababi shuki, bu joy asrlar davomida aholi kasaliga davo topadigan maskanga aylangandi. Aholini o'rgangan joyidan boshqa nuqtaga chaqirib olish yaxshigina raqobat, katta mehnat va uzoq vaqtni talab qilgan. Bu omilni hisobga olgan Mirzo Siroj Mahdum kasallar bilan muloqot qiladigan joy masalasida mavjud tartibga bo'ysungan deyish mumkin. Keyinchalik ham nafaqat tabiblar, balki tibbiyotdan xabardor bo'lgan milliy kadrlar ham ma'lum muddat bozor ichi yoki uning yaqinida o'zining xizmatlarini taklif qilgan.

Xivada ham shu holat kuzatiladi va uzoq yillar davomida bozorlar aholi uchun shifoxona va dorixona vazifasini o'tab kelgan[9:28]. Turkistonni bosib olishdagi harbiy yurishlar qatnashchisi M. Galkin tabiblar davolash bilan asosan bozorlarda shug'ullanishlari, har bir tabibning bu yerda maxsus do'koni bo'lib, bu do'konlarda tabib xastani ko'rib tashxis qo'yishi, tish olishi, suyak chiqishi, sinishni davolashi mumkinligi hamda kasalliklarga davo bo'ladigan dori-darmonlar sotilishini qayd etgan. Bundan tashqari tabiblar bozorda har xil dorivor tuzlarni, kemiruvchilarga qarshi dorini ham bemorlarga sotganlar. Bu do'konchalar "moslashtirilgan dorixonalar" nomi bilan ham mashhur bo'lgan. Xalq orasida esa bu kabi do'konlar "charchi saroyi" deb nomlanib, ular odatda yopiq bozor – timlarda joylashgan[8].

Toshkentda bir necha asrlardan beri faoliyat yuritayotgan Moshtabiblar sulolasi ham bozorda faoliyat yuritgani hamda bu yerda tabiblikdan tashqari savdo bilan shug'ullangani manbalarda qayd etilgan[1:12]. Hattoki "Moshtabib" atamasining yuzaga kelish omillaridan biri – sulola vakillarining bozorda tirikchilik vajidan mosh savdosi bilan shug'ullangan va mosh bilan savdo qiluvchi tabib- moshtabibga aylangan, degan fikr ham ilgari surilgan.

Qo'qonda ham bozorlar asosiy dori sotiladigan markaz bo'lib, u yerdan kerakli giyoh yoki boshqa shifobaxsh jamlanmalarni oson topish imkoni bo'lgan. XIX asrga kelib xonlikda barcha aholi markaziy bozorlardan kerakli dorilarni xarid qilishardi. Jumladan, o'sha davrda yashagan Muhammad Hakimxon to'ra ham kasallikka chalinganida o'z xizmatkorlari bir necha marta bozordan dorilarni keltirgani ham buning dalilidir[21:10].

Tabiblar aholini ehtiyojidan va mijozlar sonidan kelib chiqib bozorlardan boshqa hududlarda ham o'zlarining kichik ixtisoslashgan markazlarini tashkil qilganlar. Jumladan, bu davrda yirik karvonsaroylar qoshida sayyohlar, mehmon savdogarlarga xizmat ko'rsatish maqsadida tabiblar faoliyati yo'lga qo'yilgan va dorixona xizmati tashkil qilingan[19:21]. Karvonsaroylarda tabiblarning maxsus xonasi bo'lgan[15:54] va uzoq-yaqindan kelgan mehmonlarning tobi qochganida ularga yordam ko'rsatilgan. Ko'pincha tabiblar karvonsaroyga chaqiruv bo'lgandagina tashrif buyurishgan. Lekin karvonsaroylar, mehmonxona egalari muolajaga ehtiyoj tug'lishi mumkinligidan doimo o'ziga yaqin tabib bilan aloqani yo'lga qo'ygan.

Tabiblar mustaqil faoliyat yuritish uchun bozorlar, guzarlarga chiqib ketishi va o'zi uchun maxsus joylarda kichik davolash qismlarini tashkil qilishi sabablaridan biri, bir tomonidan, kasalxonalar sonining kamligi va muassasalarda bo'sh ish o'rning yo'qligi bo'lsa, boshqa tomondan, keyinchalik turli siyosiy, iqtisodiy sabablar tufayli shifoxonalarga davlat e'tiborining kamayishi natijasida yuz berdi. Shuningdek, aholi sonining ko'pligi va mavjud shifoxonalar ehtiyojni qondirolmashligi ham turli shaxsiy tibbiy muassasalarning yuzaga kelishiga sabab bo'ldi.

Xulosa o'rinda aytish mumkinki, Turkiston o'lkasida milliy tib tizimiga xos davolash muassasalari ikki qismga ajralgan. Birinchisi, hukumat yoki vaqf mulkidan moliyalashtiriladigan davlat shifoxonalari va hammomlar bo'lsa, ikkinchisi tabiblarning mustaqil faoliyat yuritishi natijasida yuzaga kelgan davolash muassasalari edi. Birinchi turdagi muassasalarning ta'minoti mo'tadil bo'lib, ma'lum tartib va qoidalar asosida boshqarilgan. Tabiblarning uylari, gavjum joylardagi davolash nuqtalari ijtimoiy talab asosida paydo bo'lgan hamda uning foydasi tabibning mashhurligi, uquvi va xaridorgiriligiga bog'liq edi. Aytish joizki, davlat shifoxonalari soni kam bo'lgan va bu muassasalar asosan shaharlarda yoki mahsus joylarda (masalan, hammomlarni qurish uchun zarur suv va foydalanilgan suvni chiqarib yuborish imkoni bo'lgan kanalizatsiya tizimi zarur edi) tashkil qilingan. Tabiblarning davolash nuqtalari esa ko'proq aholi to'planadigan va uzoqdan keladigan odamlar topishi oson bo'lgan joylarda tashkil qilingan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Абдужаббор Муҳаммад Собир ўғли. Асрлар ошган табобат. –Тошкент: Davr press, 2007. (Abdu Jabbar Mohammad Sabir son. Age-old treatment. Tashkent, 2007).
2. Абдусаттор Жуманазар. Бухоро таълим тизими тарихи. – Тошкент: Akademnashr, 2007. (Abdusattor Jumanazar. History of Bukhara education system. Tashkent, 2007).
3. Абу Али ибн Сино. Тиб қонунлари. – Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1993 .(Abu Ali ibn Sina. Medical laws. Tashkent, 1993).
4. Авесто. Тарихий-адабий ёдгорлик. Асқар Маҳкам таржимаси. – Тошкент: Шарқ, 2001. (Avesta. Historical and literary monument. Translation by Askar Mahkam. Tashkent, 2001).
5. Ахмедов Р., Наимов Н. Бухоро тиббиёти тарихи. – Бухоро: Университет, 2009. (Akhmedov R., Naimov N. History of Bukhara medicine. Bukhara, 2009).
6. Бобожон Тарроҳ Азизов – ходим. Хоразм навозандалари: XIX аср охири XX аср бошларида Сайид Муҳаммад Раҳимхони соний даврида яшаган шоирлар ҳақида эсдаликлар. – Тошкент: Ғофур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1994 . (Bobojon Tarroh Azizov. Musicians of Khorezm: memories of the poets who lived in the era of Syed Muhammad Rahimkhani at the end of the 19th century and at the beginning of the 20th century. Tashkent, 1994).

7. Вамбери Г. Очерки и картины восточных нравов. – СПб., 1877. (Vambery G. Essays and paintings of eastern morals. Spb, 1877).
8. Гиршфельд В., Галкин М. Военно-статистическое описание Хивинского оазиса. Часть I. Ташкент, 1902. (Girshfeld V., Galkin M. Military-statistical description of the Khiva oasis. Part I. Tashkent, 1902).
9. Гойибов М. ва бошқ. Хива табобати.–Тошкент: Абу Али ибн Сино, 1995. (Goyibov M. and others. Khiva medicine. Tashkent, 1995).
10. Ибрагимов И. Пять дней в Коканде // Туркестанские ведомости. – 1872. – № 20. (Ibragimov I. Five days in Kokand // Turkestanskiy vedomosti. – 1872. – No. 20).
11. Логофетъ Д. Бухарское ханство под русским протекториаом. Том II. – СПб., 1911. (Logofet D. Bukhara Khanate under Russian protectorate. Vol.II. St. Petersburg, 1911).
12. Мўминова Г. Ўзбекистонда соғлиқни сақлаш тизими тарихи (1917-1991 йиллар). – Тошкент: Yangi nashr, 2015. (Mominova G. History of health care system in Uzbekistan (1917-1991). Tashkent, 2015).
13. Мухаммад Азиз Марғилоний. Тарихи Азизий. – Тошкент: Маънавият, 1999. (Mohammad Aziz Margilani. History of Aziziy. Tashkent, 1999).
14. Ражабова С. Унутилган табиб // Фан ва турмуш. – 1997. – № 1. (Rajabova S. The forgotten doctor // Science and life. 1997. – No. 1).
15. Ремпел Л. Далёкое и близкое: страницы жизни, быта, строительного дела, ремесла и искусства Старой Бухары. – Ташкент: издат. Лит и искусства, 1982. (Rempel L. Far and near: pages of life, everyday life, construction, crafts and art of Old Bukhara. Tashkent, 1982).
16. Справочная книжка Самаркандской области на 1891 год. Вып I. – Самарканд: Изд. Сам-го областного Стат. Комитета, 1891. (Reference book of the Samarkand region for 1891. Issue I. Samarkand, 1891).
17. Сухарева О. Квартальная община позднефеодального города Бухары. – Москва: Наука, 1976. (Sukhareva O. Quarterly community of the late feudal city of Bukhara. Moscow, 1976).
18. Ўринбоев А., Бўриев О. Тошкент Мухаммад Солих тавсифида (XIX аср). – Тошкент: Фан, 1983. (Orinboev A., Boriev O. In the description of Tashkent Muhammad Salih (XIX century). Tashkent, 1983).
19. Ўролов А. Ўтмишда даволаш муассасалари. – Тошкент: Фан, 1990. (Urolov A. Treatment facilities in the past. Tashkent, 1990).
20. Халқ табобатида табиий гиёхлардан фойдаланиш усуллари / Ўзбекистон худудида табиий фанлар йуналишидаги илмий тадқиқот ва экспедициялар (XIX аср - XX аср бошлари). Масъул муҳаррир Д. Зияева. – Тошкент: Akademnashr, 2019. (20. Methods of using natural herbs in folk medicine / scientific research and expeditions in the field of natural sciences in the territory of Uzbekistan (19th century - early 20th century). Responsible editor D. Ziyaeva. Tashkent, 2019).
21. Энвер Хуршид. Хакимхоннинг хаёти ва сайёҳатлари. – Тошкент: Фан, 1987. (Enver Khurshid. Hakimkhan's life and travels. Tashkent, 1987).

FILOLOGIYA

BADIIY TASVIR VA TALQIN UYG‘UNLIGI

UO‘K 230.25



**Muyassar
IBROHIMOVA,**
**Filologiya fanlari
bo‘yicha falsafa
doktori.**

Annotatsiya: Ushbu maqolada Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asaridagi badiiy tasvir tahlil qilinadi. Asardagi turkiy so‘zlar filologik jihatdan tadqiq etiladi.

Аннотация: В статье анализируются художественные образы в произведении Махмуда Кашгари «Диван лугат ат-турк». Тюркские слова в работе изучаются филологически.

Annotation: This article analyzes the artistic imagery in Mahmud Kashgari's "Devonu Lug'otit Turk." The Turkic words in the work are studied philologically.

Kalit so‘zlar: Devon, turk, Qoshg‘ar, urf-adat, til, an‘ana, alp, she‘r.

Ключевые слова: Девон, турецкий, Кашгар, обычаи, язык, традиция, альпийский, поэзия.

Key words: Devon, Turkish, Kashgar, customs, language, tradition, alpine, poetry.

Ma‘lumki, mashhur tilshunos va elshunos olim Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asari turkiy xalqlarning qadimgi urf-odatlarini, hayot tarzi va borliqqa munosabatini ifoda etgan qomusiy manbadir. Undan nafaqat XI asr, balki ungacha bo‘lgan davrdagi xalq og‘zaki ijodi namunalari, adabiy parchalar ham o‘rin olgan. Bu she‘rlarda qabila bahodirlarining mardonavor kurashi, tabiat hodisalari, xalqning orzu-umidlari yorqin badiiy ifoda topgan. Devondagi lirik parchalarda bahor, qish, ko‘ngil, kamon, o‘q, sharob, ov, qush, daraxt kabi qator obrazlar keltirilgan. Ular orasida dunyo obrazi o‘zining ma‘no ko‘lami, metaforik tabiati, badiiyati bilan ham ajralib turadi. Garchi dunyo so‘zi devonning boshidan oxirigacha birgina “ajun” atamasi bilan berilsa-da, (ajun¹ – dunyo, bu ajun – bu dunyo, ol ajun – u dunyo, oxirat. – M.I), she‘riy parchalarda bir necha ma‘no qatlamiga ega. Ya‘ni, goh zamona, ba‘zan davr, moddiy olam, borliq mazmunlarini ham yuzaga chiqaradi. Masalan, “Alp Er To‘nga” marsiyasida dunyo barcha ko‘ngilxiraliklarning, g‘am-anduh, baxtsizlik va ayriliqning sababchisi sifatida qoralanadi:

Alp Er To‘nga o‘ldimu,
Esiz ajun qaldimu.


¹ Bu so‘z mumtoz adabiyotda ochun tarzida uchraydi. Jumladan, Lutfiy ijodidan olingan mana bu baytda ham ochun dunyo ma‘nosida qo‘llangan:

Sendek ochunda ko‘zlari ayni balo qani,
Mendek aning jafosi bilan mubtalo qani.

Lutfiy. Devon. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2012. 285-bet.

O‘zlak o‘chin aldimu,
Emdi jurak jirtilur.

(Afsuski, qahramon Alp Er To‘nga o‘ldimi, yaramas dunyo undan ajralib qoldimi, zamona undan o‘chini oldimi, endi uning uchun yuraklar yaralanayotir.)¹



Devonda keltirilgan she‘riy parchalarda ajun so‘zi zamona, vaqt ma‘nosini bildirgan ogru, o‘zlak kalimalari bilan ko‘pincha yonma-yon keladi. Yuqoridagi to‘rtlikda ham o‘zlak so‘zi ajun orqali ifoda etilgan ma‘noni yanada kuchaytirib, lirik qahramonning dunyoga nisbatan munosabatini teran anglatishga xizmat qilgan.

Afsonalarga ko‘ra, Alp Er To‘nga turkiy xalqlarning yetakchisi, afsonaviy qahramoni sanaladi. To‘rtlikda yaqin insonini yo‘qotgan kishining dardli qiyofasi badiiy tasvirlangan. Talmeh san‘ati imkoniyatlaridan foydalanib, dunyoning o‘tkinchi ekani, hech

bir insonga vafo qilmasligi jonli yoritib berilgan.

Devonda dunyo ko‘pincha “arg‘uch”, ya‘ni kishini mag‘rur qiluvchi, hovliqtiruvchi sifati bilan ifodalanadi. E‘tiborlisi, “arg‘uch ajun” – mag‘rurlantiruvchi dunyo faqat “Devonu lug‘otit turk”dagina uchraydi. Ushbu sifatlash dunyo istilohini yanada kengroq tushunishga imkon beradi. Quyidagi she‘riy parchada esa, bu dunyoni sevis, molu dunyoga muhabbat qo‘yish, uning noz-ne‘matlariga mahliyo bo‘lish shaytonning yolg‘onlariga aldanish ekani badiiy bo‘yoqlarda ta‘sirchan yoritilgan:

Bardi sena jek otu tutup bal,
Barchin keziban talu juwg‘a bolup qal.

(Shayton seni uchratdi, senga asal tutib, dunyo shirinligi – rohatini berdi. Mag‘rur bo‘lib ipakli kiyimlar kiyding. Agar uning aldovini tushunmaydigan bo‘lsang, shunday qolib rohatlana ber)². Ma‘lumki, tasavvuf adabiyotida dunyo obrazi nafsning tovlanishlaridan biri sifatida tasvirlanadi. Qur‘oni karim oyatlarida ham dunyo insonlarni adashtiruvchi, Yaratgandan uzoqlashtiruvchi, iblisning hiylalariga og‘diruvchi vosita ekani aytilgan. “Albatta, o‘zlariga hidoyat (yo‘li) aniq-ravshan bo‘lganidan keyin yana ortlariga (kufrga) qaytib ketgan

¹Koshg‘ariy M. Devonu lug‘otit turk. 1-tom (Nashrga tayyorlovchi: Solih Mutallibov). – Toshkent: “Fan”, 1960. 77-bet.

²Koshg‘ariy M. Devonu lug‘otit turk. 3 tom (Nashrga tayyorlovchi: Solih Mutallibov). – Toshkent: “Fan”, 1960. 171-bet.

kimsalarga (bu ishlarini) shayton chiroyli qilib ko‘rsatdi va ular uchun (puch orzu-xayollarni) uzun qilib qo‘ydi”. (“Muhammad” surasi, 25-oyat)

Ko‘zum jashi sawruqib quzu oqar,

Bilkib ajun emgagin tugal uqar.

(Dunyo qiyinchiliklarini to‘la tushungandan keyin, ko‘zim yoshlari tirqirab oqadi.)¹

Yuqoridagi parchada dunyoning mazmun-mohiyatini anglab yetgan donishmand insonning g‘amgin qiyofasi tasvirlangan. U bu dunyoning noz-ne‘matlari azob-uqubat keltirishini tushunib, qayg‘uga botadi. Baytda qiyinchiliklar deyilganda faqatgina yomonliklar nazarda tutilmaydi. Aksincha, chiroyli bo‘lib ko‘ringan, ko‘ngilga xush yoquvchi narsalar ham iztirob keltiradi. Natijada lirik qahramon dunyoda yaxshilikning o‘zi yo‘q degan fikrga keladi:

Emgaksizin turg‘u joq munda tamu,

Ezgulugun ko‘rmazib ajun chiqar.

(Bu dunyoda kishining mashaqqatsiz turishi hech mumkin emas. Biror yaxshilik ko‘rmay turib, odam dunyodan o‘tadi).²

Devondagi bu bayt dunyo haqidagi fikrlarning xulosasiday tuyuladi. Hayot qanchalik shirin bo‘lmasin, u mashaqqatsiz kechmaydi. Umr shunchalar qisqaki, odam biror yaxshilik ko‘rmasdan turib bu dunyodan o‘tib ketaveradi.

Dunyoda hamma narsa o‘tkinchi. Ammo quyosh va yulduzlar boqiy yashayveradi. Zamon, fursat, tabiat o‘zgarishlari olamning tabiiy qonuniyatlariga sira daxl qila olmaydi. Faqat inson “shikastlanishi”, ya’ni olamdan o‘tishi muqarrar:

Tug‘un taqi qalmadi mangu eran,

Ajun kuni julduzi tutchi tug‘ar.

(Zamonni ta’riflab aytadi: tug‘ilgan odam doim yashamaydi. Ammo dunyoning quyoshi, yulduzi doimo yoritadi, hech shikastlanmaydi. 389-bet).³

Lirik qahramon dunyo hodisalarini anglashga harakat qilayotgan, nega hamma narsa boqiy, ammo inson umri o‘tkinchi degan savolga javob izlashga intilayotgan mulohazakor odam. U taqdir hukmini, insonlik mohiyatini, umr mazmunini teran tushunadi. Ya’ni, lirik parchada umr o‘tkinchi ekan, uni yaxshiliklar bilan bezash kerak degan nekbin ruh ifodasi ham mavjud. Quyidagi she’rda esa ajun so‘zi zamon, vaqt, davr ma’nolarini ham bildirgan:

Ajun to‘ni ko‘nduzi jelkin kechar,

¹ Koshg‘ariy M. Devonu lug‘otit turk. 2 tom (Nashrga tayyorlovchi: Solih Mutallibov). – Toshkent: “Fan”, 1960. 265-bet.

² Koshg‘ariy M. Devonu lug‘otit turk. 1 tom (Nashrga tayyorlovchi: Solih Mutallibov). – Toshkent: “Fan”, 1960. 397-bet.

³ Koshg‘ariy M. Devonu lug‘otit turk. 3 tom (Nashrga tayyorlovchi: Solih Mutallibov). – Toshkent: “Fan”, 1960. 389-bet.

Kimki qali satg'asa ko'chin kewar.

(Zamonning kecha va kunduzlari safar qiluvchilardek o'tadi. U kimga yomon qarasa, uning kuchini sindiradi. Bu so'z o'g'uzlarda yo'l va qarz xususiyatida qo'llanadi).¹

Tashxis san'ati fikrning ta'sir kuchini orttirmoqda. Ya'ni kecha va kunduzlar jonlantirilib, sayyohlarga o'xshatilyapti. Vaqt esa jahldor – kimga yomon qarasa, uning kuchi sinadi. Umr – uzun yo'l va omonat, qarzdir. Yo'lning oxirida olingan qarzni qaytarish fursati yaqinlashadi. Bundan ko'rinadiki, dunyo omonat emas, inson dunyoda omonatdir. Oxir-oqibat esa, bu qarz o'z egasiga qaytariladi. Devondan bunday ohorli tashbehlarni ko'plab uchratish mumkin.

O'gru jugi mundag' oq,

Munda azin tendag' oq.

Etsa ajun og'rab oq,

Tag'lar bashi kertilur.

(Zamonaning o'rgangan odati shundog', bundan boshqa uning halokatli sabablari ham bor, agar u dunyoga mo'ljallab o'q o'tsa, tog'lar boshi kertiladi.)²

Bu to'rtlikda dunyo va vaqt obrazlari parallel qo'llanib, zamona dunyo halokatlarnig sababchisi sifatida ko'rsatilmoqda. Tashxis san'ati vositasida vaqtning hatto dunyoga ham dushman ekanligi, unga qarab o'q otishi jonli tasvirlangan. U o'tgani sari hatto tog'lar ham yemirilib, yo'qlik sari yuz tutadi, deyilmoqda.

O'zlak arig' kevradi,

Junchig' javuz kevradi.

Erdam jema sevradi,

Ajun begi chertilur.

(Zamon ozdi, zaiflar, bemazalar kuchlandi. Zamon ahli (odamlar) Afrosiyobning vafot qilishi bilan fazilatdan mahrum bo'ldi).³

Professor Abdurauf Fitrat devonda uchraydigan o'nta to'rtlik ("Alp Er To'nga o'ldimu", "Dunyo fursat ko'zladi", "Dunyo kunin pastlatur", "Odatdan zo'r narsa yo'q", "Zamon ahli ozaydi", "Bilimdonlar ezildi", "Beklar oti charchadi", "Ko'nglimni chok-chok qildi", "Kuchandi bilagim")ni Afrosiyob marsiyasi nomi bilan birlashtirgan. "Men ham yolg'uzgina iki marsiyaga uchradim. Qolg'anlarining marsiya ekanlariga qaror bera olmadim. Fikrimcha, ularga marsiyadan boshqa unvonlar berish kerak. So'ngra Alp Er To'nga

¹ Koshg'ariy M. Devonu lug'otit turk. 3 tom (Nashrga tayyorlovchi: Solih Mutallibov). – Toshkent: "Fan", 1960. 303-bet.

² Koshg'ariy M. Devonu lug'otit turk. 1 tom (Nashrga tayyorlovchi: Solih Mutallibov). – Toshkent: "Fan", 1960. 174-bet.

³ Koshg'ariy M. Devonu lug'otit turk. 3 tom (Nashrga tayyorlovchi: Solih Mutallibov). – Toshkent: "Fan", 1960. 48-bet.

marsiyasini F.Ko‘prilizoda o‘n iki parcha deb ko‘rsatadi. Menimcha, o‘n parchadir”.¹ U ushbu to‘rtlikni ham marsiya tarkibiga qo‘shgan:

Bilga boku junchidi,
Ajun ati janchidi.
Jerga tegip so‘rto‘lur,
Erdam eti tinchidi.

Zamon ahvolini tushuntirib shunday deydi: bilimdonlar ahvoli yomonlashdi. Zamon ularni tishlab azob berdi, hattoki, odob, fazilat go‘shtlari buzildi, sasidi. Zaiflikdan yerga tegib sudralmoqda.²

Mazkur parchalarda barcha yomonliklarning sababchisi sifatida aynan Afrosiyobning vafotidan keyingi davr – zamon qoralanmoqda.

Ayrim to‘rtliklarda ajun so‘zi olam, moddiy borliq ma’nolarida ham qo‘llanadi:

Qaqlar qamug‘ ko‘lardi,
Tag‘lar bashi ilardi.
Ajun tani jilirdi,
To‘tu chechak jerkashur.

(Qoq yerlar hammasi ko‘lga aylandi, tog‘ boshlari ilidi, dunyo issiq nafas oldi, turli-tuman chechaklar bosh ko‘tarib tizilishdi.)³

Bu to‘rtlikda tashbeh san’ati qo‘llanilib, bahorning ajoyib tasviri yaratilgan. Dunyo, tog‘, chechaklar shaxslantirilib, qorlar erib, cho‘qqilarning ham iliqlashishi, gul-u maysalarning unib chiqishi, olamning issiq nafas olishi – tabiatdagi o‘zgarishlarga ishora qilinadi.

Jaj ko‘rkina inonma,
Suvlar o‘za tajanma.
Esizlirir anunma,
Tilda (n) chiqar ezgu so‘z.

(Bahor ko‘rkiga, uning rang-barang gullariga, chiroyliligiga ishonma, undan yaxshilik umid qilma, suvga tayanma, chunki dunyo ne‘matlarining shirinligiga, bahor go‘zalligiga suyangan kishilar suvga suyanganlar kabidir. Yomonlikka otlanma. Tilingdan doimo xalq sendan minnatdor bo‘ladigan yaxshi so‘zlar chiqar.)

Dunyoning noz-ne‘matlariga ishonishni suvga suyanishga qiyos etiladi. U bir joyda turmaydi, qaerdan boshlanib, qaerda tugashi ham ma’lum emas.


¹ Fitrat A. Tanlangan asarlar, IV jild. – Toshkent: “Ma’naviyat”, 2006. 120-bet.

² Koshg‘ariy M. Devonu lug‘otit turk. 3 tom (Nashrga tayyorlovchi: Solih Mutallibov). – Toshkent: “Fan”, 1960. 318-bet.

³ Koshg‘ariy M. Devonu lug‘otit turk. 1 tom (Nashrga tayyorlovchi: Solih Mutallibov). – Toshkent: “Fan”, 1960. 189-bet.

Mumtoz adabiyotda ham bu an'ana davom etgan. Muhammadrizo Ogahiyning bir tarje'bandida dunyoning suv ustiga qurilganligi, mustahkam emas, omonatligi aytiladi. U quyidagi misra bilan boshlanadi:

Dahr uyi bunyodkim suv uzadir, mahkam emas,
Onda kirgan yel xavotirdin amon bir dam emas.



Bu dunyoda xavotirsiz bir dam ham yashab bo'lmaydi, deydi shoir. Tabiiyki, suvga suyangen kishi oxir-oqibat unga g'arq bo'ladi. Shunday ekan, bu dunyoga kelib inson amalga oshirishi kerak bo'lgan ish – yaxshilik qilish, degan fikr ilgari suriladi.

Devonda keltirilgan to'rtliklar bir-birini takrorlamaydi. Koshg'ariy dunyo va unga yondosh ma'noda kelgan so'zlarni shunchaki izohlamaydi. Balki, xalqning jonli tilidagi o'xshashi yo'q topilmalarga, poetik obraz va ramzlarga boy misollarni qo'llaydi. Dunyoning sifatlari tasvirlangan parchalarda uning qilmishlaridan ogoh bo'lishga undovchi o'xshatishlar va ramziy ifoda tizimlariga duch kelsak, zamon va davr bilan bog'liq to'rtliklarda dunyoning o'tkinchiligiga urg'u beriladi. Bizni o'rab turgan borliq, moddiy olam ma'nosida kelgan o'rinlarda esa asosan, tabiat hodisalari tasvirlangan.

FILOLOGIYA

FUZULIYNING HAYOTI VA ADABIY MEROSI

UO‘K 550.41



**Rustam
JABBOROV,**
O‘zbekiston Islom
sivilizatsiyasi markazi
ilmiy kotibi, filologiya
fanlari bo‘yicha falsafa
doktori.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Fuzuliyning she‘riyati u yaratgan asarlar asosida tahlil etiladi. Shoirning turkiy adabiyotda tutgan o‘rni va nufuzi adabiy merosi asosida tadqiq qilinadi.

Аннотация: В статье анализируется поэзия Физули на основе созданных им произведений. Место и влияние поэта в турецкой литературе будут изучаться на основе его литературного наследия.

Annotation: This article analyzes Fuzuli's poetry based on the works he created. The poet's place and influence in Turkic literature are examined based on his literary heritage.

Kalit so‘zlar: Ozarbayjon, iroq, Bag‘dod, turkiy dunyo, she‘riyat, adabiy meros.

Ключевые слова: Азербайджан, Ирак, Багдад, тюркский мир, поэзия, литературное наследие.

Key words: Azerbaijan, Iraq, Baghdad, Turkic world, poetry, literary heritage.

Turk dunyosining buyukligi, nafosati va salobatini Mahmud Qoshg‘ariy, Jaloliddin Rumi, Nizomiy Ganjaviy, Mir Alisher Navoiy, Mirzo Bobur, Muhammad Rizo Ogahiy singari so‘z mulkinging zabardast fotihlari ijodisiz tasavvur eitish qiyin. Ulug‘ ozar shoiri hazrat Muhammad Fuzuliy siymosini ham ana shunday salaflar qatorida zikr etish g‘oyat o‘rinlidir.

Zero, so‘z ummonida erkin va bearmon suzib, uning tubidan eng nodir javohirlarni axtarib topmoq va ularni nafis did ila bir rishtaga chekmoq saodati kamdan-kam shoirga nasib etadi. Bunday saodatmand shoirlar safida albatta Fuzuliyning o‘z o‘rni bor.

Shu bois, bu ulug‘ shoirning bebaho merosi nainki Ozarbayjon, balki, o‘zbek, turkman, qozoq, qirg‘iz – barcha turkiy xalqlarning ma‘naviy mulkiga aylanib ulgurgan. Zero, uni har bir millat o‘z tili, o‘z lahjasida o‘qiy oladi, idrok eta biladi. Uning ushbu birgina baytiga e‘tibor bering:

Shifo vasi qadri hajr ila bemor o‘landan so‘r,

Ziloli zavq-shavqin tashnai diydor o‘landan so‘r.

Fuzuliy hazratlari o‘z ona tilida yozgan bu baytning mazmunini anglash uchun tarjimaga ehtiyoj sezilmaydi. Chunki, bu misralar har bir o‘zbek

uchun, o'zbek adabiyoti uchun qadrdon. Bu bayt bilan boshlanuvchi g'azal yuz yillar avval kuyga solinib, hofizlar tomonidan tarannum etib kelinadi. Yoki mana bu misralarni oling:

Ul na sirkim, sirri ishqing demayin har kimsaga,
Shahra tushmush “man sani sevdim” degan ovozalar...

Bunday misollarni ko'p keltirish mumkin. Zero, Fuzuliy sizni biz, barchamiz mansub bo'lgan sarhadsiz olamning vakili, uning qalbidan kechgan, qalamidan quyilgan shaffof tuyg'ular hech birimizga begona emas. Shu bois, u hech kimga begona emas, barcha millat va elat vakillari uchun birdek suyuq, qadrli.

Manbalarning shahodat berishicha, “Muhammad Sulaymon o'g'li Fuzuliy 1498-yilda Iroqning Karbalo shahrida dunyoga keladi. Uning otasi o'z zamonasining ziyoli kishilaridan biri bo'lib, asli Ozarbayjonning Bayot qabilasidan edi. Keyinchalik ular Iroqqa ko'chib kelishadi.

Bo'lg'usi shoir avval Karbalo, keyin Bag'doddagi madrasalarda tahsil oladi. Yoshlik chog'laridan turkiy, arab va fors tillarida g'azallar yoza boshlaydi” (1). Ilgari yashab o'tgan va o'z davrining shoir-u fozillari ijodini kuzatib ilhomlanadi. U o'z kulliyotining debochasida yozadi: “Shoirligim muqarrar bo'lgach, umrimning bir qismini sarf etib, turli ilmlarni o'rgandim”.

“Fuzuliy umri davomida ilm talabi va tirikchilik vajhidan Iroqning Hilla, Najaf kabi shaharlarida bo'ldi. U o'z ota yurti Ozarbayjon zaminiga bormagan bo'lsa-da, uning har bir misrasida ozar ruhi, ozariy nafas va tiniqlik jilvalanib turadi.

Fuzuliy bir muddat o'z davrida katta mavqega ega bo'lgan Ozarbayjon hukmdori Ismoil Safaviy, turk sultoni Sulaymon Qonuniyning himoyasi va g'amxo'rliqi ostida ijod qildi. Ammo u boylikka, hoyu-hashamga mehr qo'ymadi, oddiy, faqirona kun kechirdi” (2).

Shoir umrining asosiy qismi sharqning eng yirik ma'rifat va ma'naviyat beshiklaridan bo'lmish Bag'dodda kechdi. Muallimlik, mudarrislik bilan mashg'ul bo'ldi. Umrining oxirida u ona shahri Karbaloga qaytib keladi. 1556-yilda shaharda tarqagan vabo kasalligi Sharqning buyuk mutafakkiri Muhammad Fuzuliy ham hayotdan olib ketadi.

Fuzuliy ijodining bu qadar yuqori cho'qqiga ko'tarilishida Hazrat Navoiy she'riyati ham munosib o'rin tutadi. Buni ko'pgina Ozarbayjon adabiyotshunoslari ham e'tirof etishadi. Filologiya fanlari doktori, navoiyshunos olimi Jannat Nag'ieva yozadi: “Fuzuliyning biror bayti yo'qki, unda Hazrat Navoiyning nafasi sezilmasin”.

Fuzuliy devonidagi ilk g'azalni olib ko'raylik:
Qad anoral-ishqu lil-ushshoqi minhojil-hudo,

...Mayda tashviri harorat, nayda ta'siri sado...


(Arabcha misra mazmuni: Ishq oshiqlarga to'g'ri yo'lni yoritib turadi)

Hazrat Navoiy devonlaridan birining dastlabki g'azali ham aynan shu taxlit – ya'ni arabiy va turkiy misralar bilan boshlanadi:

Ashraqtat min ka's aksishshamsi anvoril-hudo,

Yor aksin mayda ko'r, deb jomdin chiqdi sado.

(Arabcha misra mazmuni: May kosasidan hidoyat quyoshining nurlari porlab turadi)



Fuzuliy dilbar g'azallar, dilkash ruboiylar, go'zal murabba' va musaddaslar bilan birga bir qator ahloqiy, falsafiy asarlar ham yozib qoldirgan. Uning "Matla'ul-e'tiqod", "Bangu boda", "Sihhat va maraz", "Shikoyatnoma", "Anisul-qalb", "Rind va zohid" singari asarlari shular jumlasidandir.

Biroq, Fuzuliyning bor iste'dodi, badiiy mahorati, salohiyati o'z aksini topgan asari "Layli va Majnun" dostonidir. Bu mavzu albatta, Fuzuliygacha bo'lgan davrda xalq og'zaki ijodida, ko'pgina sharq shoirlari, jumladan, Nizomiy Ganjaviy, Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon

Jomiy, Alisher Navoiy ijodida ham o'z aksini topgan. Garchi asar syujeti, voqealar rivoji avvalgi dostonlardagiga o'xshash bo'lsa-da, Fuzuliy bu asarga yangicha jon baxsh etgan, o'ziga xos tarovat, ruh bag'ishlagan. Laylini Layli bo'lib, Majnunni Majnun bo'lib kuylagan. Har bir qahramonning ruhiy kechinmalari, his-tuyg'ulari, g'am-anduhini o'ta tiniq, yorqin ifodalaydi. Navoiy va boshqa shoirlarning dostonlaridan farqli o'laroq, Fuzuliy bu dostonga o'zining bir qator g'azallarini ham qahramonlar tilidan keltirib o'tgan.

Mazkur asar muqaddimasida u arab, fors tillarida eng nafis she'rlar bitgan Abu Nuvo va Nizomiy qatorida turkiy tilning nazmiy latofatini yaqqol namoyon etgan hazrat Navoiy nomini zikr etib o'tadi.

O'lmishdi Navoiyi suxandon,
Manzuri shahanshahi Xuroson.

Mazkur doston asosida mashhur bastakor Uzayir Hojibekov 1906-yilda birinchi Ozarbayjon operasi "Layli va Majnun"ni yaratadi. Bu mashhur opera dunyoning ko'plab teatrlarida sahnaga qo'yilgan. Jumladan, o'zbek teatrlarida ham opera ixlosmandlari e'tiboriga havola etilgan.

"Fuzuliy o'zbek she'riyatidan, Navoiy, Lutfiy singari shoirlarimiz ijodidan nechog'liq bahra olgan bo'lsa, undan keyin yashab o'tgan qanchadan-qancha o'zbek shoirlari Fuzuliy dahosidan, Fuzuliy zakosidan bahramand bo'lganlar. Ayniqsa, XIX asr Qo'qon adabiy muhitida Fuzuliy an'analari yaqqol ko'zga tashlanadi. Nodira, Uvaysiy, Mahzuna, Xoniy singari shoirlar ijodida fuzuliyona ohanglarni ko'rish mumkin" (3).

Fuzuliyning:

Kimsada ruxsoringa toqati nazzora yo'x,
Oshiqi o'ldurdi shavq, bir nazari chora yo'x,-

bayti bilan boshlanuvchi g'azalga hamohang misralar otashnafas shoira Nodira ijodida ham uchraydi:

Yor kerak oshiqa, menda sevar yor yo'x,
Dardi g'amim beadam, so'rgali g'amxor yo'x.

Fuzuliy she'riyatidagi benazir nafosat, balog'at, chuqur falsafiy mushohada, go'zal tashbih va mubolag'alar asrlar bo'yi kishilarni hayratga solib keladi. Ayrim baytlar o'ta o'ynoqi, xalq tiliga yaqin, ravonligi bilan ajralib tursa, boshqa ba'zi baytlarning zamiriga yetish uchun insondan katta aql-idrok, mushohada talab etiladi. Uning mana bu mashhur baytini eslab ko'raylik:

Lahza-lahza suratin ko'rsaydim ul Shirin labing,
Sen kabi ey Besutun, men ham qaror etmasmidim.

Ya'ni, ul shirinlab yorning suratini men ham har-har zamonda ko'rib turganimda, Ey tog', men ham beqarorlikni yig'ishtirib, sendek bir joyda qaror topgan bo'lardim. Bu yerda Shirindagi bir epizodga ishora bor. Yodingizda bo'lsa, Farhod Behistun tog'ida mahbubasi Shirinning suratini chizadi. Demak, tog' har doim o'z bag'ridagi go'zal suratini ko'rib turadi. Oshiqning beqarorligi shundaki, u yordan ayru. Shu bois u shirinlab malakning suratini ko'rishga qobil Toqqa – Behistunga havas qiladi.

Yana bir baytdagi o'xshatish kishini chindan bemisl hayratga soladi.

Banikim, g'amlarim vordir, bayirin ustina qo'ysang,

Chixar kofir jahannamdin, kulub ahli azob o'ynar.

Ya'ni, oshiqning shu qadar g'ami ko'p ekanki, uni bayir – erkak tuyaning ustiga ortsa, kofir do'zaxdan chiqib, azob ahli bayram qilarkan. Bir qaraganda bu ikki holat orasidagi bog'liqlikni topish qiyin. Buning uchun shoir aytganidek, diniy bilim kerak bo'ladi. Rivoyatlarga ko'ra, payg'ambarimiz (s.a.v) dan sahobalar "Yo Rasululloh, kofirlar ham do'zaxdan chiqadimi" deb so'raganlarida, "agar tuyalar ignaning teshigidan o'tsagina, do'zaxdan chiqadi, ya'ni hech qachon chiqolmaydi", degan ekanlar.

Shoirning ushbu baytida o'sha hadisga ishora bor. Ya'ni, oshiqning g'amini ko'taraman deb, tuya ham shu qadar oriqlab, kichrayib ketadiki, hatto ignaning teshigidan o'tishi mumkin bo'lib qoladi. Shunda abadiy azobga hukm qilingan kofirlar – azob ahli ham xursand bo'lib, do'zaxdan chiqib kelishadi.

Fuzuliy g'azallaridagi yangi-yangi kashfiyotlar, hech bir oqilu dononing aqliga kelmagan muqoyasalar, ifodalar har bir nazm egasiga ulkan zavq bag'ishlaydi.

Mahshar kuni go'ram deram ul sarvqomati,

Gar onda ham go'runmasa, gel, go'r qiyomati...

Ya'ni, endi diydor qiyomatga qoldi. Ul sarvqomatni endi faqat mahsharda – qiyomatda ko'rish ilinjidaman. Agar o'shanda ham uni ko'rolmasam, haqiqiy qiyomatni o'shanda ko'rasan.

Bunday fasohatni Fuzuliyning har bir baytida, misrasida uchratasiz. Uni anglaganingiz sayin Fuzuliy she'riga, ijodiga muhabbatingiz, ishtiyoqingiz orta boradi. Uning go'zal ash'origa behad mehr qo'ygan atoqli shoirimiz Erkin Vohidov ham bir she'rda "Mening shoirligim yolg'ondur, ammo, Fuzuliy she'riga oshiqligim rost", deb yozgan.

Xullas, Fuzuliy she'riyati, uning betakror ijodi asrlar o'tsa-da, o'z ahamiyati, qadr-qimmatini yo'qotmay boraveradi. Zotan, Fuzuliy merosi uning porloq nomidek mangu va bezavoldir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. И.Хумоюн. "Фузулий даҳоси", "Ҳаёт" газетаси, 2006 йил, № 6.
2. Р.Жабборов. "Олама фош ўлди Фузулий", "Қишлоқ ҳаёти" газетаси, 2002 йил, № 12.
3. И.Хумоюн. "Фузулий", "Даракчи" газетаси, 2008 йил, № 14.

FILOLOGIYA**ATTOR VA NAVOIY TALQINIDA ROBIYA ADAVIYA SIYMOSI****UO‘K 550.41**

**Burobiya
RAJABOVA,**

O‘z FA O‘zbek tili,
adabiyoti va folklor
instituti yetakchi ilmiy
xodimi, filologiya
fanlari nomzodi,
professor.

Annotatsiya: Maqolada Farididdin Attorning “Tazkirat ul-avliyo” kitobida Robiya Adaviya haqida yozilgan 34 ta hikoyat, naql va savol-javobi hamda “Mantiq ut-tayr” dostonida bitilgan uchta hikoyati o‘rganilgan. Navoiyning “Hayrat ul-abror” dostonining “Ibrohim Adhamning Ka’bag’a namoz bila borg‘oni va Robiya Adaviyaning Ka’baga niyoz bila kelgani” nomli XXV bobi hamda “Nasoyim ul-muhabbat” tazkirasining unga bag‘ishlangan “Robiya Adaviya r. t.” fiqrasi tahlil va talqin qilingan. Qiyosiy aspektda esa Abdurahmon Jomiyning “Nafohat ul-uns min hazorat il-quds-” tazkirasida 618 nafar shayx, orif insonlar qatorida tilga olingan Robiya haqida yozilgan “Robiya Adaviya, rahimahallohu taolo” fiqrasiga murojaat qilingan.

Аннотация: В статье рассматриваются 34 рассказа, повести и вопросы-ответы, написанные о Рабии Адавии в книге Фаридиддина Аттарра «Тазкират уль-Аулийа», а также три рассказа, написанные в эпосе «Мантик ут-Тайр». Глава XXV эпоса Навои «Хайрат ул-Аброр» под названием «Ибрахим Адхам пришел к Каабе с молитвой и Рабия Адавия пришла к Каабе с молитвой» и посвященная ему глава «Насаим ул-Мухаббат» «Рабиа Адавия р. т.» фикра анализируется и интерпретируется. В сравнительном аспекте тазкира Абдуррахмана Джамии «Нафохат ул-унс мин хазарат иль-кудс-» о Рабийе, упомянутой среди 618 шейхов и ученых людей, был обращен к фикру «Рабийа Адавийя, рахимахаллаху та’ала ары влияние, мушаракизм, а также отдельные аспекты характера Рабии Адавии Аттар и Навои.

Annotation: The article examines 34 stories, narratives and questions and answers written about Rabia Adavia in Attar’s book “Tazkirat ul-Awliya” and three stories written in the epic “Mantiq ut-Tayr”. Chapter XXV of the Navoi’s epic “Khairat ul-Abror” entitled “Ibrahim Adham came to the Kaaba with prayer and Rabia Adavia came to the Kaaba with prayer” and the chapter dedicated to him “Nasaim ul-Mukhabbat” “Rabia Adavia r. t.” fikra is analyzed and interpreted. In

the comparative aspect of Abdurrahman Jami's tazkira "Nafohat ul-uns min hazarat il-quds-" about Rabiya, mentioned among 618 sheikhs and learned people, was addressed to the fikr "Rabiya Adaviyya, rahimahallahu ta'ala." In general, the article highlights issues and problems related to tradition and literary influence, musharakism, as well as specific aspects of the character of Rabia Adavia Attar and Navoi.

Kalit soʻzlar: *Islom olami, soʻfiy ayol, doston, tazkira, mushtaraklik, tasavvufona hayrat, mavʻiza, tasvir va talqin, uslub.*

Ключевые слова: *Исламский мир, суфийская женщина, эпос, тазкира, община, поклонение мистике, сюжет, образ и интерпретация, стиль.*

Key words: *Islamic world, Sufi woman, epic, tazkira, community, worship of mysticism, plot, image and interpretation, style.*

Islom olamida mashhur shayxlar, orif insonlar haqida bitilgan adabiy va tarixiy manba yoki tazkiralarda keltirilgan maʼlumot, xabar, fiqra, lavhalarda koʻproq mashhur soʻfiy ayol Robiya Adaviya nomi zikr qilinganini koʻramiz. Oʻqib-oʻrganishimizga koʻra, Robiya haqidagi eng koʻp va batafsil yozilgan maʼlumotlar Farididdin Attor qalamiga mansub boʻlib, asosan uning “Tazkirat ul-avliyo” kitobida berilgan. “Mantiq ut-tayr” dostonida ham Robiya toʻgʻrisida bir-biridan ibratli uchta hikoyat bitganini koʻramiz. Fikrimizcha, Abdurahmon Jomiyning “Nafahot ul-uns” va Navoiyning “Nasoyim ul-muhabbat” tazkiralarda yozilgan Robiya xususidagi fiqrani maʼlum maʼnoda “Tazkirat ul-avliyo” kitobidan taʼsirlanib hamda unumli foydalanib yozilgan, degan xulosaga kelishimiz ham mumkin.

Mazkur maqolani yozish jarayonida biz vikipediya maʼlumotlariga ham qiziqib koʻrdik va shuni aniqladikki, Robiya Adaviyaning hasbi holi vikipediyada koʻproq Attor maʼlumotlaridan foydalangan holda yoritilgan ekan va unda Attor nomi eʼtirof bilan tilga olingan.

Robiya al-Adaviya – shoira, adiba, faylasuf, soʻfiy ayol sifatida ham talqin qilinadi. Manbalarda u Robiya al-Adaviya, Robiya, Robiya Adaviya, al-Qaysiya, al-Basriya deb tilga olinadi. U Basrada hijriy 713-yilda tugʻilgan va 801-yilda vafot etgan. Hayotining katta qismi Basrada oʻtgan. Basra tarixi hamda tasavvuf maktabining taniqli namoyandasi sifatida ham oʻrganiladi.

Robiya qashshoq arab oilasida tugʻilib, choʻri qilib sotilgan. Keyinchalik xudojoʻyligi, zohidlarga xos turmush tarzi va darvishlar odobiga (Husayn Voʻiz

Koshifiy “Futuvvatnomai Sultoni” kitobida darvishlar odobi haqida maxsus bob yozgan) ixlos bilan rioya qilgani va yuksak zakovati sabab ozodlikka chiqarilgan. Bu haqda Attor o‘z tazkirasida bir hikoyat yozgan hamda Robiyaning hojasidan dadillik bilan dastur, ya’ni qullikdan ozod bo‘lgani to‘g‘risidagi rasmiy hujjat – ozodlik xatini so‘raganini bayon qilgan: “Bir kecha hoja uyg‘ondi. Qulog‘iga bir un (ovoz) keldi. Robiyaning darchasidan qaradi. Ko‘rdiki, Robiya boshini sajdaga qo‘yib, Ollohga munojot qilab, aytardi:

– Iloho, senga ma’lumki, men ko‘nglimni tamoman senga bog‘ladim. Ammo nima qilayin, meni bir mahluq ixtiyorida qilibsan. Agar ixtiyorim o‘zimda bo‘lsa edi, sening toatingdan o‘zga ishga mashg‘ul bo‘lmas erdim.

...Tong otgach, Robiyani chaqirib, ko‘p uzrlar so‘radi. Va xalqni chaqirib, Robiyani ozod qildi. Robiya dedi:

– Endi menga dastur bergin!

Hojasi ruxsat berdi, Robiya undan ketib, o‘ziga bir ibodatxona qilib oldi va ibodatga mashg‘ul bo‘ldi”.¹

Robiya bir necha yil sahroda yolg‘izlikda kun kechirgan, keyin esa yana Basrada yashagan. Robiya Adaviya Ollohni sevishdan boshqa jamiki narsalarni rad etgan, ma’lum ma’noda u zohidlikning ilk vakilasi hisoblanadi. Robiya jannatdan umidvor bo‘lib yoki do‘zaxdan qo‘rqib bandalik qilishni emas, balki Ollohga ta’masiz toat-ibodat qilish tarafdori bo‘lgan. “U olg‘a surgan ezgu g‘oyalar keyingi avlod so‘fiylari orasida keng tarqalib, Sulton Boyazid Bistomiy, Mansur Halloj, Ibn Farid, Ibn Arabiy va boshqa so‘fiylar ta’limotining asosini tashkil etgan. Robiya Adaviyaga taqvodorlik, Ollohni sevish namunasi deb qaralib, avliyo sifatida ham ulug‘langan”.²

Robiya Yevropada ham Robiya-Basriya nomi bilan mashhur bo‘lgani aytiladi. Qizig‘i shundaki, ular ham ko‘proq Attor ma’lumotlariga murojaat qilishgani anglashiladi.

Misr Arab Respublikasida Robiya Adaviya haqida 1962-yilda badiiy film ishlangan. Filmida uning sharafiga bag‘ishlab yozilgan ta’sirli qo‘shiqni Misrning taniqli lirik xonandasi Ummu Qulsum mahorat bilan ijro etgani gapirilgan.³

Endi Attorning Robiya shaxsiga qiziqishi bilan bog‘liq ma’lumotlar haqida gapiradigan bo‘lsak, ularni quyidagicha tasnif qilib o‘rganish maqsadga muvofiq. Birinchidan, Attor “Tazkirat ul-avliyo” kitobida Robiya haqida 34 ta hikoyat, naql

¹ Fariddin Attor. Tazkirat ul-avliyo. – Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012. 82-bet.

² https://uz.wikipedia.org/wiki/Robia_al-Adaviya; O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. 12 jildlik. 7-jild. Toshkent, “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2004. 341-bet.

³ https://uz.wikipedia.org/wiki/Robia_al-Adaviya.

va savol-javob yozgan.¹ Ularda soʻfiy ayolning ota-onasi, tugʻilishi, bolaligi, qul qilib sotilishi, qullikdan ozodlik xati bilan qanday qutulgani, yoshlik davri, holat va maqomoti, karomatlari, malomatlari, haj safari tasviri, aytgan hikmat, mavʼizalari, zamondoshlari, musohiblari va vafoti haqida qimmatli maʼlumotlar yozilgan. Umuman olganda, Robiyaning tugʻilishidan to vafoti tafsilotlari bayon qilingan. Ikkinchidan esa “Tazkirat ul-avliyo”da zikr qilingan yoki alohida fiqra bitilgan Ibrohim Adham, Hasan Basriy, Zunnun Misriy kabi shayxlar tasvirida ham Robiya nomi maʼlum maʼnoda ibrat namunasi oʻlaroq yodga olinganini koʻramiz.

Oʻquvchilarni qiziqtiradigan, yaʼni Robiya nima uchun avliyolar haqidagi kitobda erkaklar qatorida zikr qilinadi degan savolga Attor Muhammad s.a.v. soʻzlarini, Navoiy esa Shayx Muhyiddin Arabiy va Shayx Abdurahmon Sulamiy fikrlarini dalil qilib keltirib, aniq javob berishgan, quyida ularga birma-bir toʻxtalamiz. Chunonchi, Attor yozadi: “U xoslar guruhidan boʻlgan ixlos masturasi, ishq va ishtiyoqda kuygan, yaqinlik va ehtirosga oshufta edi.

Agar Robiya Adaviyani erkaklar orasida zikr qilinganining sababini soʻrasalar, unga javob shuki, Paygʻambar buyurubdurlar:

– Oллоh sizlarning suratlaringizga boqmas, balki koʻngillaringizga boqar!”².

Navoiy “Nasoyim ul-muhabbat” tazkirasining “Erkaklar martabasiga yetgan orif ayollar zikri”da quyidagi maʼlumotni keltirilgan: “Shayxi buzurgvor Shayx Muhyiddin Arabiy q.s. “Futuhoti Makkiy”ning yetmish uchinchi bobida, andin soʻngraki, rijolulloh tabaqotindin baʼzini zikr qilibdur, debdurki, (biz zikr etgan bu toifadagi kishilarning barchasini rijol-erkaklar deb ataymiz. Shuningdek, ular ichida ayollar ham bor, lekin erkaklarning soni koʻp. Baʼzi kishidan soʻradilar: Abdollar necha nafardirlar? Aytti: Qirq kishi. Unga aytdilar: Nega qirqta erkak demaysan? Aytti: Ular ichida ayollar ham boʻladi. Shayx Abdurahmon Sulamiy “Tabaqoti mashoyix”ning sohibi r.t. “Nisvat un-obidot va niso un-orifot ahvoli” zikrida alar haddihi kitobe jamʼ qilibdur va alardin koʻpining ahvoli sharhiya bayongʻa keltirubdur.

Ibrohim Adham va Robiyaning Kaʼbaga safari masalasi aynan Attorning “Tazkirat ul-avliyo”, “Mantiq ut-tayr” va Navoiyning “Hayrat ul-abror” dostonida mushtarak tarixiy hodisa sifatida yoritilganini koʻrishimiz mumkin. Robiyaning turmushga chiqmaganligi haqida faqat Attor “Tazkirat ul-avliyo”da ikkita naqlda keltirgan, ammo Navoiy bu masalaga diqqat qaratmagan. Demak, bu masala yuzasidan Attorga murojaat qilamiz, u yozadi: “Naqldurki, shayx Hasan Basriy bir kuni Robiyaga:

¹ Фаридиддин Атор. Тазкират ул-авлиё. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2012. 79-96-бетлар.

² Фаридуддин Атор. Тазкират ул-авлиё, 79-бет.

-Hech zabting va mayling bo'lsa, seni bir kimsaga erga bergaymiz, – dedi.

Robiya dedi:

– Nikoh vujud uzra durust bo'ladi. Menda esa vujuddan biror asar yo'q, yo'q narsaga nikoh qanday bo'ladi?

Shayx dedi:

– Yo'qlikni qanday topding?

Robiya dedi:

– O'zimni o'zim yo'q qilishdan topdim!"¹

Manbalarda Robia Adaviyaning buyuk siymosi va olijanob fazilatlariga haqida e'tiroflar, iliq gaplar juda ko'p. Attor "Mantiq ut-tayr" dostonida ham Robiya haqida "Robiyaning yetti yil yurib Makkaga borgani"², "Robiyaning ip igirib sotgani"³, "Robiyaning Haqqa iltijosi"⁴ kabi uchta hikoyat yozgan. Mazkur hikoyalarning bosh g'oyasi shuki, banda qilcha bo'lsa ham gunoh qilmasligi, o'z mehnati bilan kun ko'rishi va faqat ixlos bilan yaxshi amallar qilishi lozim. Shu o'rinda "Mantiq ut-tayr" dostonining mohir tarjimonlari O'zbekiston xalq shoiri J.Kamol va professorlar N.Komilov, M.Mahmudovlarning yuksak xizmati borligini eslash joiz deb bildik. J.Kamol "Mantiq ut-tayr" yozilgan she'riy usulda, ya'ni masnaviyda tarjima qilgan. N.Komilov va M.Mahmudov "Mantiq ut-tayr"ni nasriy bayonda qilgan tarjimada "Robiyaning yetti yil yurib, Makkaga borgani" nomli hikoyat ham nasriy bayonda berilgani kishini quvontiradi.

Nasriy bayonda "Robiya Adaviya va uning haji" deb nomlangan bo'lsa, J.Kamol tarjimasida esa "Robiyaning yetti yil yurib, Makkaga borgani" tarzida nomlangan va kitobda qiziqarli, ibratli hikoyat sifatida talqin etilgan. Hikoyatning bosh qahramoni Robiya Adaviyaning o'zi va haj safari voqealari, Hotifga qilgan murojaati xususidadir.

Demak, biz birinchidan, hikoyat mazmunini teranroq anglash niyatida "Robiya Adaviya va uning haji" nomli nasriy bayonni ham o'rgandik, ikkinchidan esa tarjimonlarning she'riy hamda nasriy usuldagi tarjima mahorati bilan yaqindan tanishish imkoniyatiga ham ega bo'ldik".⁵

Endi mazkur avliyo ayol siymosi haqidagi qiziqishlarimizni Navoiy asarlari bilan bog'lab talqin qilsak, unda Robiya Adaviya haqida ham lirik, ham nasriy usulda berilgan qimmatli tarixiy ma'lumot va tasvirlarni o'qiymiz. Alisher Navoiy Robiya Adaviyaning shaxsi, islomning ma'rifiy olamidagi yuksak maqomi, o'rni va muallif o'zigacha ijob qilgan tazkiranavislarning Robiya shaxsi

¹ Fariddin Attor. Tazkirat ul-avliyo, 87-bet.

² Fariddin Attor. Mantiq ut-tayr (Forschadan J.Kamol tarjimasi). – Toshkent: Fan, 2006. 153-154-betlar.

³ Fariddin Attor. Mantiq ut-tayr, 182-bet.

⁴ Fariddin Attor. Mantiq ut-tayr, 272-bet.

⁵ Fariddin Attor. Mantiq ut-tayr. Nasriy bayon. (Forschadan N.Komilov va M.Mahmudov tarjimasi). Toshkent: G'ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2006. 93-94-betlar.

haqida bitilgan ayrim tarixiy ma'lumotlar, poetik lavhalarga katta qiziqish bildirganini ko'ramiz. Demak, Robiya to'g'risidagi ma'lumot Navoiyning "Hayrat ul-abror" va "Nasoyim ul-muhabbat" kabi asarlarida uchraydi. Ma'lumki, Navoiy "Hayrat ul-abror" dostonining ba'zi boblarini Nizomiy Ganjaviy, Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy, Sulton Husayn Boyqaro, Ibrohim Adham, Faxri Roziy, Bahovuddin Naqshbandiy va Xoja Ahrori Valiy kabi buyuk zotlar sharafiga bag'ishlab yozgan. Ushbu ulug' shaxslar haqidagi ma'lumotlarni o'qib-o'rganar ekanmiz, biz Robiya Adaviya haqida ham mazkur dostonda Ibrohim Adham nomi bilan birga, ya'ni bir bob syujetida yozilganini kuzatdik. Navoiy "Ibrohim Adhamning Ka'bag'a namoz bila borg'oni va Robiyai Adaviyag'a Ka'baning niyoz (1. Yolvorish, o'tinish, umid; 2. Ehtiyoj, muhtojlik.¹) bila kelgani"² nomli XXV bobda Robiya ruhining kengligi, Ollohga yaqinligi, Uhud tog'icha saboti, sabri, matonati, eng muhimi, Ollohnin yolg'iz – farida, jarida izlashi, Makka, Madina tomon yolg'iz, oyoqyalang holda qilgan haj safari, Olloh yo'lidagi niyozi, iltijosi bilan bog'liq hayot yo'li qisqa shaklda lirik lavhada tasvirlab berilgan. Bobning avvalida Robiya Adaviya nomi tilga olinmagan. Bobning 1-6-baytlarida Ibrohim Adhamning o'n to'rt yilda har qadamda joynamoz solib ikki rakat namoz o'qishi bilan bog'liq tasvir berilgan. Go'yo uning bu harakatiga bodiyada o'suvchi har bir giyoh madh qilar edi. Navoiy Hotif tilidan Ibrohim Adhamni "Piri roh" deb tanishtiradi. Xullas, "Ibrohim Adhamning Ka'bag'a namoz bila borg'oni va Robiyai Adaviyag'a Ka'baning niyoz bila kelgani"³ nomli bobida o'qiymiz.

Bobning 7-baytida Robiyani Hotif Ibrohim Adhamga muhabbat yukidan "qaddi go'z" bir ajuza deb tanishtirgan. Qizig'i shundaki, Navoiy lirik usulda yozilgan asarlari matnida keksalarning egilgan qomatini odatda *dol* yoki *zol*ga nisbat bergan. Ammo yuqorida aytganimizdek, Robiyaning muhabbat yukidan egilgan qomatiga nisbatan *dol* yo *zol* timsoli ishlatilmagan, aksincha, *go'z* noodatiy sifatlash bilan tasvirlangan. Shundan so'ng Ibrohim Adham va Robiya Adaviya o'rtasida kechgan dialogi berilgan. Bu o'rinda *dedikim*, *dedi angakim*, *dedi* shaklida Navoiy poetik nutqning dialog usulidan unumli foydalangan va dialog vositasida muallif har ikki orifning keng ruhi, metindek irodasi, arzi holi, namoz va niyoz bilan bog'liq niyatlari yuksak pafos, ko'tarinki kayfiyat, tasavvufona hayrat bilan tasvirlangan. Muhimi, bobni Navoiy sodda tilda va xalqona usulda bayon qilishga harakat qilgan. Muallif o'ziga xos navoiyona uslub, mahorat bilan joh-iloh, hasham-qadam, sajdasoz-namoz, yil-til, iloh-roh,

¹ Шамсиев П. Иброҳимов С. Алишер Навоий асарлари луғати. – Тошкент: Фан, 1972. 450-бет.

² Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аброр. МАТ. 7-жилд. – Тошкент: Фан, 2001. 118-120-бетлар.

³ Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аброр, 119-бет.

ajuz-go‘z, notavon-ravon, voqea-Robiya, sho‘r-zo‘r, ranj-ganj, bo‘l-yo‘l, noz-niyoz shaklida tuzgan qofiyalari bobning tasavvufona mohiyati va mazmunini ochishga hamda qahramonlar ruhiyatini to‘liqroq yoritishga xizmat qilgan. Shu o‘rinda barcha musulmonlar uchun farz qilingan rasmiy beshta islomiy shart xususida biroz gapirsak. Ya’ni, Shahodat, Namoz, Zakot, Ro‘za, Haj kabi beshta shartni eslashimizdan maqsad shuki, Navoiy Robiya Adaviya Ka’bai Muazzamaga mazkur rasmiy beshta shartsiz, faqat Ollohga to‘la ko‘ngli, umidi bilan intilganini, Ibrohim Adham esa mazkur beshta shartning ikkinchisi, ya’ni namoz bilan harakat qilganini tasvirlagan. Yuqorida aytganimizdek, bob avvalida Navoiy Ibrohim Adhamni tilga olgan. Robiya Adaviyani dastlab uning Ka’bani izlashi bilan bog‘liq lavhada esga olgan. O‘quvchiga voqea tushunarli bo‘lishi uchun bobning Robiya bilan bog‘liq matnini to‘liq berishga harakat qildik. Chunonchi:

“ Bodiya qat’ig‘durur bir ajuz,
 Shavqu muhabbat yukidin qaddi go‘z.
 Za’fdin ul bo‘lmish edi notavon,
 Ka’ba aning tavofig‘a bo‘ldi ravon”.
 Ayladi hayron ani bu voqia,
 Boqsa keyin ko‘rdi kelur Robiya.
 Dedikim: “Ey, Arsh matofing sening,
 Ka’ba qilib azmi tavofing sening.
 Ko‘rki jahon ichra solibsen ne sho‘r”.
 Robiya dedi angakim: “Qilma zo‘r,
 Sho‘r seningdur bori olamda bil,
 Bodiya qat’i uchun o‘n to‘rt yil”.
 Dedi: Bir ohimki: “Ey pokrav,
 Balki malak xaylidek aflokrov.
 Nedin ekin buki manga yetti ranj,
 Men chekibon ranju sanga bo‘ldi ganj.
 Robiya dedi anga: “Ogoh bo‘l,
 Kim, necha yil bodiyada borcha yo‘l.
 Bo‘ldi ishing arzi namoz aylamak,
 Sheva manga arzi niyoz aylamak.
 Sanga samar berdi namozu riyo,
 Bizga bu bar berdi niyozu fano”.¹

¹ Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аброр., 120-бет.

Bob xulosasini Navoiy o'ziga va soqiyga qilgan murojaat bilan yakunlashga harakat qilgan:

Boqma, Navoiy, yana noz ahlig'a,
Arzi niyoz ayla niyoz ahlig'a.
Soqiy, olib kel qadahu qilma noz,
Ko'rki, ne mushtoqdur ahli niyoz.
Ber to'lakim, ichsun ani bir harif,
Xossa mangakim, boridin men zaif.”¹

Ko'rinadiki, bob xulosasida Navoiy murojaat badiiy san'atidan san'atkorona foydalangan, bayt oxirida radifdan avval noz-niyoz va radifsiz baytda ham noz-niyoz tarzida qofiyalar yaratgan. Ushbu qofiyalardan anglashiladiki, ulug' Navoiy Robiyaning hech qanday rasmiy shartlarsiz faqat niyoz, muhtojlik, yolvorish bilan qilgan hajiga hayrati, ixlosi baland bo'lgan hamda shoir o'z nafsini kasr bilib, “Ber to'lakim, ichsun ani bir harif, Xossa mangakim, boridin men zaif” deb shikastalik, kamtarlik va sokinlik bilan yakunlagani ibratga, maqtovga loyiq. Navoiy lug'aviy ma'nosida yor, hamsuhbat, hamkor, hamnishin, raqib kabi ma'nolarni bildiruvchi harif² so'ziga diqqat qilsak, bu bob yakunida Navoiy harifni obraz sifatida qo'llagan va qadahdagi nasibani yori, hamsuhbatiga hadya qilgan. O'zini hayotda juda kam uchraydigan Robiya kabi ahli niyozlarga mushtoqligini aytgan.

Alisher Navoiy “Hayrat ul-abror”da Robiya Adaviyaga bag'ishlangan bob bilan cheklanib qolmagan, u keyinchalik katta zahmat bilan 770 avliyo, orif insonlar, so'fiylar haqida ma'lumotlar to'plab “Nasoyim ul-muhabbat” asarini yozar ekan, asar so'ngida 35 nafar so'fiy, shayx ayollarga qisqa tarzda alohida fiqralar bitgan. 35 nafar so'fiy ayol haqidagi ma'lumot Robiya Adaviyaga bag'ishlangan fiqra bilan boshlanadi. Fiqrada Navoiy Robiya Adaviyani Basra shahridan ekanini aytgan va uning Sufyon Savriy bilan qilgan suhbatini berilgan. O'zaro suhbatda ikki orifning olam, salomatlik, tarki dunyo, dunyo va oxirat, tiriklik sharti, anduh, haqiqat, tariqat, ma'rifat, tavba singari masala va mav'izotlar ochiqqlangan. Fiqrada ham Navoiy Robiya shaxsini ochib berishda poetik nutqning dialogik usulidan maqsadli foydalangan. Chunonchi: “Robiayi Adaviya r.t. Basra ahlidin erdi. Sufyon Savriy r.a. andin masoil so'rar erdi va aning mav'izotu duosig'a rag'bat ko'rguzur erdi. Bir kun Sufyon Robia q.s. qoshig'a kirdi va ilig ko'tarib dediki, “Allohim, sendan salomatlik so'rayman”¹. Robiya yig'ladi. Sufyon so'rdiki, ne uchun yig'lading? Robiya dediki, sen meni

¹ Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror, 120-bet.

² Фарҳанги забони тоҷики.. Том 2. – М.: СЭ., 1969. Стр. 733.

yig‘latding! Sufyon dedi: Nechuk? Robiya dediki, salomat dunyoda aning tarkidadur va sen dunyoga oludasen. Robiya so‘zidurki, har nimaga samaradur va ma‘rifat samarasi yuzni Tengriga kelturmakdur. Va ham ul debdurki, “oz sidq ila astag‘firulloh demoqlikdan astag‘firulloh deyma”). Sufyon andin so‘rdiki, banda Tengri taolog‘a taqarrub tilar nimalardin yaxshirog‘i qaysidur? Ul dedi, uldurki, bilgayki, dunyo va oxiratda andin o‘zgani sevmas. Bir kun Sufyon aning qoshida dediki, “vo alamo!”. Ul dedi: “yolg‘on aytma, agar sen mahzun bo‘lsang erdi, tiriklik senga xushguvor bo‘lmag‘ay erdi”. Va ham ul debdurki, “anduhim andin emaski, anduhingdurmen. Anduhim andindurki, anduhgin emasmen!”.¹ Fiqrada Navoiy Robiyaning nutqida “astag‘firulloh” haqidagi mav‘izasini keltirganki, bu mav‘iza Attor ma‘lumotlarida uchramaydi. Jomiy tazkirasining davriy nashrida mazkur mav‘iza arab va fors tilida ham yozilgan. Ya‘ni: “Va ham vay gufta: “Astag‘firulloh min killati sidqi fi astag‘firulloh” (Xudoro mag‘firat mepursam az kamii sidq dar istig‘foram).”² Navoiy tazkirasining davriy nashrida duoning arab tilida bitilgani aks etmagan. U yozadi “Va ham ul debdurki, “oz sidq ila astag‘firulloh demoqlikdan astag‘firulloh deyma”.

Ko‘rinadiki, tavba bilan bog‘liq “Astag‘firulloh min killati sidqi fi astag‘firulloh” duo mazmuni ham tojikcha, ham o‘zbekcha tarjimada mahorat bilan saqlangan. Robiya Adaviya haqidagi mazkur ma‘lumotni biz Jomiyning “Nafahot ul-uns” tazkirasida ham o‘qishimiz mumkin. Robiyaning Sufyon Savriy bilan qilgan ma‘rifiy suhbatini Attorning “Tazkirat ul-avliyo” kitobida ham mavjud bo‘lib, mavzu va mazmunda farq qiladi.

Xulosa shuki, agar biz maqolaning mavzu doirasidan kelib chiqib, islom olamida mashhur so‘fiy ayollar tarixiga nazar tashlasak, Robiya Adaviya haqidagi batafsil ma‘lumot Farididdin Attorning “Tazkirat ul-avliyo” asarida uchraydi. Attor Jomiy va Navoiyga nisbatan u haqda juda keng ma‘lumot yozgan, hatto unga zamondosh bo‘lgan Hasan Basriy bilan bog‘liq voqealar tafsilotini ham yoritgan. Masalan, Hasan Basriy oqayotgan daryo suvi ustiga joynamozni to‘shab, ikki rakat namoz o‘qigani va Robiya o‘z joynamozini havoga tashlab, ustiga minib unga tanbeh aytgan voqeasi ham qayd etilgan va maqsad bu emasligi Robiya tilidan bayon qilingan:

– Ey ustoz, sening bu qilgan ishingni bir baliq ham qilur, mening qilganimni pashsha ham qilur. Bulardan ish bo‘lmas, yaxshi ish amal qilmoqdur”³.

Umuman olganda, ko‘plab buyuk ijodkorlar Robiya obraziga murojaat qilishgan va o‘zlarining hayratini maroq bilan tasvirlashgan.

¹ Alisher Navoiy. Nasoyim ul-muhabbat. MAT. 17-jild. – Toshkent: “Fan”, 2001. 482-483-betlar.

² Mavlono Nuriddin Abdurahmon Jomiy. Nafohat-ul-uns min hazorat-ul-quds – Dushanbe, “Payvand”, 2013. S. 754-755.

³ Fariduddin Attor. Tazkirat ul-avliyo, 86-bet.

FILOLOGIYA

AFG‘ONISTONDA NAVOIYSHUNOSLIK



Azizullah AROL,

**A.Navoiy nomli
Toshkent davlat O‘zbek
tili va adabiyoti
universiteti dotsenti.
Filologiya fanlari
bo‘yicha falsafa doktori**

UO‘K 574.510

Annotatsiya: Afg‘onistonning shimoliy qismida katta miqdorda o‘zbeklar yashab kelmoqda. Ular Alisher Navoiy ijodiga hudud nuqtai nazaridan ham yaqin bo‘lib, bu o‘lkada Navoiy bilan bog‘liq ko‘plab obidalar mavjud. Ushbu hudud xalqi orasida Navoiyga ergashib she‘r yozish ayni zaminda azaldan mavjud. Afg‘oniston navoiyshunosligi keyingi salkam bir asr mobaynida alohida yo‘nalishga aylana boshlagan va ayni yo‘nalishda olimlar, shoirlar faoliyat olib boradilar. Maqolada ularning ilmiy ishlari va nashrlari haqida ma‘lumot beriladi.

Аннотация: Большое количество узбеков проживает в северной части Афганистана. В территориальном плане они также близки к произведениям Алишера Навои, и памятников в этой стране немало, связанных с Навои. У народов этого региона сочинение стихов вслед за Навои существовало с незапамятных времен. В течение следующего столетия Навоийский ученый Афганистана стало выделяться в отдельную область, и в этом же направлении работают ученые и поэты. В статье представлена информация об их научных работах и публикациях.

Annotation: large number of Uzbeks live in the northern part of Afghanistan. In territorial terms, they are also close to the works of Alisher Navoi, and there are many monuments in this country associated with Navoi. Among the peoples of this region, writing poetry after Navoi has existed since time immemorial. Over the next century, the history of Afghanistan began to stand out as a separate area, and scientists and poets work in the same direction. The article provides information about their scientific work and publications.

Kalit so‘zlar: Afg‘oniston, Alisher Navoiy, adabiy meros, she‘riyat.

Ключевые слова: Афганистан, Алишер Навои, литературное наследие, поэзия.

Key words: Afghanistan, Alisher Navoi, literary heritage, poetry.

2023-yil 7-fevral kuni Afg‘onistonning Mozori Sharif shahrida tasviriy san‘at tilida barelef deb ataluvchi xalqimizning buyuk vakili Alisher Navoiy devoriy tasviri haykali noma‘lum kishilar tomonidan buzib tashlandi[1]. Mozori Sharif aholisining mahalliy ommaviy axborot vositalariga yo‘llagan suratlaridan

shuni ko‘rish mumkinki, hozirgi hukumat davrida Navoiy pannosidagi shoir tasviri buzilib, o‘rni suvoq qilingan. Navoiy tasviri bo‘lgan joyning yon tomonidagi toshga yozilgan matnga ham zarar yetkazilgan. Mana shu toshbitikdagi Navoiy tasviri bo‘lgan o‘rtadagi joyning ikki tomonida dariy, o‘zbek va ingliz tillarida Navoiyning hayot yo‘li va u amalga oshirgan ishlar to‘g‘risidagi matnlar mavjud bo‘lgan.

Navoiy yashagan davr –XV asrdan so‘nggi yillarga qadar Afg‘oniston zaminidagi Navoiyga bo‘lgan munosabat va uning Afg‘oniston o‘zbeklari va Sharq ma‘naviy hayotidagi o‘rni katta bo‘lgan. Afg‘oniston o‘zbeklari va ularning tarixi haqida muayyan nashrlar amalga oshirilgan[2]. Ammo bizni Navoiy ijodiga munosabat tarixi, Afg‘onistondagi navoiyshunoslik ko‘proq qiziqtiradi. Shu boisdan mazkur maqolada Afg‘onistondagi Alisher Navoiy bilan bog‘liq moddiy va madaniy tarixga, Navoiy shaxsiyatiga bo‘lgan munosabatga nazar tashlaymiz. Afg‘onistondagi navoiyshunoslik tarixi va nashrlari salmog‘i katta miqdorni tashkil etmasa-da, muayyan ishlar amalga oshirilgan[5].

Alisher Navoiyning Afg‘onistondagi izlarini avvalo u qurdirgan yoki vujudga kelishiga aloqador obidalaridan izlash va ular bo‘yicha tadqiqotlar olib borish kerak bo‘ladi. Mazkur yo‘nalishda ba‘zi tadqiqotlar mavjud, ammo ularni hali davom ettirish lozim [3]. Bunday inshootlar Afg‘oniston, hatto hozirgi Eron territoriyasida ham mavjud. Shu ma‘noda Temuriylar davri me‘morchiligi Navoiy nomi bilan chambarchas bog‘liq. Bunday yodgorliklar Hirot, Balx, Mashhad yoki Xurosonning boshqa hududlarida mavjud bo‘lib, barchasi birdek e‘tiborgamolik.

Olimlarning fikricha, aslida Navoiy 1001 ta obida qurishni niyat qilgan, lekin hozirgacha turli manbalarda 366 tadan ko‘proq yodgorlik nomi tilga olinadi. Shu jumladan, ayrim manbalarda faqat 15–20 obidaning nomi keltirilgan, xolos. Afg‘onistonlik navoiyshunos Amin Hiraviy fikricha, Navoiy harakatlari asosida Xurosonning sahro va dashtlari, shaharu qishloqlarida bunyod etilgan masjid, madrasa, karvonsaroy, bog‘, hovuz hamda ko‘priklar sonini qayd etish va tasvirlash murakkab bir ishdur.

Aynan, Navoiyning haykali chilparchin qilingan Mazori Sharif shahriga diqqatimizni qarataylik. Navoiy tashabbusi va ishtiroki asosida qurilgan yodgorliklardan eng mashhuri Balx viloyatining Mozori Sharif shahridagi Hazrat Ali maqbarasi (ziyoratgohi) bo‘ladi. Hazrati Aliga nisbat beriladigan bu maqbara majmuasi xalq orasida “Ravzah” yoki “Ali ziyoratgohi” deb ham ataladi. Ushbu majmua texnik va qurilish nuqtai nazaridan turli imkoniyatlarga ega bo‘lib, unda 21 ta hujra, 8 darvozali bog‘, 5 eshikli hovli, shuningdek, madrasa, kutubxona, tahoratxona, masjid va muzey mavjud.

Afg‘oniston hududida salkam yarim asrdan beri davom etib kelayotgan notinchlik bu mamlakatda erkin ilmiy faoliyat olib borish imkoniyatini cheklamoqda. Navoiyga aloqador obidalarni o‘rganish imkoniyati nisbatan afg‘onistonlik olimlar zimmasida turibdi [3].

Ma‘lumki, Alisher Navoiy hozirgi Afg‘oniston hududida joylashgan qadimgi Hirot shahrida dunyoga keldi, shu yerda voyaga yetdi, ijod etdi. Dunyodan ko‘z yumganidan so‘ng shu yerga dafn etildi. Tili va o‘zi o‘zbekniki,

tafakkuri olamniki bo'lgan Navoiy hayoti va ijodi o'z yurtida muayyan darajada o'rganib kelinadi. Gap shundaki, Navoiy hirotlik bo'lishiga qaramay, aksariyat navoiyshunoslar o'zbekistonlikdir.

Afg'onistonda Alisher Navoiyni o'rganish yohud navoiyshunoslik uzoq tarixga ega emas. Matbuotda Navoiy ismi ilk bor 1950-yillardan keltirila boshlandi. Unga qadar Navoiy asarlarining eski yozuvdagi nusxalari faqatgina xonadonlarda va uy maktablaridagina o'qilgan. Ayrim shoirlar tomonidan Navoiy g'azallariga yozilgan muxammaslar yohud boshqa ko'rinishdagi she'rlar yaratilgan bo'lsa-da, nashr bo'lmagan. Aslida Afg'oniston tarixida o'zbek tilida chop etilgan birinchi asar bu Husayniy taxallusi bilan she'r yozgan Temuriy hukmdor Sulton Husayn Boyqaro (1469–1506)ning she'riy devonidir. Afg'onistonda birinchi bosmaxona 1869-yili shoh Amir Sheralixon davrida tashkil topgan. Husayniy devoni ayni bosmaxona tashkil etilganidan 94 yil o'tib, 1963-yili nashr qilingan. Navoiy hayoti va ijodiga bag'ishlangan dastlabki to'plam 1967-yili Afg'onistonda nashr qilingan [4].

1978-yilda so'lhilar tomonidan Afg'onistonda sodir etilgan inqilobdan keyin o'zbekcha yozuvdagi matnlarni nashr qilishga kengroq yo'l ochildi.

Umuman olganda, ana shu 1960-yillardan boshlab Afg'onistonlik olimlar navoiyshunoslikka bugungi kunga qadar o'ziga xos hissa qo'shib kelmoqdalar. Bular qatorida Muhammad Ya'qub Vohidiy Juzjoni, Abdulhakim Shar'iy Juzjoni, Abdulhay Habibi, Abdulloh Korgar, Abdullo Ruin, Said Muhammad Olim Labib, Said Tojuddin Toshqin Baho, Nurulla Oltoy kabilarning nomini qayd etish va mazkur ro'yxatni davom ettirish mumkin[5]. Bu mamlakat navoiyshunosligining bosh xususiyatlaridan biri mazkur olimlarning eski o'zbek yozuvi va dariy tili, arab yozuviga butun umr davomida ta'lim va kundalik foydalanishda yaqinliklaridir. Ya'ni, Navoiy davridan beri davom etib kelayotgan eski o'zbek tilining matn va so'zlashuv an'anasining Afg'onistonda saqlanganligi bu yurt navoiyshunoslarini Navoiyga, masalan, arab yozuvdagi Navoiy asarlari qo'lyozmalariga har jihatdan yaqinlashtiradi.

Shu o'rinda yuqorida tilga olingan afg'onistonlik navoiyshunos olimlaridan ayrimlari hayoti va ijodi haqida qisqacha to'xtalib o'tamiz:

1) Abdulhay Habibi 1910-yili Afg'onistonning Qandahor shahrida tug'ilgan. U ko'plab kitoblar muallifi, 1950-yillarda "Ozod Afg'oniston" nomli jurnal noshiri bo'lgan. 1966-yilda Afg'oniston Tarix Jamiyati boshlig'i sifatida faoliyat olib borib, Afg'oniston tarixiga oid bir qancha kitoblar nashr qilgan. Abdulhay Habibi 1981-yili "Amir Alisher Navoining siyosiy va fikriy qarashlari" nomli kitobini nashr etgan.

2) Mir Xusayn Shoh 1925-yili Qandahorda dunyoga kelgan afg'onistonlik olim 1967-yili akademik Bartoldning Navoiyga bag'ishlangan monografiyasini ingliz tilidan fors tiliga tarjima qilgan. Adabiyotshunos va tarixchi olim o'z sohasi bo'yicha o'nlab asarlar yaratgan va tarjima qilgan. Ulardan biri "Alisher Navoiy hayoti" nomli kitobdir. 1971-yilda Kobulda chiqadigan "Juvandun" jurnalida o'zbek adibi Oybekning "Navoiy" romani chop etildi. Ushbu romanning bir

purchasi “Alisherning yoshligi” nomi bilan 1979-yilda o‘zbek tilida Qobulda bosiladigan “Yulduz” gazetasida eski o‘zbek yozuvida e‘lon qilindi.

3) Muhammad Yoqub Vohidiy 1932-yilda Sarpul viloyatida tug‘ilgan. 1967-yili afg‘onistonlik olim birinchilardan bo‘lib buyuk shoir Alisher Navoiy hayoti va ijodi haqidagi kitobni nashr ettirgan edi. Muhammad Yoqub Vohidiy 1961-yili Kobul universitetining adabiyot fakultetini bitirgan. Adabiyot, tarix va geografiya fanlari bo‘yicha o‘qituvchilik qilgan. U yigirmaga yaqin kitoblar muallifi, jumladan Alisher Navoiyning “Muhokamat ul-lug‘atayn”, “Vaqfiya”, “Mezon ul-avzon” kabi asarlarini tadqiq qilib, ularning qiyosiy matnlarini qayta nashr etishga muvaffaq bo‘lgan.

4) Abdulloh Ro‘yin Tojikiston bilan chegaradosh Afg‘onistonning Qunduz viloyatida 1955-yilda dunyoga kelgan. U ko‘p yillik tinimsiz faoliyati natijasida 2014-yilga qadar Alisher Navoiy asarlaridan yigirma uchta eski o‘zbek yozuvda nashr etishga muvaffaq bo‘ldi. Abdulloh Ro‘yin Afg‘onistonda Navoiy asarlarini qayta nashr etish ustida eng ko‘p ish olib borgan tadqiqotchi hisoblanadi.

5) Sayid Tojuddin Toshqin Bahoiy 1961-yili Foryob viloyati markazi Maymana shahrida tug‘ilgan. 1986-yili Kobul universitetiga kirib, o‘zbek tili va adabiyoti bo‘yicha tahsil oladi. Uning bir hikoyasi, “Suvloq” va “Bir siqim tuproq” she‘riy to‘plamlari nashr etilgan. U Alisher Navoiy haqida qator maqolalar yozgan hamda “Xamsa” va “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarlarini qayta chop etgan.

O‘zbekistonda 1968-yili Alisher Navoiy tavalludining 525 yilligi nishonlangan edi. Afg‘onistonda ham shu davrdan boshlab navoiyshunoslik jonlandi. Navoiyga oid tadqiqotlar dariy va o‘zbek tillarida chop etila boshlandi. Ayniqsa, Navoiy asarlari nashriga katta e‘tibor qaratildi.

“Oriyona” jurnalining 1945-yildagi 1-sonida Fikriy Saljuqiyning “Amir Alisher Navoiy” nomli maqolasi bosilib chiqdi. Oradan bir yil o‘tib, ayni jurnalning 2-sonida bulg‘oristonlik sharqshunos Domosiyo Petruskuerovning “Buyuk mumtoz shoir Mir Alisher Navoiy” nomli maqolasi e‘lon qilindi. Yana shu jurnalning 1966-yilgi 1-2-sonlarida Navoiy ijodiga taalluqli bo‘lgan bir katta maqola bosildi. Uning muallifi Muhammad Yoqub Vohidiydir. Maqola “Arbaini Jomiy va Arbaini Navoiy” deb ataladi. Vohidiy avval Jomiy va Navoiyning “Arbain” (“qirq hadis”)lari to‘g‘risida o‘z fikrlarini qisqacha bayon qilib, so‘ngra birin-ketin “Arbain”ning ham matnlarini keltiradi [6].

1967-yili Afg‘onistonda Navoiy tavalludining 525 yilligi munosabati bilan ilmiy to‘plam nashr qilingan [7]. Kitobda pushtu va dariy tilidagi maqolalar keltirilishi mo‘ljallangan bo‘lib, ayni kitob “Amir Nizomiddin Alisher Navoiy Foniyning tug‘ilganiga 525 yil to‘lishi munosabati bilan” (“Ba munosabati 525 soli valodati Amir Nizomiddin Alisher Navoiy Foniy”) deb nomlanadi, deyilgan. Kitobni Muhammad Yoqub Vohidiy nashrga tayyorlagan, deb xabar beriladi. Darhaqiqat, mazkur kitob 1968-yili ayni nom bilan Kobulda nashr etildi [8]. Yuqorida tilga olganimiz Orif Usmonov maqolasining davomida Habibiy mazkur to‘plamdan o‘ring olgan maqolalar bilan o‘quvchilarni tanishtirgan.

Afgʻonistondagi navoiyshunoslik mevalarini koʻrish uchun oʻzbek tilidagi minbar kerak. Shunday joy sifatida bu mamlakatda 1978–2021-yillar oʻzbek tilida nashr etilgan “Yulduz” gazetasini koʻrish mumkin. Garchi, uning nashri muntazam amalga oshirilmagan boʻlsa-da, “Yulduz” Afgʻoniston oʻzbeklarining maʼnaviy va madaniy qiyofasi boʻlib kelgan. Mazkur gazetada Navoiy haqida oʻnlab ilmiy maqolalar nashr etilgan. U 1991-yili Kobulda tashkil etilgan “Amir Alisher Navoiy madaniy anjumani”ning rasmiy nashriga aylangan. Shu munosabat bilan Navoiyning deyarli barcha asarlari va ularga oid tadqiqotlar ushbu gazeta orqali kitobxonlar qoʻliga yetib borgan.

1980-yillar boshidan Navoiy asarlari har safar 1000 nusxadan kam boʻlmagan adadda nashr qilina boshlandi. Shoirning “Xamsa”, “Xazoyin ulmaoniy” va boshqa asarlariga bugungi Afgʻoniston kitobxoni oshno boʻlib kelmoqda. Noshirlik faolyatida afgʻonistonlik navoiyshunos Abdulla Ruin peshqamdamlilik qildi. U 2008–2017 yillar davomida oʻzi va farzandlarini Navoiy asarlarini eski oʻzbek tilida nashr qilish ishiga jalb etib, oʻndan ortiq marotaba Navoiy asarlarini 1000 tadan nusxada chop ettirdi [9]. Boshqa navoiyshunoslar ham Navoiy asarlarining nashr ishlariga oʻzlarining hissalarini qoʻshdilar.

“Oriyona” jurnalining 1981-yil 35-36-sonlarida esa Muhammad Umar Alim Bayotning “Ulugʻ shoir va mutafakkir Mir Alisher Navoiy” maqolasi bosilib chiqdi. Bu maqolada Alisher Navoiy asarlaridagi adolatparvarlik, insonparvarlik, doʻstlik va muhabbat gʻoyalari keng sharhlab berilgan. Alisher Navoiyning ijodi afgʻonistonlik shoirlar uchun sheʼriyat sirlarini oʻrganish maktabiga aylangan.

1991-yili Alisher Navoiy tavalludiga 550 yil toʻlishi munosabati bilan Afgʻonistonda dariy tilida nashr qilinuvchi “Hivod” (“Vatan”) gazetasining 1991-yil yanvar-fevral sonlarida Navoiyga bagʻishlangan maqolalar chop etildi. Masalan, gazeta 1991-yil 17-yanvar (1369 hijriy-shamsiy, 27 jadiy) kuni “Amir Nizomiddin Alisher Navoiy tavalludining besh yuz ellik yilligini nishonlash” rukni ostida yirik afgon tadqiqotchisi Abdulhakim Sharʼiy Juzjoniyning “Alisher Navoiy –yangi adabiy maktabning asoschisi” maqolasining birinchi qismini eʼlon qildi. “Hivod” gazetasining 9-fevral (1369 hijriy-shamsiy, 21 dalv) soni toʻligʻicha Alisher Navoiyga bagʻishlandi [10]

Afgʻonistonning bir xususiyati bor. Bu oʻlkada Navoiy davri anʼanalari hozirga qadar davom etadi. Yoshu qari sheʼr yozadi yoki yoddan koʻp sheʼr biladi. Oʻz nutqini sheʼr bilan bezaydi, fikrini Sharq mumtoz adabiyoti vakili qarashlari, sheʼrlaridan parcha keltirish bilan asoslashga oʻrgangan. Chunki Afgʻoniston maktablaridagi taʼlim tizimida, Oʻrta asr musulmon sharqida boʻlganidek, sheʼrning oʻrni katta. Bu yurtning shoirlari ham Alisher Navoiyga oʻxshashga intiladi. Navoiy sheʼrlariga nazira bogʻlaydi, ergashadi. Buning natijasi oʻlaroq, Afgʻonistondagi oʻzbek ziyolilari Navoiyni koʻp va xoʻb yodlaydi. Mana shunday Navoiy yoʻlidan ketgan shoirlar qatorida Domla Bedil, Muhammad Olim Labib, Mir Muhammad Amin Qurbat, Muhammad Amin Matin Andxuyi, Muhammad Yahyo Hafiziy Juzjoni, Zikrilla Ishonch, Gʻulomsahiy

Vakilzoda kabilarni eslash mumkin. Afgʻonistonlik oʻzbek shoirlarining Alisher Navoiy sheʼrlariga muxammaslari, javoblari va ergashib yozilgan sheʼrlarining oʻzinigina toʻplasak, bitta katta kitob boʻladi. Biz bugungi kunda shunday kitobni tayyorlash ustida ish olib boryapmiz.

1982-yili Kobulda afgʻonistonlik shoirlar tomonidan navoiyxonlik – Navoiy sheʼrlarini oʻqish va ularga ergashish yigʻini boʻlib oʻtdi [10]. Abduzuhur Abduazizov maʼlumotiga koʻra, Alisher Navoyning ijodi afgʻon shoirlari uchun sheʼriyat sirlarini oʻrganish maktabiga aylangan. Afgʻonistonda ijod qilayotgan oʻzbek shoirlari klassik anʼanaga koʻra koʻproq aruz vaznida sheʼr yozadilar va Navoiyga ergashib, uning asarlariga muxammaslar bogʻlaydilar. Ular orasida Qori Sharafuddin tomonidan Navoiyning “Tuz” radifli gʻazaliga, Muhammad Amin Uchqun tomonidan “Hargiz” radifli gʻazaliga bogʻlangan muxammasalarini koʻrsatish mumkin. Bu xususdagi gapimiz quruq boʻlmasligi uchun bir misol keltiramiz [11]. Mana shunday shoirlardan biri – Sayyid Muhammad Olim Labib. U 1957-yili Afgʻonistonning Foryob viloyatida dunyoga keldi. 1976-yili Qobul universitetiga oʻqishga kirdi, soʻngra 1984-yili Rossiyada oʻqishni yakunlab, adabiyotshunoslik sohasida filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasiga erishdi. Olim Labib oʻzbek va dariy tillarida ijod qildi. Shoirning oʻzbek tilida “Soʻz injulari”, “Tuygʻularim, qaygʻularim” va fors tilida “Ikki koʻzguda bir tasvir” (“Yak tasvir dar du oyina”) toʻplamlari chop etilgan. Muhammad Olim Labib Alisher Navoiyga bagʻishlangan qator maqolalar muallifi, Navoiy gʻazallariga oʻnlab muxammas va naziralar yozgan shoirdir. Quyida Muhammad Olim Labibning Alisher Navoiyning quyidagi bayt bilan boshlanuvchi gʻazaliga nazira tarzida bitilgan gʻazalini havola qilamiz:

Eyki avval qomating vasfini shamshod ayladim,
Sarvi jannat boʻlki, emdi seni ozod ayladim.
(Alisher Navoiy)

Shirin uyqu
(Alisher Navoiy gʻazaliga nazira)
Ishq qasrin to koʻngil mulkida bunyod ayladim,
Saqu devorin sening sevging-la obod ayladim.

Baski, koʻnglim vasling ummidi bilan shod ayladim,
Sheʼrlar sevinch ila vasfingga inshod ayladim.

Har muxammasda chizib barmoqlaring tasvirini,
Har gʻazal ichra gʻazoling shevasin yod ayladim.

Har qasida chun soching savdosida boʻldi uzun,
Men uni takror oʻqib, har kecha avrod ayladim.

Ikki fatton nargising, mushkin hiloling vasfida,
Toʻrtliklar ham ruboiylarni ijod ayladim.

Qit'a yozib sendan aslo etmadim qat'i umid,
Seni Shirin deb, o'zimni ayni Farhod ayladim.

Angladim so'ngraki, vasl etmak ta'ma sendan abas,
Soddalik ko'r, necha o'z jonimga bedod ayladim.

Kech edi, lek uyg'onib qoldim bu shirin uyqudan,
Barcha avhomu xayol uyini barbod ayladim.

...Aql amri birla fikringni bayon qilding, Labib,
Demakim, ko'nglimni ham bu ishga munqod ayladim.

Ayni vaqtda, Afg'onistondagi Alisher Navoiy bilan bog'liq yuksak minbar sifatida shoir tavalludiga bag'ishlab davlat miqyosida o'tkazilgan xalqaro anjumanlarni qayd etish mumkin bo'ladi. Garchi, ularning soni ko'p bo'lmasada, Afg'oniston navoiyshunosligi uchun ularning ahamiyati kattadir.



1967-yil 7-fevralda Hirot shahrida Afg'oniston podshohi Muhammad Zohir Shoh (1933–1973) buyrug'i va Afg'oniston Axborot va Madaniyat vaziri Muhammad Usmon Sidqiy tashabbuslari bilan Hirot shahrida Alisher Navoiy qabriga marmar tosh qo'yildi. U tosh Kobulda maxsus ishlangan bo'lib, uning ustiga Xondamirning Navoiy to'g'risidagi mashhur bir qit'asi bitilgan. O'sha kuni Alisher Navoiy qabri atrofida Hirot aholisi, shoirlar, olimlar va Navoiyning muxlislari to'planishgan. Marosimni

Hirot shahri volisi Muhammad Sidiq qisqa nutq bilan ochgan. So'ng Afg'onistonning mashhur tarixchi va adabiyotshunos olimi Fikriy Saljuqiy bilan Muhammad A'lam G'avvos Alisher Navoiyning hayoti va ijodi to'g'risida ma'ruzalar qilganlar. Navoiy qabriga marmar tosh qo'yish marosimi haqidagi xabar Kobul radiosi orqali pushtu, fors (dariy), arab, urdu, baluj, rus, ingliz, nemis va fransuz tillarida o'qib eshittirilgan va Afg'oniston markaziy gazetalarida e'lon qilingan[12].

Birinchisi Xalqaro ilmiy anjuman Kobulda 1991-yili Navoiy tavalludining 550 yilligiga bag'ishlandi[13]. Unda yigirmadan ortiq ma'uruzalar o'qildi. Afsuski, bu maqolalar to'plam shaklida nashr yuzini ko'rolmadi.

Ikkinchi anjuman bilan birinchisi o'rtasidagi davr 25 yilni o'z ichiga oldi. 2016-yilda mutafakkir tavalludining 575 yilligiga bag'ishlangan xalqaro simpozium poytaxt Kobul, Mozori Sharif va Hirot shaharlarida bo'lib o'tdi.

Alisher Navoiy tavalludining 580 yillik yubileyi Hirotida xalqaro miqyosda keng nishonlandi[14]. Anjuman "Alisher Navoiy tafakkurlarini o'rganish" nomi ostida 2021-yil 7-9 aprel kunlari o'tkazildi. Anjumanni aynan shu nom ostida o'tkazilishiga Afg'oniston prezidenti bilan seminarga oid muloqotda olg'a surilgan bir fikr sabab bo'ldi. Unda Prezident "Alisher Navoiy bizning Shekspirimiz", shunga yarasha uning yubileyini nishonlashimiz kerak, deb komissiya a'zolariga ta'kidladi. Bu fikr ilmiy qo'mitada muhokama etilib, nihoyat anjumanga "Alisher Navoiy tafakkurlarini o'rganish" nomi qo'yildi. Anjumanda olti davlatdan navoiyshunos olimlar qatnashdi. Ular orasida o'zbekistonlik navoiyshunos olimlar ishtiroki salmoqli bo'ldi. 2021-yilda esa anjuman yuzasidan "Ozodiy" davlat nashriyotida nashr etilgan "Maqolalar to'plami"dan 48 ta maqola o'rin oldi [15].

Ko'rinib turganidek, Afg'onistonda Alisher Navoiy bilan bog'liq ilmiy va amaliy ishlar keyingi yarim asrda keng miqyosda amalga oshirilib kelinmoqda. Alisher Navoiy o'z asarlari va qilgan ishlari bilan o'ziga ma'naviy haykal qo'yib ketgan. Uni esa aslo buzib, yo'qotib bo'lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1.Arol A. Alisher Navoiyga nisbat beriladigan yangi obidalar // Payomi donishkada, Anvori ilm, Tafakkuri ta'rix. 2022, No 2(1). –Panjakent, 2022. –B.3-6; Labib S.M.O., Nadim M.H.Alisher Navoiyning Xurosonda qoldirgan izlari va adabiy an'anasining davomi // Alisher Navoiy. Xalqaro jurnal. 2023 (1). – B.42-48.

2.Arol A. "Alisher Navoiy bilan bog'liq Afg'onistonda nashr qilingan kitoblar" // "Alisher Navoiy va XXI asr" mavzusidagi uluslararo konferansi materiallari. Toshkent –2023 , ﷻﻟﻪﺗﻰ. –B. 187-190.

3.Arol A. Navoiyga afg'onistonlik shoir Olim Labibning nazirasi// O'zbekistonda ta'lim. 3(25), 2023, B.44.

4.Arol A. Alisher Navoiy tafakkurlarini o'rganish (Navoiy tavalludining 580 yilligiga bag'ishlangan Hirot xalqaro ilmiy-amaliy anjumani haqida) //Alisher Navoiy. Xalqaro jurnal. 2023 (1). –B.9-19; Erkinov A. Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligiga bag'ishlangan Hirot konferensiyasiga tashrif //Alisher Navoiy. Xalqaro jurnal. 2023 (1). –B.49-57.

5.Abduazizov A. Afg'onistonda navoiyxonlik // O'zbekiston adabiyoti va san'ati. 1982. 12 fevral; Abdullaev V.A. Buyuk siymo: Alisher Navoiy Afg'onistonning "Yulduz" gazetasi sahifalarida // O'qituvchilar gazetasi. 1982. 10 fevral; Abdullaev V.A. Daho tug'ilgan diyorda: Alisher Navoiy tavalludining 541 yilligiga // Toshkent haqiqati. 1982. 9 fevral; O'runbaev A., Abdugafurov A.

Международный симпозиум в Кабуле, посвященный юбилею А. Навои // О'zbekistonda ijtimoiy fanlar. 1991, 5-son. –S.56-57; Usmanov A. Afganskije uchenye ob Alishere Navoi // O'zbekistonda ijtimoiy fanlar. 1967. 8-son. –B.33-37; Hasanov X. Navoiy maqbarasi: Bomiyon // Sharq yulduzi. 1961. 3-son. - B.154-159; Zufarov T. “Yulduz” sahifalarida // O'zbekiston adabiyoti va san'ati. 1987 yil 20 fevral.

6.Abdug'afurov A. Farzona suxanvar // O'zbekiston adabiyoti va san'ati. 1991 yil. 26 iyul.

7.Abdualazizov A. Afg'onistonda navoiyxonlik // O'zbekiston adabiyoti va san'ati. 1982 yil, 12 fevral.

8.Afg'onistonda Alisher Navoiy haykali buzib tashlandi (<https://uznews.uz/posts/62471>). 16.02.2023 yil.

9.Afg'onistonda navoiyxonlik // O'zbekiston adabiyoti va san'ti. 1991 yil, 26 iyul; Abdug'afurov A. Farzona suxanvar // O'zbekiston adabiyoti va san'ati. 1991 yil. 26 iyul.

10.Amir Alisheri Navoiy–Foniy. Mushtamil bar sharhi zindagiy, osori umroniy, malfuzot va namunai nazmu nasri u. Ba ko'shishi Muhammad Ya'qub Vohidiy Juzjoniy. Kobul, 1346/1967 (dariy tilidagi kitob).

11.Ba munosabati 525 soli valodati Amir Nizomiddin Alisher Navoiy Foniy. Ba ko'shishe Muhammad Ya'qub Vohidiy-Juzjoniy. Kobul, 1362/1968 (arab yozuvida).

12.Bertels Ye.E.Izbrannye trudy. Navoi i Djami. M., 1965. S.107; Kubo Kazuyuki. Metsenatskaya deyatel'nost AlisheraNavoi // O'zbekistonda ijtimoiy fanlar /Общественные науки в Узбекистане. No9, 1991, r.23-26; Timurid Art and Culture: Iran and Central Asia in the Fifteenth Century.L.Golombek, M.Subtelny. Leiden-New York: Brill, 1992.p.47.

13.Masalan, Abdulloh Korgar. Amiri donishmand (Nizomiddin Alisher Navoiy). Peshovar, 1383/2004. 48 b.; Muhammad Olim Labib. Sayri dar dunyoyi siymohoi Navoiy (Majmuayi maqolaho). Kobul: Matbayi kotib, 1389/2010. 90 b.; Abdulali Nur Ahroriy. Amir Alisher Navoiy. Hirot, 1393/2014. 256 b.; Roziq Narayval. Mir Alisher Navoiy. Kobul, 1397/2019. 56 b.

14.Majmuayi maqolot seminori baynalmillayi bozxoni andishahoyi Alisher Navoiy. Kobul: Matbayi ozodiy (davlatiy), 1400/2021. 376 b. (arab yozuvida).

15.Nazarov N. Afg'oniston o'zbeklari. Toshkent, 2011; Boboqulov I.I. Afg'oniston. Lug'at –ma'lumotnoma. –Toshkent: Complex Print, 2021.

FILOLOGIYA**MAXTUMQULISHUNOSLIKDAGI JARAYONLAR****Feruza SAPAYEVA**

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti “Jahon adabiyoti” kafedrasi professori, mahtumqulishunos olimi Feruza Sapayeva bilan O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti katta ilmiy xodimi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori Anvar Allambergenovning suhbat

**Anvar
ALLAMBERGENOV**

Savol: Feruza opa, avvalo, qimmatli vaqtingizni ayamay suhbatga rozilik berganingiz uchun katta rahmat! Suhbatimiz avvalida Mahtumquli Firog‘iyni tug‘ilgan yili borasidagi bahs-munozaralar, taxmin va faktlar, har xil qarashlar va oxirgi xulosalar haqida to‘xtalsangiz.

Javob: XVIII asr turkman adabiyotida yangi sahifa ochgan, uni taraqqiyotning yangi bosqichiga ko‘targan buyuk so‘z san‘atkori, mutafakkir shoir Mahtumquli Firog‘iyni hayoti va ijodi uch asrdan beri dunyo kitobxonlari, ilmiy-adabiy jamoatchiligi diqqatini jalb qilib, hayratga solib kelyapti. Uning adabiy merosi jahon ma‘naviy xazinasining ajralmas bo‘lagi sifatida avlodlardan-avlodlarga o‘tib, ahloqiy tarbiya quroli, ma‘naviy chashma vazifasini bajarmoqda. Ulug‘ shoir she‘riyati ilmiy-tadqiqot manbaiga aylanganiga ham ko‘p yillar bo‘ldi. Bu o‘lmas ijod bilan faqat turkman olimlarigina emas, jahonning ko‘zga ko‘ringan shoir va yozuvchilari, adabiyotshunos-tanqidchilari ham shug‘ullanib, salmoqli ilmiy ishlar, kitoblar nashr ettirgani ma‘lum.

I.A.Belyayev, A.N.Samoylovich, N.P.Ostroumov, V.V.Bartold, Ye.E.Bertels kabi dunyoga mashhur turkologlar XX asrning boshlaridayoq Mahtumquli asarlarining jahonshumul ahamiyati haqida maqolalar, tadqiqotlar yaratdilar.

Mahtumquli Firog'iy (Davlatmamad Ozodiy o'g'li) mashhur turkman shoiri va mutafakkiri, turkman xalqi madaniyati, maorifi va adabiyotining asoschilaridan biri hisoblanadi. Uning tug'ilgan yili borasida turli qarashlar va bahs-munozaralar mavjud. Bu munozaralar asosan tarixiy manbalar va an'anaviy og'zaki rivoyatlarga asoslanadi. Mahtumquli Firog'iyning tug'ilgan yili borasida aniq ma'lumot yo'q. Tadqiqotchilarning ko'pchiligi uning taxminan 1733–1735-yillar oralig'ida, ba'zilar shoirning tug'ilgan yili taxminan 1724-yilda bo'lishi mumkinligini ham ko'rsatadi. Bu taxminlar asosan uning hayoti va ijodiy faoliyatini o'rganish natijasida shakllangan.

Mahtumquli hayoti haqida aniq tarixiy hujjatlar kam uchraydi, chunki u davrda yozma tarixdan ko'ra og'zaki an'analar ustun bo'lgan. Turli xronologik tafovutlar, tarixiy manbalar, jumladan, shoirning o'z she'rlari, hayoti va tug'ilgan yili haqida bir-biriga zid ma'lumotlar beradi. Uning hayoti haqida ko'p rivoyatlar avloddan-avlodga o'tgan, ammo bu ma'lumotlar ko'pincha uncha ishonchli emas. Ba'zi manbalarda Mahtumquli 1733-yilda Gorog'li hududida tug'ilgan deb aytiladi. Boshqa taxminlarga ko'ra, uning tug'ilgan yili 1730-yillar boshlariga to'g'ri keladi. Chunki uning asosiy ijodiy yo'li XVIII asrning ikkinchi yarmida sodir bo'lgani hisobga olinadi. Oxirgi xulosalar tadqiqotchilar Mahtumqulining tug'ilgan yili sifatida 1724-yilni qabul qilishadi. Bu uning ijodiy faoliyati va tarixiy kontekstga mos keladi. Mahtumqulining she'rlari turkman milliy o'zligini shakllantirishda katta rol o'ynagan va u o'z she'rlari orqali adolat, haqiqat va birlikni targ'ib qilgan.

Savol: Mahtumquli she'riyatining mavzu ko'lami va shoir she'rlarining bugungi kundagi ahamiyatli jihatlari nimalardan iborat?

Javob: Mahtumquli Firog'iy she'riyati nafaqat Turkmaniston va Markaziy Osiyo madaniyati uchun, balki butun jahon adabiyoti uchun bebaho boylik hisoblanadi. Uning ijodi nafaqat o'z davrida, balki bugungi kunda ham katta ahamiyatga ega. Mahtumquli ijodida turli mavzular keng qamrab olingan bo'lib, uning she'rlari hayotning barcha jabhalariga tegishlidir. Vatanparvarlik va milliy g'urur Mahtumquli ijodiga xos xususiyat bo'lib, u xalqni birlik va hamjihatlikka chaqirgan. Shoir o'z she'rlarida turkman xalqining erkinligi, farovonligi va mustaqilligi uchun kurashni ulug'lagan. She'rlarida milliy birdamlikni saqlashni targ'ib qilgan, adolat, haqiqat va ezgulikni tarannum etgan. Mahtumquli boy va kambag'al, zolim va mazlum orasidagi tafovutlarni keskin tanqid qilgan, har bir insonni tenglik va haqiqatga chaqirgan.

Mahtumquli tasavvuf yo'lida ijod qilgan, ilohiy ishqni ulug'lagan. Uning she'rlari Qur'on va hadis g'oyalaridan ilhomlangan. U inson qalbining pokligi va Oллоhga muhabbatni asosiy qadriyat sifatida ilgari surgan. Shuningdek, hayot va borliq, insoniy qadriyat va bashariyat, ma'rifat va xalq manfaati – bular shoir she'riyatining o'q ildizi deyish mumkin. U inson hayotining o'tkinchiligi, dunyo tashvishlari va hayotning ma'nosi haqida chuqur falsafiy fikrlarni o'z she'rlariga singdirgan.

Mahtumquli she'riyatida sof muhabbat, inson qalbidagi betakror his-tuyg'ular go'zal uslubda ifoda etilgan. U muhabbatni nafaqat insonlar orasidagi tuyg'u sifatida, balki ilohiy sevgi sifatida ham tasvirlagan.

Mahtumqulining she'rlari turkman millatining o'zligini anglashda asosiy o'rin tutadi. Uning ijodi turkman xalqining boy madaniyatini, qadriyatlarini va tarixini ulug'laydi. Bugungi kunda ham uning she'rlari ijtimoiy adolat, haqiqat va xalq birligi uchun ilhom manbai bo'lib xizmat qiladi. Mahtumquli o'z xalqini tinchlik va birdamlikka da'vat etgan, bu esa zamonaviy jamiyat uchun ham dolzarbdir. Shoirning tasavvufiy hikmatlari shaxs kamoloti va ruhiyati uchun chinakam ma'naviy ozuqa bo'la oladi. Ular bugungi kunda ham ko'pchilikka ruhiy taskin beradi. She'rlari insonni chuqur falsafiy o'ylashga, ma'naviy poklanishga va hayot ma'nosini izlashga undaydi. Mahtumquli asarlari bugungi kunda milliy qadriyatlarni saqlash, xalq birligini mustahkamlash va ma'naviy poklanishga xizmat qilayotgan katta boylik hisoblanadi.

Savol: Mahtumquli ijodida mumtoz sharq shoirlariga ergashish, ulardan ta'sirlanish, ularning an'analarini davom ettirish masalalari nechog'lik? Qaysi shoirlar Mahtumquliga ergashgan, undan ta'sirlangan va uning an'analarini davom ettirgan?

Javob: Mahtumquli Firog'iy o'z ijodida Sharq mumtoz adabiyoti an'analariga ergashib, ulardan ilhomlangan holda o'ziga xos uslub yaratgan. U nafaqat o'z davri va hududi shoirlariga, balki undan keyingi davrda yashagan ijodkorlarga ham katta ta'sir ko'rsatgan.

Tasavvufiy g'oyalar, hayotning o'tkinchiligi, ruhiy poklanish kabi mavzular ham Mahtumqulining she'rlarida asosiy o'rin tutadi. Shu nuqtai nazardan u Jaloliddin Rumiy, Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy, Fuzuliy, Bedil, Hofiz va Sa'diy ijodidan ilhomlangan, ularning ijodiy yo'nalishini davom ettirgan, ularni o'ziga ma'naviy ustoz deb bilgan. Boisi, Mahtumquli mumtoz Sharq adabiyotida keng qo'llanilgan g'azal, muxammas kabi shakllarni o'zlashtirgan. Bu shakllar Navoiy va Fuzuliy ijodiga ergashgani holda yozilgani ma'lum bo'ladi. Sa'diy Sheroziyning "Guliston" va "Bo'ston" asarlaridagi ahloqiy nasihatlar Mahtumquli she'rlarida ham yaqqol ko'zga tashlanadi, tasavvufiy she'rlarida esa Navoiyga xos yuksak badiiylik va ichki ohangdorlik

seziladi. Uning ilohiy va insoniy muhabbatni tarannum etishdagi ijodiyotida Fuzuliy izlari ko‘rinsa, hayotning go‘zalligini ulug‘lash va ma‘naviy erkinlik g‘oyalari Hofizga ergashishini ko‘rsatadi.

Mahtumqulining ijodi nafaqat Turkmaniston, Markaziy Osiyo davlatlarida, balki butun turkiy dunyo adabiyoti, qolaversa, jahon adabiyotiga ta‘sir ko‘rsatgan. Uning g‘oyaviy va badiiy uslubini davom ettirgan shoirlar (turkman) asosan – Andalib, Shaydoiy, G‘oyibiy, Mullanepes, Seidiy, Keminelar bo‘lib, ular Mahtumquli ta‘sirida yaratgan tasavvufiy va ishqiy she‘rlari bilan tanilganlar.

Mahtumqulining tasavvufiy va falsafiy g‘oyalari butun turkiy dunyo shoirlariga ta‘sir ko‘rsatgan. Qozon, Qrim va boshqa hududlarda yashagan turkiy shoirlar uning she‘riyatini yuqori baholagan va uni o‘rnak sifatida o‘zlariga qabul qilishgan. Mahtumquli an‘analari hozirgi turkman adabiyoti va madaniyatida ham davom etmoqda. Uning she‘rlari hozirgi kunda turkman tili, adabiyoti va madaniyatini o‘rganishda asosiy manba sifatida qaraladi.

O‘zbek adabiyotida, masalan, Furqat va Muqimiy, Hamza va Cho‘lpon Mahtumqulining uslubidan ilhom olgan deyish mumkin. Chunki Mahtumquli ijodiy an‘analarini davom ettirgan o‘zbek ijodkori Furqat Mahtumqulining vatanparvarlik va ijtimoiy tanqid ruhidagi an‘analarini davom ettirgan, xalq birligini, taraqqiyot va ma‘rifatni targ‘ib qiluvchi asarlar yaratgan. Mahtumquliga xos ravishda xalq manfaatlarini himoya qilish va adolatga chaqirishni ustuvor vazifa deb bilgan.

Shuningdek, Muqimiyning satirik va tanqidiy she‘rlarida Mahtumquli ta‘siri ko‘zga tashlanadi. U ham jamiyatdagi adolatsizliklarni yoritib, xalq hayotini yaxshilashga intilishni maqsad qilgan.

Hamza Hakimzoda Niyoziy Mahtumquliga o‘xshab jamiyat taraqqiyotiga va xalq ma‘naviy rivojiga katta e‘tibor qaratgan. Uning vatanparvarlik ruhidagi asarlari Mahtumquli ijodiy an‘analarini davom ettirishda muhim rol o‘ynagan.

Jahon ijodkorlari orasida Mahtumquli ta‘siri Ismail Gaspirali (Qrim) ning ijtimoiy fikrlari va turkiy xalqlar birligi haqidagi qarashlari shoirning birlik g‘oyalariga uyg‘un. Garchi Mahtumquli asosan turkiy va musulmon mamlakatlarda mashhur bo‘lgan bo‘lsa-da, uning insoniylik, adolat va xalqparvarlik g‘oyalari umumiy ahamiyat kasb etgan. Vilyam Bleyk (Angliya) ijodiga nazar solsak, tabiat va inson munosabatini poetik tushuntirishda Mahtumquli ijodiy an‘analariga xos fikrlarni uchratish mumkin. Lev Tolstoy (Rossiya) ijodidagi insonparvarlik tushunchalari Mahtumquli asarlaridagi oddiy xalq manfaatlarini himoya qilish g‘oyasini tarannum etadi.

Mahtumquli Firo‘g‘iy mumtoz Sharq adabiyoti an‘analarini davom ettirib, ularga yangicha mazmun va badiiylik kiritgan. U Sharqning buyuk shoirlariga ergashgan bo‘lsa-da, o‘ziga xos uslubini yaratgan va turkman adabiyotini yangi cho‘qqilarga olib chiqqan. Uning ta‘siri nafaqat turkman adabiyotida, balki jahon adabiyotida, keng turkiy dunyo adabiyotida ham sezilib, ko‘plab shoirlar uning an‘analarini davom ettirib kelmoqda.

Savol: Shoir she‘riyatining o‘zbek tiliga dastlabki tarjimalari kimlar tomonida amalga oshirilgan? Tarjimalardagi o‘xshash va farqli jihatlar nimalardan iborat? Shoir she‘rlarining o‘zbekchadagi qaysi bir nashri eng mukammali, asliyatga eng yaqini deb bilasiz?

Javob: Qardosh xalqlar adabiyoti tarixida atoqli turkman so‘z san‘atkori Mahtumquli o‘ziga xos o‘rin tutadi. Uning asarlari dunyoning ko‘plab tillariga tarjima qilingan. Zero, Mahtumquli o‘zbek xalqi qalbiga yaqin bo‘lgani uchun ham o‘zbekning o‘z milliy shoiriga aylanib ketgan. Shoir Xivadagi Sherg‘ozixon madrasasida tahsil oldi, umrining muayyan qismi Xorazmda o‘tdi. Mahtumqulining xalq ichida mashhur bo‘lgani bois u haqida ko‘plab rivoyatlar to‘qildi, she‘rlari tildan tilga o‘tib, qo‘shiqchilar ijodidan mustahkam o‘rin oldi. Shu bilan birga shoirning she‘rlari keng ommaga yetkazilishi uchun qo‘lyozmalari ko‘plab kotiblar tomonidan ko‘chirildi. Iste‘dodli hofiz Komiljon Otaniyozovning: “Xorazmni shoirning ikkinchi yurti” deb bemalol aytish mumkin”, degan fikri bag‘oyat o‘rinlidir. Aslida bu ta‘rif miqyosini kengaytirib: “O‘zbekiston – Mahtumqulining ikkinchi vatani” deyishda ham aslo mubolag‘a yo‘q. Keyingi davrda shoir ijodiga qiziqish yanada kuchayib, uning she‘rlari yigirmaga yaqin tarjimon tomonidan o‘zbek tiliga o‘girildi. Bu holat, birinchidan, o‘zbek o‘quvchilari orasida Mahtumquli she‘rlariga ma‘naviy ehtiyojning naqadar katta ekanini, ikkinchidan esa, she‘riyat ixlosmandlari butun borlig‘ini xalq diliga yaqin ohanglarda doston qilgan shoirni qanchalar o‘zlariga yaqin olishlarini ko‘rsatadi.

Mahtumqulining o‘zbek xalqi orasidagi chinakam shuhrati Jumaniyoz Sharipov tarjimalari bilan bog‘liq. Mohir mutarjim shoirning 314 ta she‘rini tarjima qilib, 1958-yili ularni “Tanlangan asarlar” nomi bilan nashr ettirdi. Keyinchalik bu tarjimalar bir oz qisqartirilgan shaklda 1960-yil, 1963-yil va 1976-yillarda juda katta adadlarda nashrdan chiqdi.

Jumaniyoz Sharipov Mahtumqulining asosan ijtimoiy va pand-nasihat yo‘nalishidagi she‘rlarini tanlab olgani uchun u o‘zbek xalqi orasida didaktik shoir sifatida mashhur bo‘ldi. Hukmron mafkura tazyiqi tufayli tarjimon bu she‘rlardagi diniy-tasavvufiy mazmundagi o‘rinlarni yoki tarjima jarayonida o‘zgartirishga yoki qisqartirishga majbur bo‘ldi. Balki matniy o‘zgarishlarning bir qismi o‘z davrining “siyosiy hushyor” nashriyot muharrirlari tomonidan amalga

oshirilgan bo‘lishi ham mumkin. Jumaniyoz Sharipov 73 ta she’rni u yoki bu darajada qisqartirib tarjima qilgan bo‘lib, tarjimashunoslik ilmi nuqtai nazaridan bu holat adekvat tarjima talablariga muvofiq kelmaydi. Asar qisqartirib tarjima qilindimi, uning qaysidir ma’no qirrasini mavhum qoladi, muallif fikri xiralashadi; asar mazmunida muallif ko‘zda tutgan maqsad to‘la ochilmaydi. To‘g‘risi, Mahtumqulidek mumtoz so‘z san’atkorlarining durdona she’rlari, asrlardan beri insonlar qalbiga zavq ulashib kelayotgan misralarini qisqartirish o‘zini oqlamaydi, albatta.

Ammo Jumaniyoz Sharipov tarjimalari Mahtumqulini xalqimiz orasida ikkinchi marta chinakamiga mashhur qildi. Agar bu tarjimalar muvaffaqiyatsiz chiqqanda qayta-qayta nashr etilmas, “Bo‘ylaringga”, “Ko‘ring”, “To‘xtamas”, “Aylar”, “Namasan”, “Yurging keladi”, “Ayrildim”, “Bo‘lmasa”, “Qaramas”, “Bo‘lmas” kabi bir necha o‘nlab she’rlar hofizlar tiliga tushib, qo‘shiqqa aylanmas edi. Masalan, “Yor aylar” she’ridan olingan quyidagi misralar shakl va mazmun jihatidan asliyatga juda mos keladi:

Asliyatda: Аклин болса, ягшиларга хемдем бол,
Акмак өзүн надан биле яр эйләр!
Хак ашиклар нэзли яриң жемалин
Бир гөрсем дийп, гиже-гүндиз зар эйләр.

Tarjimada: Oqil bo‘lsang, yaxshilarga hamdam bo‘l,
Ahmoq o‘zin nodon bila yor aylar.
Chin oshiqqlar nozli yorning jamolin
Bir ko‘rsam deb, kecha-kunduz zor aylar (TA,189).

Mustaqillikning dastlabki yillarida Muzaffar Ahmad Mahtumquli she’rlari tarjimasiga qo‘l urdi – u shoirning asosan ilgari tarjima qilinmagan yangi she’rlarini o‘zbekchalashtirib, avval matbuotda e’lon qildi, keyin 67 ta she’rni o‘z ichiga olgan “Saylanma” to‘plamini nashr ettirdi. “Muzaffar Ahmad turkman tilini boshqa tarjimonlarga qaraganda birmuncha yaxshi bilsa-da, fors-tojik tili va islomiy istilohlardan yetarli darajada xabardor emasligi uning tarjimalarida ham qator xatolarning kelib chiqishiga sabab bo‘lgan. Chunki Mahtumquli she’rlarida forsiy-arabiy so‘z va iboralar ham, diniy atama va tushunchalar ham nihoyatda ko‘p ishlatilgan”, deb yozadi E.Ochilov. Lekin M.Ahmadning tarjimalarida ham ayrim turkmancha so‘z va iboralar bilan bog‘liq nuqsonlar ko‘zga tashlanadi.

Shundan keyin turkman adabiyotidan tarjima qilish bilan shug‘ullanib, ko‘plab mumtoz va zamonaviy turkman shoirlari asarlarini o‘zbek tiliga o‘g‘irgan shoir va tarjimon Olim To‘rayev Mahtumquli ijodidan o‘g‘irgan 45 ta she’rini alohida to‘plam holida e’lon qildi. U ham taniqli turkman shoirining “Zamonidir”,

“Qoldi”, “Mubtalo qildi”, “Bugun”, “Fosh etar seni”, “Muhtoj aylama”, “Aylading meni”, “Izlarman”, “Qora ko‘zlarining”, “Ichar bir kun”, “Ko‘rgan ko‘zlarim” kabi she‘rlarini ancha muvaffaqiyatli tarjima qilgan. To‘g‘risi, Olim To‘rayev qalamiga mansub tarjimalarning ko‘pchiligi muvaffaqiyatli chiqqanini alohida ta’kidlash lozim.

Taniqli shoir va mohir mutarjim Mirzo Kenjabek uning asosan diniy va tasavvufiy mavzulardagi 170 ta she‘rini o‘z tarjimasida alohida kitob holida nashr etish bilan Mahtumqulini “valiy shoir” sifatida tanitdi. Tarjimon kitob boshiga “Mahtumquli – valiy shoir” nomli so‘zboshi yozib, shoir she‘rlarining diniy-tasavvufiy asoslarini ochib berishga harakat qiladi. Bu bejiz emas. Chunki diniy-tasavvufiy she‘rlar shoir ijodiy merosining asosiy qismini tashkil etadi. Mirzo Kenjabek Mahtumqulining bir necha o‘nlab she‘rlarini mahorat bilan o‘zbekchaga o‘girdi. U Mahtumqulining aruzdagi g‘azal va muxammaslarini ham mumtoz vaznga mos ravishda tarjima qilgani kuzatiladi. Holbuki, boshqa tarjimonlar aruzni bilmaganlari tufayli shoirning aruz vaznidagi she‘rlari tarjimasida uquvsizlik qilganlar. Lekin asliyatga ancha muvofiq, ravon va jarangdor tarjima qilinganiga qaramay, arabiy-forsiy so‘z va iboralarining meyoridan ortiq qo‘llangani ham kuzatiladi.

Har qanday tarjimada she‘r qofiyasi hozirgi o‘zbek o‘quvchisi uchun tushunarsiz so‘zlar bo‘lsa, ularni aynan qoldirib, matn ostida izohlar bergandan ko‘ra, adabiy matnga ijodiy yondashish, asliyatning mazmunini saqlagan holda she‘r tuzilishini qayta ko‘rib chiqish yaxshi samara beradi. Qardosh tillardan tarjima talabi shunday: tushunarli so‘zlar, misralar, bandlar o‘zicha o‘tkaziladi, tushunarsiz so‘zlar tushunarlisi bilan almashtiriladi, lozim bo‘lganda butun she‘r tarkibi qayta shakllantiriladi. Misol uchun, “Maydon yo‘liqsa” she‘ri tarjimasida uchinchi bandning dastlabki ikki misrasidagi qofiya bo‘lib kelgan so‘zlar tarjima o‘quvchisiga tushunarsiz bo‘lgani uchun E.Ochilov ulardan voz kechadi va yangi qofiyalar asosida bandni qayta shakllantiradi:

Asliyatda: Иши дүрст гелмез көңүл ченине,
Додагини дишлэп, «ах» дийр зенине.
Йилан зэхри болуп яйрир тенине,
Йигит гаррир хатин яман ёлукса.

Tarjimada: Omadi yurishmas ko‘ngilni xushlab.
“Oh!” – der xotiniga labini tishlab,
Taniga yoyilar zaharga o‘xshab,
Yigit qarir ayol yomon uchrasa.

Ba‘zan turkman tilini yaxshi bilmaslik tarjimonni adashtiradi. Masalan, E.Ochilov ham o‘zining dastlabki tarjimalarida bir qator xatolarga yo‘l qo‘ygan.

Avvalgi mutarjimlarning ba'zi xatolari uning tarjimasida ham aynan takrorlangan (masalan, so'nam – (sanam), jaxillik – (johillik), dulluk – ko'p (to'liq so'zidan kelib chiqib), k z (cho'g') – ko'z, ishiq (chiroq) – oshiq va hokazo). Uni ham sof turkmancha so'zlar va soxta ekvivalentlar chalg'itgani kuzatiladi.

Taniqli shoir Jumaniyoz Jabborov Mahtumqulining 10 ta she'rini tarjima qilib, “Jahon adabiyoti” jurnalida e'lon qildi. Ulardan 9 tasi keyin “Dunyo o'tib boradir” to'plamiga ham kiritildi. Bu tarjimalar silliq, ravon, o'zbek tilida jaranglab chiqqan. Lekin tarjimon asliyatni ancha-muncha erkin talqin qilgani uchun ayrim kamchiliklarga ham yo'l qo'ygan. Odatda, shoir-tarjimonlar tarjimada aniqlikka emas, ravonlikka intiladilar: toki tarjima asliyatdan bir qadar chekinsa-da, o'zbek tilida jaranglab chiqsin! J.Jabborov tarjimalarida ham xuddi shu xususiyatni ko'ramiz. Asliyatda:

Ёлдаш болсаң диле дүшмез мур биле,
Ферш тапмайин, биле ятсаң мар биле,
Йигрим алти керет, йүз мүн әр биле,
Карун хазинасин гола алдим тут!

Mazmuni: (Til bilmas chumoli bilan yo'ldosh bo'lsang, joy topmay, ilon bilan birga yotsang ham yigirma olti marta yuz ming er bilan Qorun xazinasini qo'lga kiritdim deb hisobla).

Qorun – Muso alayhissalomning amakivachchasi. Boyligi had-hisobsiz bo'lsa-da, xayrli ishlarga sarflamagani uchun oxir-oqibatda butun xazinalari bilan birga uni yer yutadi. Qorun mumtoz sharq adabiyotda harislik, xasislik timsoli bilan metaforik ma'no tashiydi.

Abdumo'min Jumayev va Jumanazar Zulpiyevlar shoirning 233 ta she'rini o'zbekchalashtirib, “Saylanma” nomi ostida e'lon qildilar. Bu tarjimalar ularning o'zidan oldingi tarjimonlarga nisbatan turkman tilini birmuncha yaxshi bilishlarini ko'rsatadi. Chunki ularni boshqa barcha tarjimonlarni chalg'itgan “aldoqchi so'zlar” – soxta ekvivalentlar deyarli chalg'itgan emas. Avvalgi tarjimonlar yo'l qo'ygan ko'pdan-ko'p xato-nuqsonlarni tuzatib ketishgan. Jumladan, “Chilimkash” she'ri tarjimasida J.Sharipov “indir” ma'nosidagi “xindir” so'zini “hinddir” deb xato tarjima qilgan edi – A.Jumayev va J.Zulpiyevlar bu xatoni tuzatib ketganlar. Asliyatda:

Иман бир тилкидир, гөвре бир хиндир,
Тилки түссә дөзмез хинде, чилимкеш!
J.Sharipov tarjimasi:

Imon bir tulkidir, tani bir hinddir,
Tutunga chidamas tulki, chilimkash.

A.Jumayev va J.Zulpiyevlar tarjimasi:

Iymon bir tulkidir, vujud bir indir,

Tulki dudga to‘zmas inda, chilimkash!

Lekin ular “хнн” so‘zini in deb to‘g‘ri tarjima qilganlari holda “dözmez” so‘zini “to‘zmas” deb o‘g‘irish bilan o‘zlari ham soxta ekvivalentga aldanib qoladilar: “dözmak” – turkman tilida sabr qilmoq, chidamoq, bardosh bermoq ma’nolarida keladi, o‘zbek tilida esa u sochilmoq, sovrulmoq ma’nolarida qo‘llanadi. Holbuki, shoir aytmoqchiki: Tan bir inu iymon bir tulkidir, lekin tulki indagi tutunga chidamaydi, ey chilimkash! Chidamaydimi, demak, qochib ketadi, ya’ni iymon ham g‘ubor bosgan vujudni tark etadi. J.Sharipov “in” so‘zini tushirib qoldirgan bo‘lsa-da, ikkinchi misrani to‘g‘ri tarjima qilgan, lekin birinchi misrada mantiq yo‘q: “Iymon bir tulkiyu tani esa hinddir”. A.Jumayev va J.Zulpiyevlar tarjimasida aksincha: birinchi misra to‘g‘ri o‘g‘irilganu ikkinchi misra xato: “Tulki uydagi tutunga to‘zg‘ib – mahv bo‘lib ketmaydi”.

Folklorshunos O.Safarov 1964-yili Mahtumqulining “Fuqaroman” va “Har yona” she’rlarini tarjima qilgan. Turkman tilidan bexabar holda va hech bir tayyorgarliksiz tarjimaga qo‘l urgani tufayli u har ikki she’rda ham ko‘plab xatolarga yo‘l qo‘ygan. “Har yona” she’ridagi “Qadr bilgandan ajratma” ma’nosidagi “Gadir bilenden dash etma” misrasini “G‘addor bilan tengdosh etma” deb tarjima qiladi. “Yori yo‘qqa mador bo‘lmas” ma’nosidagi “Ayalsiza midar bolmas” misrasini “Ayolsizda ona bo‘lmas” tarzida o‘zbek tiliga o‘giradi. Bu yerda “mador” so‘zini tojikcha “modar” deb tushungan. Shuningdek, yolsuzligi – yo‘lsizlikni so‘zini yolg‘izlikni, ele – qo‘lgani elga deb tarjima qiladi. O‘zbek o‘quvchisiga tushunarsiz bo‘lishiga qaramay, pes (yomon, yaramas) va erkana (erkin) so‘zlarini aynan qoldirgan.

Qardosh shoirlarning go‘zal, ta’sirchan she’rlarini o‘qigan odamda ularni tarjima qilish niyati tug‘iladi. Biroq bir qarashda juda osondek ko‘ringan badiiy matnlar zahirida tushunilishi lozim bo‘lgan falsafa va tarjimonlik mahoratini egallashdek mehnat-mashaqqat yotibdi. “Yaqin tillardan tarjima qilish oson ish bo‘lmay, uning ham o‘ziga xos murakkabligi, qiyinchiliklari bor”.

Sho‘rolar davrida Mahtumquli asarlari birgina J.Sharipov tomonidan tarjima qilingan (M.Shayxzoda va M.Ali faqat bittadan she’rlarini o‘zbekchalashtirganlar) va katta adadlarda qayta-qayta bosilgan bo‘lsa, mustaqillik yillarida shoir she’rlari tarjimonlari soni keskin ortdi. J.Jabborov, O.Safarov, N.Muhammad, M.Pirriyev va A.Hamrolar uning bir nechta she’rlarini o‘g‘irishgan bo‘lishsa, M.Ahmad, O.To‘rayev, M.Kenjabek, A.Jumayev va J.Zulpiyev, E.Ochilov, M.Azimlar o‘z tarjimalarini alohida to‘plamlar holida chop ettirishdi. Ularning har biri mukammal tarjima yaratish yo‘lida o‘ziga xos bosqich ekani va asosan shoirning ilgari tarjima qilinmagan yangi she’rlaridan

iboratligi jihatidan Mahtumquli merosini o‘zbek xalqiga to‘laligicha yetkazish yo‘lidagi izchil intilishlar natijasi ekani bilan alohida ahamiyatga ega. Eng muhimi, yarim asr mobaynida Mahtumquli asarlari tarjimasiga 16 nafar tarjimon qo‘l urishining o‘zi shoir nomining o‘zbek xalqi orasida qanchalik mashhurligi, uning she‘rlari tarjimasiga zamon talabi, o‘quvchilar ehtiyojining kattaligidan dalolat beradi.

Albatta, Mahtumquli merosi o‘zbek tiliga to‘la tarjima qilingan. Ba’zi asarlarining besh, olti, hatto yetti tarjima nusxalari mavjud. Lekin bu shoir she‘rlari tarjimasida borasidagi ishlar nihoyasiga yetdi degani emas. Deyarli barcha tarjimonlar so‘zma-so‘z tarjima qilib, o‘z tarjimalarida xatolarga yo‘l qo‘ygan o‘rinlari borki, bu hol kelgusida Mahtumquli she‘rlarining poetik jihatdan yetuk tarjimalarini amalga oshirish zaruriyatini ko‘rsatadi.

Shoir she‘rlarining o‘zbekchadagi mukammal, asliyatga yaqini nisbatan Jumaniyoz Sharipov tarjimalari bilan bog‘liq. Bilamizki, avvalgi tarjimalar keyingi tarjimonlarga u yoki bu muammo yechimi uchun yo‘l ko‘rsatishlari, kamchiliklarni bartaraf etishga turtki berishlari tabiiy. Binobarin, avvalgi tarjima keyingisiga bevosita va bilvosita ta’sir o‘tkazadiki, faqat undan bexabar tarjimongina bunday ta’sir qirralaridan mosuvo qolishi mumkin. Shuning uchun, keying yillarda biz (F.S.) J.Sharipov tarjimalarining o‘zbek madaniy-adabiy hayotida qanchalik katta rol o‘ynagani, o‘zidan keyingi tarjimonlarga nechog‘lik ta’sir o‘tkazganini aniq misollar bilan tahlillab bergan tadqiqotlarimiz mavjud.

Savol: O‘zbek adabiyotidagi Mahtumqulining badiiy siymosi talqinlari haqida, mahtumqulishunoslik haqida va nihoyat shoir 300 yilligining nishonlanishi haqida to‘xtalib o‘tsangiz?

Javob: Mahtumqulining badiiy siymosi o‘zbek adabiyotida muhim mavzulardan biri bo‘lib, uning shaxsiyati va ijodi turli davrlarda yozilgan asarlar, maqolalar va dramatik sahnalar orqali yoritilgan. Ya’ni, o‘zbek adabiyotida Mahtumquli ko‘pincha xalq birligi, istagi, dardi, manfaatini ifodalovchi, milliy uyg‘onish g‘oyalarini tarannum etuvchi alloma sifatida tasvirlanadi. U o‘z davrining adolatsizliklari va siyosiy-ijtimoiy muammolarini yorqin aks ettirganligi sababli, o‘zbek adabiy doiralarida milliy o‘zlik va birlik ramzi sifatida qabul qilingan. Fitrat Mahtumquli haqida yozar ekan, uni “milliy uyg‘onishning ifodachisi” sifatida talqin qilib, shoirning dunyoqarashi va falsafiy qarashlariga chuqur kirib brogan, uning xalq og‘zaki ijodi va o‘sha davrdagi Turkiston adabiyotiga bo‘lgan ta’sirini yuqori baholagan. Oybek o‘z maqolalarida Mahtumqulining ijodini romantik usulda talqin qilib, shoirni adolat, sevgi va xalq ozodligi timsoli sifatida tasvirlagan. Oybek, ayniqsa, Mahtumquli she‘riyatidagi xalqchilik va insonparvarlik g‘oyalariga alohida urg‘u bergan.

Mahtumqulining she'riyati o'zbek shoirlariga ilhom berdi, yozuvchi va dramaturglarni ham qiziqtirdi. O'zbek sahnasida Mahtumquli qiyofasini gavdalandirish, shoirning hayot va ijod yo'li bilan xalqimizni yaqindan tanishtirish uchun dramaturglar, san'atkorlar astoydil harakat qilishdi. O'tgan asrning 60-yillari ikkinchi yarmida atoqli turkman yozuvchisi Berdi Kerboboyevning muqaddimali, to'rt pardadan iborat "Mahtumquli" ("Xalq shoiri") dramasi mashhur adib Komil Yashin tomonidan o'zbek tiliga tarjima qilindi va Muqimiy nomidagi musiqali drama va komediya teatrida Xalq artisti Razzoq Hamroyev tomonidan sahnalashtirildi. Atoqli bastakor Dadaali Soatqulov asarga kuy bastaladi. Dramadagi Mahtumquli, Ozodiy, Chovdur, Mengli, Oxun va boshqa obrazlarni teatrning yetakchi aktyor va aktrisalari T.Badinov, M.Yunusov, X.Umarov, R.Boltayev, M.Karimova, R.Shokirovlar mahorat bilan ijro etishdi. O'zbek teatri sahnasida Mahtumquli obrazining paydo bo'lishi respublikamiz madaniy hayotida ulkan voqea sifatida qabul qilindi. Musiqali drama ko'p yillar davomida sahnada namoyish etilib, o'zbek tomoshabinlariga Mahtumquli shaxsiyati, ijodiy faoliyati va u mansub ijtimoiy-tarixiy sharoit, adabiy muhit haqida yaxshi ma'lumot beradigan asar sifatida o'zbek teatri tarixidan munosib o'rin egalladi. Dramaning muvaffaqiyatli sahnalashtirilgani haqida O'zbekiston va Turkmaniston matbuotida ijobiy fikrlar bildirildi.

1980-yilda dramaning Komil Yashin tarjimasidagi matni adib "Asarlar"ining oltinchi jildiga kiritilib, nashr etildi.


Mahtumquli Firog'iy ijodi ko'plab ijodkorlarni ilhomlantirgan. Shoirga bag'ishlab turkman ijodkorlari – Berdi Kerboboyev, Annaberdi Agamuradov, Ovez Goklen, o'zbek ijodkorlari – Shayxzoda, Mirtemir, Shuhrat (G'ulom G'ulomov), Nozim Hikmat, Musa Jalil, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Mirzo Kenjabek, Sirojiddin Sayyid, qoraqalpoq ijodkorlari – Ibroyim Yusupov, Abulqasim Utepbergenov, Guliston Matyoqubova, Sag'inbay Ibragimov kabi qator ijodkorlar o'z ijod namunalarida Mahtumqulini she'rlaridagi g'amgin, dardli kayfiyatni aks ettiruvchi obrazlarni jonlantirgan. Bu talqinlarda shoir hayoti va ijodidagi ichki ziddiyatlar alohida ko'rsatib berilgan.

Ba'zi adabiy asarlarda Mahtumquli siymosi badiiy personaj sifatida tasvirlangan. Mirkarim Osim, Qurbon Muhammadrizo, qoraqalpog'istonlik Abulqasim Utepbergenov o'zlarining tarixiy roman, doston va dramalarida Mahtumquli shaxsiyati va ijodiga bir necha bor murojaat qilgan. Ular shoirni haqiqatni izlovchi, o'z xalqi uchun jon kuydiruvchi inson sifatida tasvirladilar.

Mahtumquli she'riyatining teatr va sahna talqinlari, badiiy siymosi o'zbek teatr san'atida o'ziga xos aks etgan. U haqida yozilgan sahna asarlari va spektakllar qatorida xorazmlik dramaturg Qurbon Muhammadrizoning to'rt parda, sakkiz ko'rinishli "G'urbatda g'arib" ("Mahtumquli") nomli musiqali

dramasida shoirning insoniy fazilatlari, xalqparvarlik va milliy uygʻonish gʻoyalari kengroq ochib berilgan. Dramadagi sakkiz koʻrinishdan beshtasi Mahtumqulining bevosita Xivadagi hayoti va ijodiga bagʻishlangan. Adib Mahtumquli shaxsi, ijodiy salohiyati xususida keng koʻlamda asar yaratishni maqsad qilib, 2010-yilda “Mahtumquli” tarixiy romanini yozib tugatdi va oʻsha yili Urganchda “Xorazm” nashriyotida chop ettirdi.

Qoraqalpoq shoiri Abulqasim Utepbegenov Mahtumquli anʼanalarini faqat lirik sheʼrlaridagina emas, liro-epik asarlarida ham davom ettirdi. Yangi jamiyat, yangi maʼnaviy-ahloqiy konsepsiyalarni yoritishda Mahtumquliga murojaat etdi, yangi gʻoyalarni targʻib qilishda turkman shoiri merosidagi mustaqillik zamoniga hamohang jihatlardan ilhom oldi, ularni asarning ruhiga singdirishga erishdi. Mahtumqulining ham shaxs, ham ijodkor sifatidagi timsoli muallif uchun muayyan gʻoyalarni ifodalashga yordam berdi. Shoirning “Allohingni unutma”, “Allohda ham hisob bor” dostonlarida bu izlanishning yaxshi samarasini koʻrdik. Mazkur asarlar asosida sahnalashtirilgan spektakllar Mahtumqulining hayoti va ijodini turli zamonaviy tahlillar bilan uygʻunlashtirib, uni oʻz davrining shaxsiy va ijtimoiy masalalariga javob izlovchi shoiri sifatida talqin qilgan.



Mahtumquli turkiy dunyoning buyuk shoiri sifatida barcha turkiy xalqlar, jumladan, ozarbayjon adabiyoti va madaniyatida ham muhim oʻrin tutadi. Qardosh ozarbayjon ijodkorlari ham Mahtumquli Firogʻiy haqida yozganlar, uning ijodini yuksak qadrlaganlar. Ozarbayjonlik Xalil Riza Uluturk – Mahtumqulining ozodlik va insonparvarlik gʻoyalarini yuksak baholab, uning falsafasini Ozarbayjonning milliy uygʻonish harakati bilan bogʻlagan. Shuningdek, Baxtiyor Vahobzoda ham shoirning

gʻoyalari va sheʼriyatidan ilhomlanib, uning oʻz xalqi va vataniga boʻlgan sadoqatini asarlarida tarannum etgan. Samad Vurgʻun – Mahtumqulining oʻlmas gʻazallarini qadrlab, ularni turkiy adabiyotning bebaho boyligi deb atagan. U shoirning falsafiy lirikasini chuqur tushungan ijodkorlardan biridir. Ozarbayjonning zamonaviy yozuvchilaridan biri boʻlgan Anar Rizayev

Mahtumquli ijodiy merosi haqida maqolalar yozgan va turkiy adabiyotda uning ahamiyatini ko'rsatib bergan zamonaviy ijodkor.

Ozarbayjon shoiri Fuzuliy va Mahtumquli ijodiy yo'nalishida falsafiy va lirik mushtaraklik borligi sababli, ozar adiblari ko'pincha ularni birga tahlil qilganlar. Ozarbayjon va Turkmaniston o'rtasidagi adabiy-madaniy aloqalar tufayli Mahtumqulining asarlari Ozarbayjon tiliga tarjima qilinib, uni yuksak baholash hozirda ham davom etmoqda. Mahtumquli she'riyati o'zbek va qoraqalpoq xalqlari singari qardosh ozarbayjon xalqi orasida ham katta hurmatga ega ekanligini alohida ta'kidlash lozim.

Bugungi o'zbek adabiyotida Mahtumqulining siymosi milliy adabiyotlar uyg'unligi va madaniy aloqalarning ramzi sifatida talqin qilinadi. Ayniqsa, uning xalq dardini kuylagan she'rlari global ahamiyat kasb etgani, milliy o'zlikni anglash masalasida muhim ekani qayd etiladi. Zamonaviy tadqiqotchilar, xususan, o'zbek adabiyotshunoslari Mahtumquli ijodini turkman va o'zbek adabiy an'analari o'rtasidagi ko'prik deb baholaydi.

Mahtumquli hayoti va ijodi, asarlari, tarjimalari o'zbek olimlarining ham hamisha diqqat markazida bo'lib kelgan. Jumladan, xorazmlik taniqli adabiyotshunos olim Hamdam Abdullayev "Mahtumquli va o'zbek adabiyoti" mavzuidagi nomzodlik dissertatsiyasini 1968-yili Ashxobodda – turkman olimlari huzurida muvaffaqiyatli himoya qilgan. U o'z tadqiqotida Mahtumquli va Xorazm adabiy muhiti, shoir asarlarining Xorazm folkloriga ta'siri hamda she'rlarining xalq baxshilari, xalfalari va hofizlari tomonidan kuylanishi masalalarini tekshirgan. Marhum ustoz Karimboy Quromboyev butun umr o'zbek-turkman adabiy aloqalari va Mahtumquli ijodini o'rganib keldi. Mazkur izlanishlari asosida u "O'zbek-turkman adabiy aloqalari" (1978) nomli salmoqli monografiyasi hamda "Mahtumquli she'riyati O'zbekistonda" (1984) nomli risolasini e'lon qildi. Risola buyuk turkman shoirining hayoti va ijodi, adabiy aloqalarga ta'siri, Mahtumquli she'riyatining xalqchil asoslari va o'zbekcha tarjimalari tahlili masalalariga bag'ishlangan. Zahmatkash olim o'zining Mahtumquli bilan bog'liq barcha izlanishlari natijalarini bir yerga jamlab, "Mahtumquli – ilhom chashmasi" nomli salmoqli kitobini o'zbek o'quvchilari e'tiboriga havola etdi (2012).

Bundan tashqari, Vohid Zohidov, Vohid Abdullayev, Natan Mallayev, Rahmonqul Orzibekov, Baxtiyor Nazarov, Bahodir Karimov, Ergash Ochilov, Qobil Tohirov, Rahmatulla Inog'omov, O'g'ulboy Gayliyeva, Gulandom Quramboyevalar shoir ijodini o'zbek-turkman adabiy aloqalari nuqtai nazaridan o'rgangan bo'lsalar, G'aybulla Salomov, Masharif Saporov, Rahmatilla Barakayev, M.Taylaqova (shu jumladan biz F.S. – aksariyat tadqiqotlarimiz) lar shoir asarlarining o'zbekcha tarjimalari yuzasidan tekshirishlar olib bordilar.

Adabiyotshunos Bahodir Karimov 2024-yilda yozilgan “Mahtumquli – insoniyat shoiri” risolasi bilan shoir tavalludining 300 yilligi munosabati bilan tashkillashtirilgan “Vatan uchun yashaylik” respublika tanlovining g‘olibi bo‘ldi. Oxunjon Safarov, Mamatqul Jo‘rayevlar Mahtumquli va o‘zbek folklori munosabatlarini tadqiq etgan bo‘lsalar, Ibrohim Haqqul Mahtumquli she‘riyatining mavzu ko‘lami va obrazlar olamini tahlil qiladi, Ahmad Yassaviyning shoir ijodiga ta‘sirining ayrim nuqtalarini ko‘rsatib o‘tadi.

Geograf olim Hamidulla Hasanov esa Mahtumquli sayohat qilgan joylar bilan qiziqib, uning qayerlarda bo‘lganini aniqlashga intiladi. U shoir asarlarida 70 dan ortiq joy nomlari uchrashini sanab ko‘rsatadi. Jumaniyoz Sharipov, Asqad Muxtor, Sodirxon Erkinov, Salohildin Mamajonov, Suyima G‘aniyeva, Najmiddin Komilov kabi qator olimlarning maqolalari asosan umumlashtiruvchi xarakterga ega bo‘lib, ular o‘zbek o‘quvchilarini ulug‘ turkman shoirining hayoti va ijodi, faoliyati, asarlarining asosiy g‘oyalari bilan tanishtirishga yo‘naltirilgan. S.Shukrullayeva O‘zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondida saqlanayotgan Mahtumquli asarlari qo‘lyozmalarini tadqiq etadi.

Mahtumquli ijodining O‘zbekistonda o‘rganilishi va shoir asarlarining o‘zbekcha, qoraqalpoqcha, ozarbayjoncha tarjimalari bo‘yicha yuzdan ortiq maqolalarimizni Respublika (xorijda: Rossiya, Ukraina, Turkiya, Turkmaniston, Ozarbayjon, AQSH, Hindiston, Germaniya, Ispaniya, Buyuk Britaniya)da, shuningdek, ikkita monografiya, shundan bittasi Germaniya (Berlin)da e‘lon qilishga erishdik.

O‘zbek baxshi va xalfalari, hofiz va bastakorlari, shoir va olimlari, tarjimon va nashrlari O‘zbekistonda Mahtumquli hayoti va ijodini o‘rganish, asarlarini tarjima qilish va o‘quvchilarga yetkazish, pandu hikmat bilan sug‘orilgan chuqur ma‘noli she‘rlarini kuyga solish va kuylash, xalq ichida keng targ‘ib va tashviq qilish borasida katta ishlarni amalga oshirdilarki, Ustoz Karimboy Quramboyev ta‘biri bilan aytganda, “O‘zbekistonda ham mahtumqulishunoslik maktabi vujudga keldi”, deb aytish mumkin.

Mahtumqulining badiiy siymosi o‘zbek adabiyotida ko‘pincha – milliy uyg‘onish, xalqning ruhiy holati, adolatga intilish va diniy-ahloqiy qadriyatlarni targ‘ib qiluvchi shoir sifatida talqin qilinadi. Bu talqinlar asosan o‘zbek va turkman xalqlari o‘rtasidagi madaniy aloqalarni yanada mustahkamlashga xizmat qilib kelmoqda. Mahtumquli siymosini milliy o‘zlikni anglash va qadriyatlarni tiklashda ramziy ahamiyatga ega deb qarash mumkin.

Hurmatli Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta‘kidlaganlaridek, “Mahtumquli nafaqat turkman, balki o‘zbek xalqi uchun ham g‘oyat ardoqli va

suyukli siymo” ekani bilan biz haqli ravishda faxrlanamiz. Bugungi kunda o‘lkamizda Mahtumqulining dilbar she’rlari va qo‘shiqlari doimo yangrab, qalblarimizda yashab kelmoqda. Hech shubhasiz, uning boqiy asarlari azaldan bir-biriga qardosh va yelkadosh bo‘lgan xalqlarimiz o‘rtasidagi do‘stlik tuyg‘ularini yanada mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Hammamizga ma’lumki, Mahtumquli Firog‘iy tavalludining 300 yilligini keng nishonlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori (19.02.2024-yildagi PQ-76-son) qabul qilingandi. Ushbu sanaga bag‘ishlab 2024-yili yil davomida adabiy kechalar, tanlovlar, ilmiy anjuman va seminarlar o‘tkazildi. Teatrlarimizda shoir haqida spektakllar qo‘yilib, o‘zbek va turkman kino ustalari hamkorligida badiiy film suratga olindi.

Ma’lumki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2024-yilning 11-oktabr kuni Ashxobod shahrida turkman shoiri va mutafakkiri



Mahtumquli Firog‘iy tavalludining 300 yilligiga bag‘ishlangan “Zamon va sivilizatsiyalarning o‘zaro bog‘liqligi – tinchlik va taraqqiyot asosi” mavzusidagi xalqaro forumda ishtirok etgan edi. O‘zbekiston rahbari Turkman xalqining milliy yetakchisi Gurbanguli Berdimuhamedovga Mahtumqulining o‘zbek tilida nashr etilgan “Tanlangan asarlari” to‘plamini sovg‘a qildi. Ushbu kitobning taqdimoti Ashxobod shahrida bir guruh o‘zbekistonlik delegatsiya a‘zolari bilan birgalikda 16-oktabr sanasida (Xalqaro aloqalar universitetida) yuqori darajada munosib tashkillashtirildi.

Bugun Toshkent shahri va hududlarimizdagi o‘nlab ko‘cha va xiyobonlar Mahtumquli nomi bilan ataladi. Toshkent va Xiva shaharlarida bu ulug‘ siymo xotirasiga bag‘ishlab bunyod etilgan yodgorlik majmualari tabarruk ziyoratgohlarga aylangan.

FILOLOGIYA

MATNAZAR ABDULHAKIM IJODIDAGI O'G'IZ SHEVASIDA YARATILGAN SHE'RLARNING AHAMIYATI

UO'K 90.240



**Sayyora
SAMANDAROVA,**
Filologiya fanlari
nomzodi, dotsent



**Umid
BEKMUHAMMAD,**
Tarix fanlari bo'yicha
falsafa doktori

Annotatsiya: Ushbu maqolada Matnazar Abdulhakim tomonidan yaratilgan o'g'iz shevasidagi she'rlar tahlil etiladi. Shu bilan birga Xorazm viloyati hududidagi o'g'iz va qipchoq shevasi to'g'risida ham ilmiy mulohazalar yuritiladi.

Аннотация: В статье анализируются стихотворения на огузском диалекте, созданные Матназаром Абдулхакимом. В то же время ведутся научные исследования относительно огизских и кыпчакских диалектов в Хорезмской области.

Annotation: This article analyzes the poems in the Ogiz dialect created by Matnazar Abdulhakim. At the same time, scientific considerations are made about the Ogiz and Kipchak dialects in the Khorezm region.

Kalit so'zlar: Adabiyot, she'r, sheva, Bahodir Sodiq, Urganch, Xorazm, Turkiya, Ozarbayjon.

Ключевые слова: Литература, поэзия, диалект, Баходир Садык, Ургенч, Хорезм, Турция, Азербайджан.

Key words: Literature, poetry, dialect, Bahodir Sadiq, Urgench, Khorezm, Turkey, Azerbaijan.

XX asr o'zbek adabiyoti, xususan Xorazm adabiy muhitida Matnazar Abdulhakimning ijodi o'ziga xos o'ringa ega. Shoir tomonidan yaratilgan nafis she'rlar, dostonlar va tarjima qilingan asarlar, adabiy-tahliliy maqolalar Matnazar Abdulhakimning adabiy-ilmiy merosi sifatida tadqiq qilishga arziydi. Ayniqsa, shoir tomonidan yaratilgan o'g'iz shevasidagi she'rlar o'zbek adabiyotida muhim adabiy yangilik bo'lgan va Turkiya, Ozarbayjon va Qozog'iston adabiy-ilmiy doiralarida ham qiziqish uyg'otgan edi.

Ma'lumki, 21 yoshida vafot etgan Bahodir Sodiq (1959-1980) tomonidan o'z davrida eng noyob o'g'iz shevasidagi she'rlar yaratilgan. Oradan vaqt o'tib, Matnazar Abdulhakim ham Bahodir Sodiq yaratgan an'anani davom ettirdi.

“Xorazm aholisi ikki sheva - o'g'iz va qipchoq lahjasida gaplashishadi. Hazorasp, Xonqa, Yangiariq, Xiva, Bog'ot, Urganch, Qo'shko'pir, shovotliklar

o'g'iz lahjasida "gaplasalar", shimoliy hududdagi Yangibozor va gurlanliklar qipchoq lahjasida "so'yliydi". To'g'ri, ushbu lahjalar o'rtasida ham ayrim farq bor. Gohida ikki lahjada so'zlashuvchi yoshroq insonlar suhbatlashib qolishsa, bir-birining so'zlarini tushunmagan holatlar ham bo'ladi. Shu boisdan ham Xorazmning tarixi, san'ati, uning jahon ilm-faniga qo'shgan hissasiga qiziqib vohaga kelgan professor S.Volin "X asrdagi jug'rof va sayohatchilar Xorazmning Sharqiy Eron va O'rta Osiyoning boshqa mintaqalaridan tili, urf-odatlarini bilan keskin ajralib turganligini ta'kidlashgan. Ana shu xususiyatlar hozir ham saqlanib qolgan. Toshkent, Buxoro, Ashxobod va Chorjo'ydan keyin Xiva yoki To'rtko'lga kelsang, xuddi urf-odatlarini, kiyimlari, me'morchiligi butunlay o'zgacha bir mamlakatga tushib qolgandek bo'lasan. Shaharlar va qishloqlarning yangi qiyofasi, hatto bu yerdagi shevalarga asoslangan o'zbek tili ham boshqalardan ajralib turadi", deya hayratlangan edi".[1]

A.Freymaning doktorlik dissertatsiyasi va 1950-yilda Leningradda nashr etilgan "Xorazmiylar tili" kitobida yuzlab hozirgi kunda ishlatilmaydigan, ba'zi o'zgarishlarga uchragan so'zlar va ularning ma'nosi berilgan.

Xorazmdagi har ikkala shevani (lahjalarini) tadqiq qilgan professorlar Fattoh Abdullaev, Otanazar Madrahimovlarning ta'kidlashlaricha, qadimdan shu makonda yashab kelgan xorazmliklar XIII asrga kelib o'z tilini yo'qotgan va o'g'iz turkiy qabilalari bilan aralashib ketgan. VIII-IX asrlarda olonlar, oslar va arablar istiqomat qilgan vohada XIII asrdan ko'plab turkiy urug'lar o'troqlasha boshlagan, o'g'izlar, shuningdek qipchoqlarning tili ustunlashib, turkiylashish kuchaya boshlagan.

Agar Xorazmdagi o'g'iz lahjasida "gapliyidigan" aholi hayotiga razm salsak, urug'larga bo'linish bo'yicha oldindan kelayotgan an'analarning biroz unitilganini anglash mumkin. Bu borada urug'larning nomi ayrim etnotoponimlar holatida saqlanganini ko'ramiz.

Qipchoq lahjasida "so'yliyidigan" o'zbeklar esa urug'larga bo'linish an'alarini va o'zlarining aynan qaysi urug'ga mansubligini bilishini anglash mumkin. Shuningdek, qishloq va ovul nomlari ham aynan o'zbek urug'lari nomi bilan qipchoq lahjasida "so'yliyidigan" hududlarda ko'pligini ko'rsatadi. Masalan, Saxtiyon, Mang'it, Qiyot, Shirinqo'ng'irot, Qangli, Nayman, Jaloyir, Olchin va boshqalar.

Shu bilan birga Bog'olon, Mingbog'olon, Cho'bolonchi singari o'tmishda Xorazmda yashab, keyinchalik Kavkazga ko'chgan olonlar bilan bog'liq qishloq nomlari ham qipchoq lahjasida "so'yliyidigan" hududlarda mavjud.


"Professor Fattoh Abdullaevning tadqiq etishicha, Xorazm shevalarini dastlab ikkita: o'g'iz va qipchoq lahjalariga, qipchoq lahjasining o'zini uchtaga : 1) "j"lashgan; 2) "y" lashgan; 3) "a"lashgan turlarga ajratish mumkin. Qipchoq lahjasida Gurlan, Yangibozor, Qoraqalpog'istonning Amudaryo, Beruniy tumanlari aholisi gaplashishadi. Shuningdek, Xonqa, Bog'ot kabi Janubiy Xorazmdagi ayrim tumanlarning nayman, qangli, qiyot ovullarida ham qipchoq lahjasida gaplashuvchi kishilar istiqomat qiladi".[2]

Indavak, Irdimzon, Vayangan, Pitnak, Vadok, Juryon, Nuzvar, Rafanik, Pishkanik, Xinaxos, Navxos kabi qishloqlar nomining o'ziyoq eshitgan insonga g'ayritabiiy tuyuladi. Bular o'g'iz lahjasida "so'lliydigan" kishilarning yashash joylaridan ayrimlari, xolos.

Shuningdek, har ikkala lahjada ham, zangi (narvon), patik (ship), sarxum (krujka), jo'rop (paypoq), rosh (qirg'oqqa chiqarilgan tuproq uyumi), zamcha (handalak), zamariq (qo'ziqorin), kapcha (kichik belkurak), bolor (to'sin), poyapil (ko'prik) kabi ko'plab o'zbek adabiy tilida ishlatilmaydigan so'zlar mavjud.

Umuman olganda, Xorazm shevasi o'zbek tilining tarkibiy qismi hisoblanadi va uning adabiy tilimizning takomillashuvi, boyishi va taraqqiyotida o'ziga xos o'ringa ega.

"Xorazm shevalarini A.Freyman, N.Baskakov, V.Radlov, Ye.Polivanov, I.Zarubin, A.Borovkov, K.Yudaxin, V.Reshetov, G'.Olimov, F.Abdullaev, A.Ishaev, O.Madrahimov singari ko'plab olimlar tadqiq qilishgan".[3]



Garchi Xorazm shevasida ko'plab folklor qo'shiqlari va dostonlari yaratilgan bo'lsa-da, XX asr Xorazm adabiy muhitida Matnazar Abdulhakimgacha faqat Bahodir Sodiq o'g'iz lahjasida she'rlar yaratgandi. B.Sodiqdan keyin M.Abdulhakim katta sh'riy turkum va kitob yaratdi. Bu haqda shoirning o'zi quyidagicha yozgan:

"Jahonda bir qancha o'lik tillar bor. Ba'zida o'ylab qolaman – xo'sh, ularning o'limi nimadan boshlangan. Tovushlar, ohanglar poyonsiz, tillarning imkoni sarhad bilmaydi. Biroq, shunisi ham borki, dunyodan nafaqat bitta so'z, balki u yoki bu tilga ziynat bo'lib turgan biron-bir tovush yo'qolsa ham, ma'naviyatimiz uchun bu og'ir judolikdir. Daryolar borib quyilmasa dengizlar qurib qoladi. Xuddi shunday, shevalarimizdan,

lahjalarimizdan jonbaxsh jaranglar, so'zlar, yangi-yangi ifoda imkoniyatlari nasib bo'lib turmasa, har qanday "adabiy til", jumladan, o'zbek adabiy tili ham inqirozga yuz tutish xavfidan emin bo'la olmaydi. Men buning bilan, albatta, e'tiboringizga havola qilinayotgan ushbu she'rlar qandaydir lingvistik maqsadlarda yozilgan, demoqchi emasman. Bu she'rlar ham boshqa

manzumalarim singari muayyan hayotiy kayfiyatlar ta'sirida bitilgan. Biroq, adabiy tilimizdan jiddiy tafovut qiladigan, shuning bilan unga barakali ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga ham ega bo'lgan Xorazm shevamizning o'zim mansub bo'lgan o'g'uz lahjasida mashq qilingan misralarda olislashgan turnalardek xotiradan yiroqlashayotgan talaffuz xususiyatlarimizga, o'ziga xos so'zlarga bo'lgan mehrim ana shu ijodiy kayfiyatning tarkibiy bir qismi desam, mubolag'a bo'lmaydi".[4]

Xorazm shevalari Matnazar Abdulhakim (1948-2010) ning o'g'iz lahjasida bitgan she'rlaridan ayrimlarini taqdim etamiz.

* * *

“Yodimnon chiqmiysiz, og‘o” – dadingmi,
Sog‘inib oqardi sochi og‘ongning.
Bo‘g‘mo ilon bo‘lib bo‘g‘ar oyroliq,
Na garak yodingnon chiqormog‘oning.
Yoddon chiqormog‘on diydor bo‘lomi,
Yorsizliqdan xudo urg‘oni yoxshi.
Yoddon chiqorsom yor hech bo‘lmog‘ondo
Har vohdo bir galib durg‘oni yoxshi.

* * *

Boshing omon bo‘lsin nerda bo‘lsongom,
Go‘zzingdagi yoshing yoddon chiqmosin.
Na-da murod bilan Sultonbovodon
Olib galgan doshing yoddon chiqmosin.
Go‘zyoshloring oqib daryo bo‘lsolo
Mani yurakimni-bag‘rimni dog‘lop.
G‘omni g‘orq ataman Sultonbovodon
Akkagan doshingni bo‘ynimo bog‘lop.

* * *

Yodimnon hech chiqmiyn, go‘rmasam oylob,
Jig‘mi patla atar adi gajaki.
Iyndi o‘tiribdi mongloycho boylob,
Angsamni qotiror dog‘diyn lachaki.

Ko‘ngil qursin, kichchi oxtiqdonom yosh,
Zimiston amas bir ko‘chasi yo‘q hech.
Ishq o‘ti yurakda dik peshin quyosh
Bo‘lib yonavarjak, o‘chasi yo‘q hech.

Bo‘lib-qu boryotir o‘mri gunim gech,
Qorriliq yoshliqo siro soroymos.
Ko‘ngil yoshorishdon to‘xtomiydi hech,
Lekin soqqolimni biri qoroymos.

* * *

Izimnan topmasin begonolo dap,
Izingnan siyirib galyotir soching.
Yo‘ldo olomono qoshing qoching dap,
Yo‘ldo olomono soching dar qoching.
Dasam “Bu galishda paridan zo‘rson”,
“Sani moxtosin dap o‘rvadim” dading.
“Man sani sog‘indim, san na” dap so‘rsom
“Man sani nellada go‘rvadim” dading.

* * *

Sani qizg‘ong‘onnon tilka poromon,
Quvri o‘lgan odom sango boqmiydi.
Alingnan dod atip neyra voromon,
Saningdiyn qiz oxir kima yoqmiydi.
Sani dap yonomon gulxonnon gulgun,
Sani dap bir guni o‘chip getaman.
Yo sani to‘y atip olomon bir gun,
Yo vo‘lmoso berdan ko‘chip getaman.

* * *

Qizil guldiyn olmo yonoqi yondi,
Galyanda o‘xshoplo do‘lishg‘on oyo.
Jannatni hovosi galyotirg‘ondi
Men yorni qujoqlop o‘tirg‘on joyo.
Yurakim! So‘vadi mani dap roston,
O‘ylomo - “Yonimdo qolmoqo galdi”.
Xiyolino tushdik topotolosdon,
Yo‘l usti bir xovor olmoqo galdi.

* * *

Ilonlo o‘rmlap yurar haz atib,
Sulyunla boshlodi ajoyib gulki.
Go‘zzimni teyinnan boqsom as atib,
Bu bog‘ olg‘on akan jannatdan ulgi.
Sani moxto sayrar bulbul, to‘tilo,
Mani holim hamma oshiq holidiyn.
Ishq yomg‘iri yog‘ib, ko‘nglimda o‘tlo
Go‘karib chiqdilo, bo‘lib g‘olidiyn.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. A.Pratov “Xorazm shevalarining tadqiq qilinishi”, “Adabiyot va san‘at” gazetasi, 2007-yil, 16-avgust, Qozog‘iston.
2. U.Bekmuhammad “Xorazm va xorazmliklar. 5-kitob”, “Durdona” nashriyoti, Buxoro-2023-yil, 220-bet.
3. U.Bekmuhammad “O‘g‘iz shevasida jaranglagan she‘rlar” “Adabiyot va san‘at” gazetasi, 2006-yil, 23-dekabr, Qozog‘iston.
4. M.Abdulhakim “Bir qujoq gul” “Xorazm” nashriyoti, Urganch, 1997-y.

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
URGANCH INNOVATION UNIVERSITETI NTM**

INNOVATSIYA VA TARAQQIYOT

**2 (23)
2025-yil, fevral.**

Bosh muharrir:	M.Eshmurodov
Bosh muharrir o‘rinbosari:	S.Samandarova
Mas’ul kotib:	U.Bekmuhammad
Texnik muharrir:	A.Xushnudov
Navbatchi:	A.Xushnudov

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2023-yil 10-fevral kuni №062869 raqamli guvohnoma berilgan.

Bosishga topshirilgan vaqti: 10:00. Ruxsat etilgan vaqti: 11:00

Qog‘oz bichimi: A4. Adadi: 200 nusxa.

Hajmi: 5,625 b.t. Buyurtma №1/25.

Nashr ko‘rsatkichi: 1404.

Bahosi kelishilgan narxda.

“Milleniumus print” MCHJda ofset usulida chop etildi.

Urganch tumani, “Shermatlar” MFY, Tadbirkorlar ko‘chasi, 69-uy.

Tel: (+998) 91-994-24-00

Urganch innovatsion universiteti
220100, Urganch shahri, “Mustaqillik” MFY,
Gurlan ko‘chasi, 2-uy.
Tel: (+998) 90-436-20-22